

19

USMON
NOSIR

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI





USMON
NOSIR

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI





TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

USMON NOSIR



“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

rinda
g ma
krini
miz.
guv-
ishi
dek
va
lan
la-
ari
na-
”, b-
as
g
li

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton - hay'at raisi,

Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Naim Karimov, Marhabo Qo'chqorova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lami, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtramining ramzidir.

"CHAQMOQ" QAAYLANGAN SHOIR QISMATI

Usmon Nosir tug'ma she'riy iste'dod sohibi edi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning shoirning tug'ma iste'dodi va ijodi haqida obrazli tarzda bildirgan quyidagi fikrini eslash o'rinlidir: "Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz. U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Shoirning g'oyat qisqa umriga nazar solgan kishi juda uzoq o'ylarga tolishi shubhasizdir. Chunki, bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko'rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug' va she'riyatning diydasiidan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot poralaridir". Darhaqiqat, Usmon Nosir shoir e'tirof etganidek, "kuydirguvchi olov", "chaqmoq umr", "she'riyat diydasiidan oqib ulgurmagan shabnam", "qahqahaga aylanmagan nim tabassum", "tutqich bermas hayot poralaridir". Bu obrazli ta'riflar otashqalb Usmon Nosirning qisqa, ammo go'zal she'riyati va iste'dodiga berilgan eng chiroyli tashbehldir.

Usmon Nosir 1912-yilning 13-noyabrida Namanganda, "Chuqurko'cha" dahasida kosib mulla Mamatxo'ja Muhammadxo'ja oilasida tug'ilgan. U tug'ilishi bilan to'shakda og'ir yotgan otasi vafot etadi. Otalik mehrini to'rt yoshga to'lganida Usmon Mamasodiq o'g'li Nosirhoji xonadonida ilk bor totishga muvassar bo'ladi. 1916-yilning oxirlari 1917-yil boshlarida O'g'ayota (Nosirxo'ja Mamasodiqov — Namangan paxta zavodining ishchisi) Usmonni va uning onasi Xolambibini Qo'qonga olib ketadi. Qo'qonda Xolambibi yana uch farzand ko'radi. Bular: Ravzaxon, Rohatxon, Inobatxon. Usmon Nosir singillarini juda yaxshi ko'rgan. Shuning uchun, shoir 1934-yilda "Senga, singlimga" Ravzaxonga bag'ishlab uch bandli she'r yozgan. Quyida shu she'rdan parcha:



*Ko'chalarda quyosh bayram etar,
Yel orkestr o'ynaydi xursand.
Bilasanmi, bu to'p qayga ketar?
Qolma! Orqasidan yugur san!*

*Qolma! Osmon ko'm-ko'k bayroq kabi
Bosh ustingda yoyilgan hamon.
Tutqich bermay xuddi simob kabi
Olg'a qarab tashlanar har on.*

Xolambibi mahallada "otincha" nomi bilan mashhur bo'lgan. Usmon Nosir ijodini jiddiy o'rgangan O'tkir Rashidning ma'lumot berishicha, "Onasi Xolambibi ham ilmli, savodli ayol bo'lgani uchun Usmonning tarbiyasiga katta ahamiyat bilan qarab, o'g'liga kitoblar o'qib berar, ertaklar aytib uni zavqlantirardi. Shunga o'rgangan Usmon keyinchalik ham doim onasini ertak aytishga va kitob o'qib berishga majbur qilar edi. Usmonning adabiyotga havas qo'yishida, avvalo, onasi sababchi bo'lgan". Yosh Usmon ana shunday xonadonda o'sib-ulg'ayadi, so'ngra "Dorulshafaqa" deb atalgan Qo'qondagi 3-internatda ta'lim oladi. Bu maktabdan Abdulla Qahhor, Sobir Abdulla, Javdat Abdulla, Hasan Po'lat kabi shoir va adiblar yetishib chiqqan. Bu shoirlarning yetishib chiqishida maktab devoriy gazetasi asosiy rol o'ynagan. Usmon Nosir davrida bu devoriy gazeta "Bizning ko'zgu" deb atalgan. Ular orasida Usmonjonning ilk she'rlaridan biri "Haqiqat qalami" bosilib chiqqan. Bu she'r Muxtorxon domla tashabbusi bilan "Bizning ko'zgu"ning 1-sonida, so'ngra "Yangi yo'l" jurnalining 8-sonida bosilib chiqqan. Quyida o'sha she'r:

*Qo'llarda tinmay o'ynar
Haqiqatchi qalaming.
Umid kuyini tinglar,
Qalbingda yo'q alaming.
Haqiqatni yozasan,
Borliqni sen kezasan,
Zolim ko'nglin uzasan,
Erkin yo'llar chizasan.*

*Qalamingdan zo'r umid
Har vaqt chaqnab toshadur.
Ko'ngildagi zo'r belgi
Istak tog'in oshadur.*

Bu she'r birinchi marta Qo'qonda yashovchi xotin-qiz mux-biralarning slyotida o'qilgan. "Usmon" imzosi bilan muhrlangan ushbu she'r "Yangi yo'l" jurnalida Davron she'ri bilan yonma-yon tarzda e'lon etilgan. Usmon Nosir ijodining ilk tadqiqotchilari-dan biri Abubakir Rajabiydir. U zamondoshlarining xotiralari-ga tayanib, "Bizning ko'zgu" gazetasi va jurnalida yosh shoirning "Paxtakor", "Keng yo'lda", "Komsomol xati", "1-may", "Bahor" kabi ilk she'riy asarlari bosilgani haqida ma'lumot beradi. Bu maktabda bir vaqtning o'zida ikki iste'dodli o'smirlar Usmon Nosir va Amin Umaryiy tahsil olgan. Usmonjon dastlabki she'riy mashqlariga "Usmon" deb imzo qo'ydi. Madamin Umarov esa (Amin Umaryiy) ismi-sharifi adabiy taomilga ko'ra, shoirona is-lohni taqozo etgani sabab, ustoz Muxtorxon domla ularning biriga "Usmon Nosiriy", ikkinchisiga "Amin Umaryiy" degan shoi-ro-na taxallusni hadya etdi. Ular ana shu taxallus bilan muxlislari o'rtasida nom chiqara boshladi.

Usmon Nosir bolaligida mohir futbolchi bo'lgan. U mahalla bolalarini yig'ib, komanda tuzadi. Usmonjon bir tomondan jiddiy hayotiy saboq olib, oq-qorani tanib, qayg'u va shodlikni tanib, baxtsizlik va baxtning qariyb barcha ranglarini ko'rib, ikkinchi tomondan, o'z irodasi, bilimi, intilishlari bilan nimani egallashi mumkin bo'lsa, shu narsani zabt etib ulg'aydi. 1929-yilda to'qqiz yillik maktabning birinchi bitiruvchilar sifatida ikkinchi bosqich o'zbek maktabini tugatadi.

Usmon 1929-yilda maktab bitiruvchilari bilan Leningradga ekskursiyaga boradi, u yerdan olam-olam taassurotlar bilan qaytib keladi. U Qo'qonda ochilgan pedkursda o'qituvchi va ilmiy mudir bo'lib ishlaydi. 1930-yilda Usmon Temur Fattoh bilan Moskvaga borib kinematografiya institutining ssenariy fakultetiga kirib o'qidi. Lekin u yerda kasal bo'lib Qo'qonga qaytadi va yana o'qituvchi-lik qilib, 1933-yilning 1-sentabrida Samarqandga Oliy pedagogi-

ka instituti (keyin pedagogika akademiyasiga aylantirilgan) oliy ma'lumot olishga o'qishga qabul qilindi. Dorilfunun domlari o'z sohalarining bilimdonlari edi. Xususan, Usmon Nosirning ustozlari Fitrat, S. Ayniy, V. Vyatkin, G. Shengelilar uning yuragidan chuqur joy oldi. Dorilfununda G'oz Olim Yunusov va Shokir Sulaymonlar ham dars berishar edi. Shoirning go'zal she'rlari 1933-yildan yaratila boshlandi. Bu yillarda yaratilgan "Monolog", "Yurak", "She'rim" singari go'zal badiiy durdona she'rlar dunyoga keldi. Usmon Nosir iste'dodining sayqal topishida dorilfunundagi ajoyib ijodiy muhitning ta'siri katta bo'ldi. Onasi Xolambibi farzandini sog'inib, sog'inch to'la so'zlarini qizlarga aytib, yozdirib, o'g'liga xat jo'natar edi. Shoirning "Oq yuvib, oq tarab" nomli she'ri Xolambibidan kelgan ana shunday xatlar ta'sirida yozilgan.

Usmon Nosir qisqa umri davomida "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" she'riy to'plamlar hamda "Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman" dramalarini yozdi. 1935-yilning iyun oyida Arman yozuvchilari I qurultoyida qatnashish uchun Usmon Nosirga imkoniyat beriladi. Qurultoy 1-5-avgust kunlari bo'lib o'tadi. Ana shu safar taassurotlari asosida yozilgan beshta she'r, biri Bokuda, ikkinchisi Tiflisida va qolgan uchta Yerevanda qog'ozga tushgan. Ana shu ijodiy safar chog'ida o'z ijodining gultoji — "Naxshon" dostoni uchun ilhom va turtki olgan. Ushbu dostonning badiiy g'oyaviy mundarijasida "Norbo'ta" da yorqin ko'ringan inqilobiy ruh, inqilobiy davr manzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Naxshon ismli bolaligida ota-onasidan yetim qolgan qiz sarson-sargardonlik yillaridan keyin Maro Sarkis oilasida boshpana topadi. Boshpanagina emas, mehribon ota-ona topadi. Ammo bu oila hayotiga inqilobiy davr shabadasini shiddat bilan kirib keladi-da, dastlab Sarkis qamoqqa olinadi. Maro esa jangohda halok bo'ladi. Naxshon esa jarohatlanadi. Uning muhabbatini qozongan Ashot Maro kabi halok bo'ladu. Doston 30-yillardagi she'riyat shaydolarini larzaga keltirgan g'oyat go'zal satrlar, o'zbekona tabiat manzaralari va o'zbekona ayol go'zalligining beqiyos tasviri bilan boshlangan:

Bog'larga namozgar

Salqini tushdi.

Gullar nam bargini

Qayirdi asta.

Oftob ham suv ichar

Tog'lardan pastda.

Loladek qip-qizil

O't-shafaq uchdi.

Zamondoshlarining shahodat berishicha, Usmon Nosir o'sha yillarda fasllarning, tun bilan kunning o'zaro almashish daqiqalariga xos ilohiy belgilarni payqash, tuyish va ko'rishga katta ahamiyat bergan. Nasrullo Davronning guvohlik berishicha, u quyosh chiqib, tong otish manzarasini barcha bo'yoqlari va nozik belgilari bilan ilg'ab qolish va keyinchalik asarlarida foydalanish uchun daryo va ko'l bo'ylarida tong o'ttirgan. U, shubhasiz, shunday qiziqish bilan kun botishi-yu oqshomning moviy ipak pardasining tushishini ham kuzatgan.

Usmon Nosir Uzoq Shimol, Kavkaz, Armaniston, Ozarbayjonda ijodiy safarlarda bo'ldi va bu yurtlardagi taassurotlari va kechinmalarini she'rga aylantirdi. Xususan, Usmon Nosir she'riyatida bot-bot ko'zga tashlanadigan Dengiz, Shafaq, Tiflis oqshomi, Sevan poetik obrazlari bejiz yaramagan. Masalan:

Shafaq — uzun, qizil lenta

Dengiz chetida.

Shovillab shabada yelar

To'lqin betida.

Oppoq qanoti qayrilib

Oq qush ucharmi?

Yonbag'irlab muncha pastda,

Suvga tusharmi?

Bu she'r 1934-yilda Bokuda, Kaspiy dengiz taassurotlari asosida yozilgan.

"Atlas" shoirning birinchi dramatik asari emas. Tadqiqotchi Abubakir Rajabiy bergan ma'lumotga ko'ra, Usmon Nosir "Atlas"ga qadar "Zafar" (1929), "Nazirjon Xalilov" (1930), "Dushman" (1931) pyesalarini ham yozgan. "Zafar" dramasi o'tgan asrning 30-yillarida Qo'qonda sahna yuzini ko'rgan.

"Atlas" o'zbek teatri, xususan, dramaturgiyasi tarixida universitet talabalari haqida yozilgan birinchi dramatik asardir. Pyesada dorilfunun fizika-matematika kulliyotining ikki domlasi — professor Mamontov bilan dotsent Nozim Kamolov hamda Atlas va Orzumand ismli ikki talaba asosiy qahramon sifatida ishtirok etadi. Usmon Nosir asarning markaziy qahramoniga go'zal ismгина topib qolmay, uni go'zal ichki olamga ega bo'lgan inson sifatida ham tasvir etadi. Pyesada bor-yo'g'i besh kishi ishtirok etadi. Shoirning zamondoshlari baho berishicha, "Atlas" dramasi "rejissorning ijodiy kuchiga teng yo'l ocha turgan" bir pyesa bo'lgan. Mazkur drama yangi mavzuni ko'tarib chiqishi jihatidan ham o'zbek dramaturgiyasi sohasida yangilik bo'ldi, ulkan ahamiyat kasb etdi.

1935-yilning erta ko'klamida Usmon Nosir Samarqanddan Toshkentga ko'chib keladi. U "Yosh leninchi" gazetasida ishlaydi va Toshkentdagi adabiy-ijodiy muhitga tez sho'ng'ib ketadi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Usmon Nosir ijodining o'n yilligiga bag'ishlangan ijodiy kecha o'tkaziladi. 1937-yilda Moskvada bo'lgan o'zbek san'ati va adabiyoti o'n kunligida ham Usmon Nosir qatnashdi va o'sha kunlarda SSSR Yozuvchilar uyushmasining A.S. Pushkinga bag'ishlangan IV plenumida bir guruh atoqli o'zbek adiblari bilan birga ishtirok etdi.

U Toshkentga ko'chib kelganida, O'zbekiston Sho'ro yozuvchilari uyushmasi jumhuriyat viloyatlariga yuborish uchun ijodiy guruh tuzmoqda edi. Abdulhamid Majidiy, Hasan Po'lat, Usmon Nosirdan iborat O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining ijodiy brigadasi Xorazmga jo'natiladi. Xiva shahriga qarashli "Qizil askar" kolxozida bo'lib o'tgan uchrashuvdan keyin Usmon Nosir "Xorazm qiziga" she'rini yozadi. Shu she'rdan parcha:

U sen, ko'zim, yur bog'larga

Eltay yetaklab;

Binafshalar terib beray

Senga etaklab.

"Bu shoir, — deb, — bu "yengil", — deb

Asti qarama.

O'pgan o'pichlarim haqqi,

Inontiraman...

Xullas, shoir Xorazmda ijodiy safarda bo'lgan chog'ida bir necha kolxozlarda bo'ladi, publististik maqolalar va she'rlar yozadi. Ayni shu safar chog'ida shoirning "Xorazm qiziga" she'ri yoziladi.

30-yillar adabiy hayotida ro'y bergan va aksar o'zbek yozuvchilari ijodida chuqur iz qoldirgan voqea A.S. Pushkin asarlarining o'zbek tiliga tarjima etilishi bo'ldi. Rus shoiri vafotining 1937-yilda nishonlanajak 100 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda keng ko'lamlı tarjima ishlari amalga oshirildi. Usmon Nosir Pushkinning "Boqchasaroy fontani" asarini nihoyatda katta iste'dod va mahorat bilan o'zbekchalashtirdi. Shoir o'zining betakror badiiy tarjima mahoratini namoyon etib, Pushkinning poemasidan tashqari, N.A. Dobrolyubovning "Haqiqiy kun qachon keladi?", V.I. Kirshonning "Ulug' kun" dramasi, M.Y. Lermontovning "Demon" dostoni va bir qancha she'rlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ba'zi bir she'riy namunalarini o'zbek tiliga o'girdi. Bu badiiy tarjimalar o'zbek adabiyotining tarjimachilik sohasida shoh asarlar sifatida tarixga muhurlandi.

Usmon Nosir lirikaning siyosiy-ijtimoiy, intim, peyzaj lirikana namunalarini nihoyatda nuqtadonlik bilan yaratdi. Binobarin, shoirning "She'rim", "Yurak", "Nil va Rim", "Monolog", "Yuraganmisiz birga oy bilan", "Yana she'ringa" kabi qator she'rlari shu bugun ham o'zining asl badiiy jozibasini aslo yo'qotgani yo'q. Aksincha, bu she'riyat namunalarining asl qadr-qimmatı kundan kunga oshib bormoqda.

1937-yil 13-iyul kuni Usmon Nosir O'zbekiston Ichki ishlar xalq komissariati xodimlari tomonidan hibsga olindi. 1938-yil 5-oktabr kuni o'n yilga ozodlikdan mahrum etilib, sho'ro mehnat-tuzatuv lagerlariga yuboriladi. 1944-yil 9-mart kuni Usmon Nosir Marinsk shahri yaqinidagi Suslova qishlog'ida og'ir kasallik bilan vafot etadi.

Usmon Nosir hayoti va ijodi N.Karimov, B.Rajabiy, I.G'afurov, O'.Rashid, N.Rashidova, N.Umrzoqova singari ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Shoir Turob To'la Usmon Nosirning asov she'riyati haqida shunday deydi: "Usmon she'riyatimizga shamolday kelib ketdi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy

uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda o'zbekning Lermontovi, Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi", deb yozishdi". Shoir "Yurak" she'rining oxirgi bandini shunday tugatadi:

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..

Darhaqiqat, Usmon Nosir o'zi she'rda bashorat etganidek, o'zbek she'riyati osmonida kuchli chaqmoq kabi chaqin chaqib, butun jumla jahonni nurlantirdi, gulduros soldi. Ammo chaqmoq umri singari qisqa umr ko'rib, chaqmoqqa aylanib, bu olamdan nohaq tuhmatlar, millatchilik va xalq dushmani degan yolg'on ayblovlar bilan uzoq Sharqda vafot etdi. Ammo shoir o'zi aytganidek, uni Vatani, xalqi aslo unutmaydi:

Bargdek uzilib ketsam

Unutmas meni bog'im.

Ishimni hurmat qilor,

Gullardan haykal qurur.

She'rlarim yangrab qolur,

Ming yillardan keyin ham

Unutmas meni bog'im.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov chaqmoq bo'lib dunyoga kelib, dunyodan tez ketgan Usmon Nosir hayoti va ijodiga shunday obrazli ta'rif beradi: "Men negadir Lermontov va Yesennini, Hamza va Usmon Nosimi munkillab yurgan chol sifatida ko'z oldimga keltira olmayman. Ular chaqmoq bo'lib dunyoga kelganlar-u, chaqmoqday olovli iz qoldirib dunyodan o'tganlar.

Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham gavhar; iste'dod shunday zilol irmoqki, uning har bir qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; iste'dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g'unchasida chamanlarning bo'yi, tarovati bor.

Usmon Nosir iste'dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shunday g'uncha edi".

Usmon Nosir jahon adabiyotining mashhur nomlari Sapfo, Petrarca, Dante, Shekspir, Pushkin, Lermontov, Yesenin ijodini jiddiy

o'rgandi. Zero, shoirning mutolaa doirasini "Monolog" she'ridan ham bilsa bo'ladi. She'rdan parcha:

Seni yaxshi bilaman, go'zal.

Petrarkani o'qiganim bor,

Buyuk Rimning Sapfosi azal

Xayolimni oshiqday tortar.

Shu bir she'r misolida Usmon Nosir antik yunon va rim adabiyoti, uyg'onish davri italyan, ispan, ingliz, fransuz adabiyotini, XX asr tanqidiy realizm adabiyotini chuqur o'rgangani taxmin etish mumkin. Ayniqsa, Usmon Nosirning zamonaviy o'zbek she'riyatini ham badiiyat, ham shaklan yangilab beraganini qayd etmoq kerak. Binobarin, shoir jahon adabiyotining ilg'or ijodiy-adabiy an'alarini o'zlashtirib, yangi o'zbek she'riyatida sonet janrining go'zal namunalarini yarata oldi. Jumladan, bu o'rinda mashhur "Yana she'rimga" sonetini eslash joiz sanaladi:

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,

Bog'ga kirsang, gullar sharmanda.

Bir men emas, hayot shaxsisan,

Jonim kabi yashaysan tanda.

Yuragimning dardi — naqshisan,

Qilolmayman seni hech kanda!

O't bo'lurmi ishqiy yo'q tanda?

Ishqimsanki, she'rim, yaxshisan.

Sen orada ko'prik bo'lding-da,

Geyne bilan o'rtoq tutindim,

Lermontovdan ko'mak o'tindim.

Butun umrim sening bo'yingda.

Saharda qon tupursam, mayli,

Men — Majnunman; she'rim, sen — Layli!

Usmon Nosir Yangi o'zbek she'riyatida "Yurak", "Yuksal, oppog'im!", "Monolog", "Gulzor — chaman. Yur, bog'larga", "Tiflis oqshomi", "Yana she'rimga", "Yo'lchi", "Yodimdadir uzoq shimol", "Yur, tog'larga chiqaylik", "Yurganmisiz birga oy bilan", "Nil va Rim", "Bog'im" kabi o'nlab badiiy durdona she'riyati bilan o'zbek adabiyoti tarixi sahifalariga zarhal harflar bilan yozilib qoldi.

Usmon Nosir bor-yo'g'i 32 yil umr ko'rib, o'zidan she'rlar, dostonlar, dramalar, adabiy-publististik maqolalar, tarjimalar qoldirdi.

Usmon Nosirning vafotidan so'ng, shu kunga qadar "Tanlangan asarlar" (Toshkent, O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959), "She'rlar" (Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965), "Tanlangan asarlar. Ikki tomlik" (Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969), "Yurak" (Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984), "Unutmas meni bog'im" (Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988) kitoblari qayta chop etildi.


Usmon Nosir o'zbek xalqi tarixining eng murakkab davrida yashab ijod qildi. Shu davrda hukmron kuchning o'z partiyasi, o'z mafkurasi, o'z bayroq va gerbi singari timsollaridan tashqari, yana Lenin, partiya, sotsializm, kommunizm singari so'z va tushunchalardan iborat timsollari ham bo'lgan. XX asrning birinchi yarmida tug'ilgan qariyb barcha shoir va yozuvchilarning asarlarini ulardagi shunday so'z va tushunchalarni, ya'ni mustabid tuzum muhrini qoldirgan holda bugungi kitobxonlarga taqdim qilish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun biz shunday so'zlarni bugungi kun tushunchalari bilan almashirishga, iloji bo'lmaganda esa, ayrim satrlarni qisqartirishga majbur bo'ldik. Bu hol Usmon Nosir asarlarining mazmun va mohiyatiga zarracha ham salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, bu asarlarning hozir ham g'oyaviy va badiiy qimmatini yo'qotmaganidan shahodat beradi.

Ushbu nashr avvalgi nashrlardan ancha farq qiladi. Ushbu "Tanlangan asarlar"ni tayyorlagan o'rtog'lar unga shoirning unutilgan, ammo turli yillarda turli gazeta va jurnallar sahifalarida saqlanib qolgan barcha she'rlari hamda tarjimalarini jamlab, Usmon Nosirning nisbatan mukammal nashrini tayyorlashga erishdilar, desak xato bo'lmaydi. Kitob mundarijasidagi asar sarlavhalari oldiga qo'yilgan yuduzchalar ularning yangi topilgan asarlar ekanligini anglatadi.

Naim Karimov,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi



SHE'RLAR



HAQIQAT QALAMI

(Muxbirlarga bag'ishlab)

Qo'lingda tinmay o'ynar
Haqiqatchi qalaming.
Umid kuyini tinglar,
Qalbingda yo'q alaming.

Haqiqatni yozasan,
Borliqni sen kezasan,
Zolim ko'nglin uzasan,
Erkin yo'llar chizasan.

Qalamingda zo'r umid,
Har vaqt chaqnab toshadir.
Ko'ngildagi zo'r belgi
Istak tog'in oshadir.

1927

Namangan, Tanhogo'r mahalla,
yetimligimning hamdardlari mahallasi
U. Nosiriy.

Boraman men sizga, qarindoshlar,
Qurollanib, yangi kuch bilan.
Zamon ancha ibrat berdi menga,
Ko'zni ochdim zo'r kurash bilan!

Qaytalabdan tug'dirdilar meni,
Ot singari o'ynar yuragim,
Ot singari qiziq tilagim,
O'rtoq Sattor,
O'rtog'im Meli!

Qalay turmush?
Qalay ishlaringiz?
Safimizda bormisiz siz ham?
Tanhogo'rning kaski mullalari
Tugadimi, topdimi barham?

Men sizlarni yashartishg'a bu kun
Umid etdim, otlang'anim shu.
Borar bo'ldim sizga yaqinda,
Armon: dingga qarshi kurashuv!

1931

ZAMON POCHTASI

1

QISHLOQQA

Onajonim, unutganim yo'q
Bahorlari gul qishlog'imni.
Esda hali yoshlik kunlari,
Sog'inamen oltin tush payti,
Sohib bilan qo'shiq aytishib,
Dastalagan boshloqlarimni.

Lekin ko'z o'ngimda, onajon,
U yillarning qora kunlari.
Suvsiz anhor bo'ylab tunlari -
Tashna toychoqlarni yetaklab.
Zim-ziyo, boshi berk ko'chalar
Zulmatga kirib ketganlar...
Yillar nega urug' sepmagan?
Yerlar nega qurib qaqshagan?

Ancha bo'ldi, qo'sh yetaklamay,
Feruza yuzli qizlaringni
Ko'rmaganim, o'pmaganimga;
Otlar haydab chol devorlardan
Nayni chalib o'tmaganimga.
Uyg'ontirib sil qizlaringni -
Ketmaganimga, eh! — yetaklay...

Ancha bo'ldi zamon qulubin,
Maktablarin o'tib yuramen.
Yana senga teraman boshloq,
Hamon senga umr qo'shamen!

Hamon hali yomg'irni kutib,
Suvsiz tashna yoturmi dala?
Hamon hali qup-quruq yerlar
O'stirarmish o'ra, shamg'iya.

Ezgu ishningina uzoq yashashga
Hamon hali masjid mehrobidan
Eshitilarmi chigirtka dodi?
Hamon hali xalq qulog'idan
Ketmaganmi Mashrab faryodi?
Hamon hali kulmamish quyosh.
Tunlar yulduz ko'rmay o'talar?

.....
Ona, mehr qalami bilan
Yozgil menga javob satrlar!..

Oz.B.K.G.A.I. INF
Muz.
№ 5667 (da)

Qishloqdan

Qo'zim, o'g'lim, omon-essonmi,
Yuribsanmi onang o'rgilsin?
Aylanayin aql-u hushingdan,
Anchagina ko'z ko'rar bo'psen...

Oldim yozgan xatingni kolxoz -
Dalasida, paxta boshida.
Tuzukkina so'roq qibsen so'z,
Eslab o'tganlarni boshingdan...

Bizda hozir ishlarimiz butun
Yangi yo'llarga kirib borar.
Kolxoz tuzganmiz, barq uradi
Oppoq, momuq, momiq paxtalar...

Birga ishlab, birga turamiz,
Muhtoj bo'lish nima, bilmaymiz!
Mashinalar, otlar bir saroyda...
Yana qiziq axbor, o'g'lim, senga:
Qishloq mushtumzo'ri Madamin
Tugatilgan, hovli-joyida
Maktab bilan yasli ochganmiz!

Ekin ishi bilan, fan bo'lib,
Bilim bilan ekilayotir.
Unum yaxshi bo'lib, dehqonlar
Yaxshigina kun ko'rayotir.

Birga ekib, birga o'ramiz,
Zorlanmaydi hech kim darmondan.
Har kim rasamat-la oladir
Mehnatiga yarasha dondan.

Yoz paytimi mashinalarda
Qirlar bag'rida yuz ochalar.
Shuning uchun bizda paxtalar
Suqlantirar bo'lib esalar.
Shuning uchun yangi turmushda
Yuksalanar kunlar va oylar.

Kulki, o'g'lim, bergan so'roving,
Mehrob endi buzilib ketgan.
Ammo solar nasllarda kam —
Bo'lsa iz solgani uning!

Shunday, qo'zim, yangi turmush
Qanot qoqib kirib keladi.
Qishloq o'sib, gullab boradi,
O'sib borar aql bilan hush!..

1931

OQ YUVIB, OQ TARAB...

Onajonim, sog' bo'lsang
Sevinchim mening.
O'zim har joyda, dilimda —
Mehring o'ti sening.
Hol so'rabsan shu xatingda,
Onam, ikki ko'zim:
"O'g'lim o'qishlaring qalay,
Sihatmisan, qo'zim?"
Kunlar havas uyg'otganlar,
Tilak yo'lga kirgan.
O'g'ling usta bo'lib endi
To'p-to'g'ri so'zlardan —
Baytlar to'qiyturg'on bo'lgan.
Onajonim, sog' bo'lsang
Sevinchim mening.

O'zim har joyda, dilimda —
Mehrimg o'ti sening.
Esingdami, g'arib ona,
U qishlarning zahri?
Yuzni momataloq qilgan
U yillarning qahri?
Mehrisonim yodga tushdi,
Bir kuni kuz nahori,
Sarg'ayib yerga tushgani
Bir ko'm-ko'k yaproqning.
Qon, yoshlar-la to'lganda
U ko'zlaring seni,
Tuproqqa yuz tutganida
Umring bahori.
Qora kunlarning azobini
Kechalari sanab,
Oyoq yalang, bosh yalang'och
Qolgan kunlar qani?
Onajonim, o'tdi yillar,
Uchdi yillar oti...
Esga solma mushtumzo'r —
Ko'risha olmay diydor,
Ajrashib ketganimiz...
Men ko'chalarda xor...
Esga solma mushtumzo'r —
U xo'jalarni:
Meni ko'p qiynadi,
Jodi olib qo'llarimni —
Qonlarimni ketkizdi,
Urilib yuzlarimga u,
Holimni bitkazdi...
Onajonim, o'tdi yillar,
O'chdi yillarning oti.
Yuzlarimga qara, qani?
Yillarning zahri qani?

Yodga tushib quvontirar
Shirin gullarning
Salomi-la qo'yin ochgan
Internatim mening...
Qo'tig'imdan tutgan Mo'ydin,
Javlon, Abdullolar,
Ko'chalardan topib meni
Yuvgan akalar.
Ko'zlarimning qorasidan
Suratlar solganlar —
Dillarimning safhasida
O'chmas yozilganlar...
Yaxshi, ona,
O'qish yaxshi,
Sihatligimdir yaxshi.
Borajakman, o'tkazay-chi,
Bu o'qish yilini...
Oq yuvolmay, oq tarolmay
O'tgan bo'lsang, ona,
Oq yuvib, oq tarab
Katta qildi zamona.
Onajonim, sog' bo'lsang bas,
Sevinchim uchun mening,
O'zim har joyda,
Dilimda —
Mehrimg o'ti sening.

1931-yil,
Samarqand

YUKSAL, OPPOG'IM!

Men ko'rganda juda yosh eding,
Ulg'ayibsan, husn kiribdi.
Yuragingga tor kelgan taning
Kengayibdi, xo'p kelishibdi...

Bangi cholning o'chgan shami kabi
O'chib ketdi oti o'tmishning!
O'ynoq bo'lib o'rtoqlarning labi,
Shirin so'zlar qolmas sira tilning
Taglarida berkinib, o'lib.

Achchig'lanmas, umring bo'g'ilib.
Ranglaringga rang qo'shilibdi;
Bug'doy kabi yashnaydi yuzing,
Charos kabi qop-qora ko'zing,
Ko'zlaringga oy berkinibdi.

Saboqlaring aql beradi.
Qo'ltig'ingda daftar, kitobing,
Kursga borasan,
Ko'chalardan
Tingladim men bosgan qadaming.
Yuksal, oppog'im, qo'zichog'im,
Qo'lni parda qilma, ochilg'il,
Yuksal, oppog'im!

1931-yil, Qo'qon

QUYOSH BILAN SUHBAT

Kiydi tos to'n
Gumbazi osmon.
Olovlandi olmacha yuzlar,
Tun ketdi, ergashib shu choq.
O'tgan kunlar,
Orqa ketidan
Bo'y ko'rsatdi yerning onasi
Shirin-shirin jilmayish bilan,
Bera ketdi o'tli qo'lini

Menga o'rtoq hurmati bilan.
Tutdim qo'lin, mening boshginam.
Bo'lib ustida sarbast girya.
Nurin qo'ydi mening ko'zimga
Mening kulgim bilan u kula...
Yigirmanchi bahoriga dast
Bergan, uzatgan umrim mening,
Kunlar shuuri bilan zo'r, ki —
To'lgan diydam, armonim mening.
Menga oshna bu oltin nurli iz
Ko'zlarimni ochgandan berli.
Menga oshna bu o'tli dilbar so'z
Tilim so'zga kirgandan berli.
Mening bo'yim keng dalada
Yuksalgan, o'sgan, ko'tarilgan,
Tilim-chi mening majlislarda
So'zga o'rgangan, —
Burro bo'lgan.
Mening umrim, davr bilan bir
Qadam qo'yadir, qars bosadir.
Shuning uchun mening har she'rim
Kurashning she'ri deb,
Eh, ataladir:
Shuning uchun mening bu tilim
Kurashning tili ataladur.
Qo'l tutgandan so'zimni
Otdim,
O'rtoq Quyosh,
Ona Quyoshga.
Dunyoda hech bir umr yo'q, ki —
yetar bo'lsa sening yoshingga.
Sen hammadan qari, umrli,
Sening ko'zlaring dunyo ko'rgandir,
Sen dunyoning tarixshunosi,
Dunyo sendan tarix topgandir.
Tarix guvohi o'rtoq Quyosh,

So'yla doston, menga so'ylagin,
O'g'ling, o'rtog'ing, shoiring
Dostoniga mazmun yaratgin.
Indamadi...

Dunyo ko'rgan, bilgan har bir jon;
"Ana chiqdi, kuldi", deb aytar
Har bir tilda har yerda, har on...

So'ylay senga, tingla Quyosh sen,
Bilganimni — yangi bir doston.
Bir dostonki, dostonlardan ham
Ko'p yuqori, dovrugli doston.
Sen umrda haligacha hech
Bilmagansan, tinglamagansan,
Eshit, Quyosh,

Eshit meni, ay: —

Ko'rganmiding, bilasanmi, ayt —
Shunday vaqt, shunday kunlarni?
Umring bo'yi chiqqanmiding sira
Hech bir qachon kecha-tunlarni?
Sen bilmagan,

Kuching yetmagan,

Tunlar tongini ottirdik biz,

Ko'r, qizillikni,

Ko'r, tonglarni

(Sendan mastlik istamayman men,
Istaymanki, meni, faqat
Quloq berib tinglashni.)

— Bilasizmi, qandayin sur'at,

Qanday chidam, qanday kuch bilan
Yashash o'qini o'tqizdik biz
Bunda jang-u kurashlar bilan.

Ko'rganing yo'q, inkor etmagin.

Men ham gap bilar bir yosh yigitman —
Ki, ya'ni bir qilichdek askar,
Mening kuchlarim yangraydir.

Bunda hamon har sahar basar —

Qura ketdik va tuza ketdik
Eskilikka qarshi bur dunyo.
(Ko'zdan yiroq iflos moziy u —
Kirli,

Alamli,

Dog'li xo'lyo...)

Paxta dalasida Meliboy

Zavq bilan ketmon uradir.

Traktorni haydab yo'lga solib,

Dam bermay qo'riq ochadir.

Agronomning shirin suhbat

Har diliga qandek yoqadir.

Tursunali ish bilib olib

Agronomdan yo'l o'rganadir.

Oliyoxon, Melixon, Anor,

Nor kampirlar qurt tutishadir.

Bir galasi hunar xonada

Kiyim bichib, kiyim tikadir...

Go'daklarning yuzlari qizil,

Tarbiyalanar, yasli ozoda.

Navqironlar baquvvat, nodir,

Bel bog'lagan, qoldirgan dog'da.

Takyasiga ezib ko'knori

Rangi so'lgan — bo'g'iq jonlarni...

Turdimat chol savod chiqargan —

Gazetani o'qiydir shatir...

Otaboylar majlisda chiqib

So'z qiladir... eh... juda o'tkir...

Xayriniso eshik ochadir

Qo'lda qalam bilan daftari,

Pishiqtirgan u sabog'ini,

Maktabiga tomon chopadir...

Bunda tarqoq, qo'rqoq qishloqlar,

Bir kollektiv qilib bemaol.

Batrak, kambag'al va o'rta hol

Ro'zg'orlarni yana boshqatdan
Yangi usul bilan quradir.
Paxta uchun kurash boradir,
Bel bog'lagan yigitlar butun,
Ish bo'lsa-chi, sira tolmaydir
Na kunduzi va na kechasi...
.....
Tevarakka sas berib zavod
Tongda gudogini choladir...
Tosh ko'chalar bo'ylab ishchilar
Daryo kabi cho'ziq oqadir...
Boradi dizeli yoniga,
Neft yondirib, quvvat beradir.
Dizel mashinani yaxshilab,
Paxtalarni toza saralab
Davri chiyrig'idan o'tkazadir.
Fabrikaning ipaklarini
Qumri silliq qilib o'raydir...
Nadya unga ish o'rgatadir,
Yaxshi usulni u ko'rgazadir.
Shahar obod bo'la boradir —
Solilib qavat-qavat uylar,
Suv novlari ... tosh ko'chalar,
Farah har yonni qoplar.
Kechalari idoralarda
Yonar elektr va nurlardan
Kamalak bo'lib shu'la tushadir.
Ko'rsang ishda o'rtoq xizmatchi,
Adadlardan gigant chiqarar...
Yo'lboshchimiz to'g'ri yo'lida
Har jabhada kurash qizigan,
Har jabhada bizniki yenggan,
Yo'lboshchining to'g'ri yo'lida.
.....
Qurila ketdi gigantlar,
Po'latlardan poydevorlari...

Bo'y ko'rsatdi, qurildi bunda
Mamlakatning qo'rg'onlari...
Bunda Selmash, bunda Chirchiqning
Har ho'plami kerak bo'ladir...
Elektrik oylar yaratib,
Elektrik kuchlar tug'adir...
Temir qadam bilan sanoat
Qurilishi olg'a boradir.
Zamon erkini qo'lga olgan
Tanobini bilib soladir...
Kishnab yo'lga chiqqan parovoz
Dasthlar o'tib sira tolmaydir.
Transport vatandoshlarim
Xizmatiga jon kuydiradir.
Shunda... bunda qaytadan yana
Qurilayotir yangi bir dunyo.
"Biz hozir qadamni qo'ydik
Kelajakning gulgun bog'iga".
Quyosh,
Quyosh,
Hay o'rtoq quyosh,
Mana senga doston... hali bu
Qo'shiq tugab bitgani yo'qdir...
Doston hali tamom bo'lgani yo'qdir...
Quyosh,
Bu mening sinfdoshlarim,
Quruvchilari yangi hayotning.
Ularki,
Azamat,
Azamat yoshlar —
Biz yurganda
Silkinar yer,
Turmas tek.

SLYOTGA KUYLAYMAN

(*O'rtta Osiyo yetakchi paxta
rayonlari slyotiga*)

Hali ulug' yelkasi
Oshib tushmay oy,
Hali Zuhra yulduz kulib,
Xoldor ekan soy.

Yostig'imdan bosh ko'tarib,
Ishga tolaman.
So'zlarga komanda berib,
Ishga solaman.

Mening odat: to sahardan
Quyosh kulguncha,
Ustol ustida o'ltirmoq
Qoqmasdan mijja.

Sotsial yurt uchun bermak
Qattiq tikib ko'z.
Xoh bitta she'r, xoh bir satr,
Xoh birgina so'z.

Shoirligim safarbardir
Mamlakat uchun.
Oddiy dujurka kiygan
Ishchilar uchun.

Sahar edi... Zuhra yulduz
So'nmagan hali.
Kattakon o'ynoq soyni
O'chmagan xati.

So'zlarga komanda berib,
Ishga toldim men.

Slyot minbariga she'rni
Tikki qo'ydim men.

"Paxta uchun kurash —
Bizning sharoitda
Kelajak uchun
Kurashdir".

(*A. Ikromov*)
1932

* * *

Aytayin chin avji birilan muddao kam bo'lmasin,
G'oyamiz — rahbarimiz, sodiq ona kam bo'lmasin.

Paxtakor, qirg'iz, tojik, turkman, qozoq, o'zbek — hama
Mamlakat buyrug'ini aylab bajo, kam bo'lmasin.

Yenganini har nafas mehnat bilan isbot qilib.
Keng dujurka ustida, qo'li qora kam bo'lmasin.

Ko'zi tolmas, so'zi o'tkir, charchamas kolxozchilar
Yer bag'ridan topgan talant kunlar aro kam bo'lmasin.

Lab ochib har jonli bunda tajribasin so'ylasin,
Paxtaning texnikasin bo'lgin u dono kam bo'lmasin.

1932-yil, avgust

NABI

Nabi bola chog'larida
Sira rangi kirmagan.
Nabi yoshlikdan yetim,
Sira rohat ko'rmagan.
Erkalatolmay o'tgan
Uning onasi Xoldor.
Tug'gan-u — ko'zin yumgan

Uning onasi nochor...

U kunlar na non bo'lgan,
Na bir qutlum suv bo'lgan.

Ko'z ochib onasini

Nabi ko'rmasdan qolgan.

Kimdan tug'gan?

Qani u?

Bilmagan go'dak Nabi,

Mahallada bir tug'mas

Juvonning kelib rahmi,

Yil qahriga qaramay

Bag'riga bosgan uni,

Yo'rgaklab ko'tarib,

Tuvagin yuvgan uni.

Mushtipar xotinidan

Ajralgan er — ota.

Kambag'allik orqasidan

Qul bo'lib ishlab o'tar,

Topganini zo'rg'a-bazo'g'r

Kunligini ishlab — kun,

Umr o'tkargan bechora.

Yoy bo'lib beli butun...

Ko'zi quvvatdan ketgan,

Juda tolgan darmoni.

Kasallikdan u ham ketgan

Qolib dilda armoni...

Ehtimol, cho'chigandir

Go'dak Nabi tunlarda?

Ehtimolki, bilgandir,

Nabi biror paytlarda,

Onajoni qayoqda,

Kimda qoldi u, bunda?

Mehriboni qayoqda,

Otajoni kim bo'lsa?..

Nabi hozir maktabda

Dam bermasdan o'qiydir.

Har kuni erta bilan

Men bilan uchrashadir.

Bilmaydir o'tganlarni,

O'ktamni "ona" deydir,

O'ktamxon silab-siypab

"Bo'yingdan onang", deydir.

"Burchliman" deyman har gal

Uchratganimda uni,

So'zlashga o'tganlarni,

Topmayman hech bir mahal...

Yo'q.

O'ylayman tarbiya

Joyida bo'lsa; uni

Ne hojati bor bunda

Ota bilan onani?..

Nabi hozir maktabda

Yaxshi o'qib boradir...

Pioner u, tez kunda

Dono bo'lib oladir.

Hurmat senga chechakdan

Uni saqlagan, ona!

Suxsur qilib Nabini

Yuvub o'stirgan, ona!

SENIKIMI SHU BO'Y?..

Buruqsagan tutun

Ko'kka uchadir,

Lochin kabi og'ir

Qanot qoqqanday,

Doiralar chizib —

Turg'un suvlarga

Bir chak tomsa, o'ynab,

Kamon otganday...

Toshib qaynar yurak,
Qaynab yurar qon.
Asab tugunini
Qo'lga topshirgan:
Ipaklarday pishiq,
Po'latday mahkam
Umr idorani
Umid apch urgan...
Biri — toshchi, biri —
G'isht quyur usta.
Biri — poydevorga
Sement qo'yadi.
Biri — matematik,
Biri — injener,
Biri — prorab, biri —
Ustun quradi.
Yer bag'riga kirgan
Vodoprovod,
Bulog'i yo'q yerdan
Buloq qazilgan...
Oddiy, qora, asl
Peshonalarda
Bunda otgan tongning
Shoni yozilgan.
Jimjitlikning chokin
Tikib o'rgangan
Ay, yuvosh qiz — sahro,
Bo'y senikimi?
Senikimi nurga
Ko'milgan diyda?
Havas ushatgan u
Kuy senikimi?
Bag'rim chaman ochgan:
Qadamlar yetgan —

Yongan yulduzlaring,
Ochilgan chehrang,
Bitkan alamlaring,
G'amlaring ketgan.
So'lgan yuzlaringga
Kirgan qizil rang.
Oppoq tumanlarga
O'pich bergan zo'r
Dengiz kabi kuchli
To'lqin urasan —
.....
Sening oq siynangda
Mazolli qo'llar
Jamiyatning
Poydevoriga
Pishgan — qo'lbola
G'ishtlar uradi.
Sening oq siynangda
Oppoq sut bilan
Emchaklari to'lgan
Turmush yuradi...
Oppoq tumanlarga
O'pich bergan zo'r
Dengiz kabi kuchli
To'lqin urasan...

O'TMISHNI ESLAB...

"Paxtakor" kolxozida xursandlik bilan
uyushgan 160 xo'jalik egalari ilgari qanday
yashar edi...yersiz... suvsiz... nonsiz... qarol cho-
rikor... kunlarimizning taqdiridan qo'rqqar edik...
Moziy qanot yozolmas.
Otlari o'chsin,
Moziy faqat
Bir esdalik...

Qirilib, o'lsin!
Biri — qarol,
Biri — chorikor,
Biri — daydi,
Bozorlarda mardikor,
Biri — nonsiz,
Biri — yalang'och...
Kunlar ko'zi
Qonga to'lgan,
Kunlar ko'zi och!..
Bu kun parcha
Non bo'lsa,
Erta taqdirini bilmay,
O'lib, tirilib ishlab,
Rohatini ko'rmay,
Sargardon edi.
Barcha jonlar,
Barcha dehqonlar...
Zamon zolimlari:
Boylar, mingboshilar,
Yirtqich qo'rboshilar
Ustimizda o'ynatardi
Qozoqi qamchi...
Itvachchalar —
Avazboy,
Mir Robbiboy,
Obid, Fozil.
Alixon hoji!
Mushtipar onalar,
Juvonlar, qizlar
Taqdirleri yo'q edi.
Qonga to'lganlar,
Kar devorlarga jo'ra
Bo'lib yashadi,
Dard shoiri — childirma
Mungli o'ynardi...

Go'dak bolalar nechta,
Maktab ko'rmayin,
Go'l bo'lib o'sardilar
Ko'zni ochmayin.
Shuning uchun tillarda
Yig'loq bir maqol
Yashiringandi,
Uchar har choq,
Har on:
"Birimiz ikki bo'lmaydi,
Bitimiz sirka!"
Ular masxara bilan,
Bizning turmushga
Boqib matal o'qirdilar —
Tuz sepib yaraga:
"Kambag'alning bir to'ygani —
Boy bo'lgani!"

BIRINCHI XAT

(Toqtoshni o'qib)

I

Uxla, qo'zim, uxla, oppog'im,
Ishongan bog'im,
Suyangan tog'im alla-yu alla...
Uxla, qo'zim, uxla, jigarim,
Uxla, shakarim,
Uxla shakarim, alla-yu alla...

II

Hali gul yoshligim shamolday o'ynar,
Sevgim biron qizda tinmagan hali.
Hali sochim qora, ishq-la tarayman,
Oppoq qirov dona inmagan hali.

Hali tug'ilganing yo'q, o'g'lim Qunduz,
Ona bo'lib birov kelgan yo'q uyga.
Bola to'g'risida bir she'r bitirib,
Charchab uxlaganda, kirding tushimga:

Qanday shirinsan-u, qanday ko'rkamsan,
Otang o'rgilsinmi, suqsurim, sendan?
Oho!.. Qaddi-qomating Ra'no,
Nozik kulgi uchar anor labingdan.

Ko'zi o'sha? Yoki qop-qora charos?
Oy nurida yakka shudring donami?
U qayrilgan qoshmi, yoki qush qanot?
Boqishlaring bahor, yo nishonami?

Sen o'sajak nasl ko'rgazmasidan?
Kel, o'payin to'yib, kel quchoqlayin.
Kelgin, bekorlarga oqmasin suqim,
Kelgin, bir narsam bor bag'rim qatida,

Senga beray, olgin!
Kel!

Qochdi uyqum,
Ko'zlarimni ochdim: terlab ketibman...

Shunday bo'larmikan?
O'yim chuvaldi.
Qani ota bo'lsam, o'g'lim bo'lsa-yu...
Yurak jonivorim behol uvaldi.

III

Tushim qursin, ko'nglim parishon,
Xayolimda sen yashab ketding.
Yuragingma ishq tashlab ketding.
Tushim qursin, ko'nglim parishon,

Havasimni ushatay desang,
Onang asl sevganim bo'lsin,
Tug'il erkam, ko'zlarim ko'rsin,
Havasimni ushatay desang.

Havaslarim bir ushalsin, deb,
Senga xat yozgali o'tirdim —
Yuragimdan dur-gavhar to'kdim,
Havaslarim bir ushalsin, deb.

Mening xatim bir ertakdek bo'lar,
Rosa maroq bilan o'qirsan.
O'z-o'zingdan allanima o'ylab,
Allanimalarni to'qirsan...

Mayli, o'g'lim, mayli, ra'no nasl,
Men yozaman senga xatimni.
Orzuym bor: zora xatim bilan
Unutmassan mening otimni.
Biz frontdan yengib qaytganda,
yengib qaytganda,

Mamlakatni ko'rdik, vayrona:
Singan zavod, kuygan dalalar,
kuygan dalalar,
kuygan dalalar,

Ochlik qanot yozgan har yonda...

Yurt ustida yosh to'kar osmon,

Yosh to'kar osmon.

Yig'lab o'tirmadik qayg'u yeb.

Mamlakatni tiklagani ketdik,
tiklagani ketdik,

Bu bog'larning bog'boni — biz! — deb.

Odamni odam ekanin

Bizlar ko'rsatdik!

Tif va ochlik ... Hatto ajal

Balosin yengdik!

Bog'lar undi, bog'lar o'sdi,
Gulladi bog'lar...
Shuhratimiz qarshisida
Titradi tog'lar!

V

Mening xatim bir ertakdek bo'lar,
Rosa maroq bilan o'qirsan.
O'z-o'zingdan allanima o'ylab,
Allanimalarni to'qirsan...

Balki, dersan ular kim bo'lganlar?
Yoki nasli boshqa bir odam?
Bizga o'xshab sho'rva ichganlarimi?
Yo, bo'imasa dev bo'lgan otam?

Yo'q, bolajon, bizning yo'llarning ham
Fasli: bahor, yoz-u qish va kuz,
Biz ham sho'rva qaynatganmiz rosa,
Qaynatganmiz go'sht, kartoshka, tuz.

Biz ham istagancha o'ynab-kulgan,
Kunlarimiz kechgan soatbay.
Uch smenlab ishda qolsak hamki,
Kun har kuni chiqib botganday.

Gul taqishni kanda qilmaganmiz,
Payt-paytida o'pich so'rganmiz.
Oyli tunlar, tiniq ko'llar bo'yi
Sevgan qora sochni o'rganmiz...

Bizlar faqat sizlarga pesh bo'lib,
Sizning nomingizdan urushgan.
Keng ijodiy, asl hayot uchun
Farzinlarni jangga surishgan!

1932

MEN HAM BORAMAN

Sanoqli kunlarning
Sakkiz ming sakkizi...
Kaftimda yillarning
Yigirma biri bor.
Aylantirib gardish,
Gullatib bahor,
Mehribona siqib
Solgan oq izi.

Yosh va xush. Ancha kech
Dunyo ko'rdim men.
Kurash kunlariga
Zavqim oqadi...
She'rim uzoqlarga
Qanot qoqadi.
Deyman: "Kech tug'ildim,
Nelar ko'rdim men?"

Men bo'lganim yo'q
Frontda o'qchi,
Shonli podpolyaga
Ulgurolmadim.
Bir bombaday rostlab
Yoshligimni, men
Dushmanlarga qarshi
Eh!.. uzolmadim.
Neva suvi — sarg'ish,
Avrora — olov,
Qizil matros bo'lib
Bayroq tutmadim.
Smolniyda — postda
Shlyom kiyib,
Sovuq havo-lardan
Qultum yutmadim.

Kolchaklarga qarshi
O'q otolmadim.
Tayga bo'ylarida
Partizan bo'lib,
Sovuqlarni yengib,
Daryolar kechib,
Sibiriyani bo'ylab
Ot chopolmadim.

Eh-he... Qora dengiz
Qirg'oqlarida
Bayroqlarni tikib.

* * *

... Lirika!...
Lirikam,
O'yna ko'lkalan,
Ko'lkalan yurakning
Pokiza nayi!
Sen uchun,
Sen uchun,
Buyuk o'lkadan
Safarbar etilib
Keldim atayi.
Sevgilim, bu kungi
Naylar-qo'shiqlar
Avjlanar chertarak
Ertaning sozin.
Lirikam,
Lirikam,
Sayroq bulbulim,
Senga zafarlarni
Kuylamak lozim!
Chul!.. she'rim,
Chu, o'rtoq,

Qanot bo'lsin yel.
Eh... qanot bo'lsin yel
Uchar yo'llarda...
Sen shunday baxtliki,
Shunday baxtliki,
yetilding va to'lding.
Tug'ishgan
Singlimga bermaganimni:
Hurmatim,
Izzatim,
Ishqim, mehrimni
Senga beribmanki
O'ynab kulsin deb,
Yurtimning nayini
Uzmay suzsiz deb...
Bil shuni, lirikam,
O'yna, ko'lkalan,
Ko'lkalan, yurakning
Pokiza nayi,
Sen bilan...
Sen bilan,
Birga zarb ursin
Yurtimning mahkam
Qon kezar payi!..
Buncha shirin ekan
So'zlaring sening,
Buncha ham
Hur yonar
Ko'zlaring sening.
Qalbdan entikadi
Har daming, go'zal,
Senga til berganda
She'rim har mahal!..
Sen bilan so'zlashmak
Orzu etkandim.
Yoshlikda onamdan tinglaganimda:

“Shoir degan bir
“Toifa bor”, — deb
Yod bilganimda,
Til tagida qolmas
Shirin soʻzlari
Erkam,
Lirikam,
Oʻyna, koʻlkalan,
Senga yana shirin
Bir til keltirdim,
Burro til keltirdim
Buyuk oʻlkadan:
... Eh, qancha,
Eh, qancha
Oʻtgan nasllar
Koʻrmaganlar bunday
Yuksak nuqtani;
Bilmaganlar bunday
Yuksak nuqtani.
Eh, qancha,
Kechgan asrlar!
Saqov gadolarday
Indamay tilsiz,
Koʻrlarday ocholmay
Koʻzini sira
Oʻtdi yillar...
Asrlar...
Yana asrlar
Boqqunday
Iz solmay
Shunday bir sira...
Damlar oʻzligini
Yoʻqotib ketdi...
Kunlar
Qora tunning
Qoʻynida shoʻngʻib,

Oʻylar tumanlarda
Daydib, tentirab,
Nafas ufqlari
Boʻgʻilib, dimiqib...
Yurak urishlari
Moʻtadil tepgan
Qaysi bir hamxonam
Qaysi ishq bilan,
Qaysi havas bilan
Nazar tashlasin: —
Oʻtgan...
Kechgan...
Suvlarday jim ketgan
Tarix kitobini
Oʻqiy boshlasin?..
Hech qachon,
Hech qachon...
Oʻsar nasllar,
Koʻzdan nari olmas
Bizning yillarni
Asrlar.
Kelajak,
Kelar asrlar
Avjlatib chertalar
Bizning qillarni!
Biz oʻzgartish yasab
yer tarixida
Yangidan nusxalab xaritalarni
Oyning qadamiga
Qadam qoʻshdik, biz,
Butun umri boʻylab
Gʻamli dunyoning
Toʻyiga yangidan odam qoʻshdik biz!
Bogʻlardek,
Bahorda kulgan bogʻlardek
Oʻsdik biz,

Undik biz,
Kuldi biz taraf.
Shuning-chun,
Shuning-chun
Tiniq yuzimiz.
Shuning-chun,
Shuning-chun
Bizda shon-sharaf!
Ipakdek muloyim,
Olmosdek toza,
Ingichka, asabiy
Nurlar taratib,
Davrning
Elektr chirog'i yongan:
Kollektiv yuragi
Ijod-la to'la,
Har odmi
Har paytda
Yangi yaratib,
Erta uchun yurib
Uzoq... tolmasdan
Keng, oydin ko'chadan
Qadamni boshlab
Ertaning baxtini
Olib boramiz!
Cho'llarga gul tikib,
Chamanzor etib,
Shahar o'tib,
Dasht o'tib,
Dengizlar o'tib,
Tarix betiga
Temir iz tashlab,
Ertaning baxtini
Olib boramiz!
Sarbast va og'ir
Qadam yuradi...

Qayerdan uning
Ovozi kelsa,
Bilingiz unda ham
Inqilob yashar! —
Sarbast va og'ir
Qadam yuradi...
Bu kungi har qadam
Bir eshik ochar,
Bu kungi
Jonkuyar
Bastakor,
Polvon,
Sodiq,
Inongan
Har bitta odam
Buzilmas,
Zang bosmas,
Bir haykal topar,
Haykalki,
O'chmas,
So'nmas
Nur sochar!..
... Lirikam, ko'lkalan,
Ko'lkalan, go'zal,
Sen ham
Bu kunning
Bir ijodchisi,
Naylardan g'isht yasab
Poydevor urar
Quruvchi...
Ertaning,
Yorug' ertaning
Hayqiriq sololgan
O'tkir jarchisi...
Ko'lkalan!
Til berdim,

Yurakning nayi,
Ko'lkalan!
Erkam —
Lirikam mening —
Yuvgan,
Taragan,
Qaragan yurtning
Xizmatin
Qilishlik
Vazifang sening!..

SAMAN OTGA MINIB...

Yozgi suvlar oqib
O'tib ketdilar...
Tindi hayqirig'i
Kattakon soyning,
Suvlar zilol kabi tiniq,
Havo rang,
Gul surati yotar
Kamoncha oyning...
Uzoqlardan oqqan
Sho'x shalolaning
Hayyo-hay, deb ketdi
Mo'nglangan sasi,
Yo'lda qolar bo'ldi
Ko'p nari bormay,
Kunning ufqlarga
Uzatgan dasti.
Saman otga minib
Jiloq tutdi kuz:
Tiniq suvlar kechib
Chopari keldi.
Oltin yaproqlardan
Pirpirak o'ynab,

Pastda,
Tepalarda
Shivillab yeldi...
Kuzgi yellar esar...
O'ynasin yellar,
Kuzgi yellarning ham
To'la chiroyi;
O'ynasinlar yellar,
yelib kiroyi,
O'ynaganday bo'lib
Yayrasin yellar...
Saman otga minib
Jilov tutgan kuz...
Yuraklardan hamon
Bahor esadi —
Chunki, har bir zumi
Bahorday to'lib,
Biz aylantirgan yil
Birday o'tadi!

SALOM, KUNDUZ!..

Yengil tuman bosgan...
Mudrab yotadir
Ko'kka yelka urgan
Cheksiz, keng diyor.
Ravo ko'rmayinmi
Suzik qarashni?
Qo'y, singsin-da oqin
Havas, e'tibor...
Oppoq ko'ylak kiygan
Malak — yorug'lik
Siljib sekin-sekin
Ohista bosib
Kelayotir to'lib...

Ufq — erka qiz
Chiqay, — dedi biitta, —
Oq pista bosib...
Suv rangida osmon
Ulug' bir dengiz,
Bulut parcha — kaptar
Uchar to'ridan.
Oq tanli parining
Momiq qo'llari
Anor suvin to'kdi
Samo bo'yidan:
Salom kunduz, salom,
Salom parig'um,
Sening toza nuring
Ko'zimga singgan.
Salom turmush, salom,
Salom mehribon,
Sening yo'llaringda
Mehnatim ingan.

QUNDUZ, SOCHLARINGNI TARAT!..

Qunduz sochlaringni
Tarat, qunduzim,
Oq daryolar
Suvlarida yuvilsin;
Chevar qo'li bilan
O'rmon yelining
Alla qilib
Tola-tola o'rilsin.
Gullar kabi
G'uncha to'kkan yuzingga
Suq va suzik
Qarashlarim to'kilar...

Teran dengiz kabi
Chuqur xayolim
Girya bo'lar
Bosh ustingda o'rigilar...
Qulochingni kattaroq ker, achoqlay,
Mening yurak
Yuragingga mos tepsin,
Tobora gul
Qo'shiqlarim ochilib,
Uzoqlarni suqlantirsin,
Dur sepsin...
Hali bo'yларingga
Bo'yi qo'shilmagan,
Chopib dumalagan
Go'dak paytlarda,
Gilos qizarganda
Qo'shni bog'larda
Tortinib, yiqilib
Oshib devordan,
Qo'l yetmay, silkitib,
Bo'ynimni cho'zib,
Ololmay, hafsalam
Sovib tushardi...
Yosh nafsim chikillab,
Sira bo'lmasdan,
Marzadan siqimlab
Bir kaft tuproqni
Boshimdan oshirib
Tikka otardim.
Mo'ljalim teskari,
Qo'lim boshimda,
Ko'zlarim yumulgan
Changga botardim...
Go'dak jahl qaynardi
Yig'i olardim...
Ertadan kechgacha

Shu bo'yi o'ynab
Eng oxir, eh!.. Yaxshi.
Zo'rg'a bahuzur
Yarmi xom birini
yerga tushirib,
Shoshilib, artmasdan
Chang tuproq bilan
Suv ochib,
Suv ochib,
Axir qurigan
Kichkina og'zimga
"Gah!.." deb solardim...
U — shirin,
U — shunday
Asil bo'lardi,
Tishimga bosardim
Danaklarini...
... O'shandan shirindir
Sening damlaring.
O'shanday asildir
Mening she'rларim.
Undan qiynalibroq
Qo'shiq beraman:
Toza mo'ljal olib,
Toza ham o'rnab,
Uyg'oq tunlarimni
Kesakday otib,
Pishgan gilos kabi
So'zlar teraman.
Bu ertakni senga
Bekor aytmadim:
Balki, qo'shiqlarim
Qimmat tushalar:
— Qunduz sochlaringni
Tarat, qunduzim! —
Ko'ray bu yerlarning

Bo'yi bastini,
Emay shavqini,
O'pay betidan,
Qimmat qo'shiqlarni
To'kib yo'lga,
Tutay o'rtoq bo'lg'in
To'g'an dastini!

SO'ZLA, TARIX — CHOL

Soqoli oqargan,
Sochi oqargan,
Tirish bilan to'lgan
Qari peshona —
Chol — tarix so'zlasin...
So'zla tarix — chol!
(Qo'shiqlaring hali
Qolmay ordona.)
"Men qari,
Men ko'rdim
Uzoq yillarni,
Tingladim nolalar
Tori — qullarni.
Bu yerda o'sganlar,
Unganlar ko'rdim,
Bu yerda so'lganlar,
O'lganlar ko'rdim.
Bu yerda qon yig'lab
Qullar o'tdilar.
Ko'kragi qurigan
Tullar o'tdilar...
Bu yerda yuksaldi
Nola, fig'on, zor,
Bu yerda tug'ildi
Dard bilan ozor.

Bu yerda o'ynadi.
Zulm qamchisi,
yelkalariga soldi
Nishon —
Ho'l gavron.
Bu yerda (eh... og'ir!)
Qonlar to'kildi...
Bunda hukm surdi
O'gay bir davron.
Zulmdan, vahshatdan,
Dahshatdan qochib,
O'zga o'rinlarga
Och quloch ochib,
Begonalar kabi
Samandar bo'lib,
Yuraklari zardob —
Qonlarga to'lib,
Kuyib jigarlari,
Parlari to'zib,
Sinib qanotlari
Ucholmay o'zib,
Sayroq qushlar ketdi
"Bezor bo'ldik, — deb;
Agar o'lar bo'lsak
O'lib bo'ldik deb..."
Yana nima ko'rding?
So'zla, tarix — chol!
"Petlyuraning daydi
Qonxo'r o'qlari
Bu yerlardan uchgan
Yig'lab, chingillab,
Kasofati qilich,
Qonlar dastidan
Faryod o'tgan bundan
Siqtab, ingillab..."
Yana nima ko'rding?

So'zla, tarix — chol!
"So'ngra bu yerlarda
O'lim ko'lkasi...
Yeldan boshqa hech na
Oyoq bosmamish...
Faqat, tinchlik bo'lgan
Bunda yashovchi,
Va goho ohista
Shivirlab qamish..."

SHE'RIM

Sen, yuragimning chashma suvi sen,
Sen, ko'zlarimning gavhar nurlari.
Sening bahoringni kim so'rsa, de:
"Bahom — umringning bahosiga teng!"

1953-yil, Samarqand

YURAK

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.
Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan..
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.
Sen ey, sen, o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To'lib qayna, toshib o'yna,
Tirikman, kuyla boringni.

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..

1933-yil, Samarqand

QORA SATRLAR

Keldim: yana yodimga tushdi

O, shahrim, o'sgan yerlarim.

Xayol yana qush kabi uchdi,

Yana seni kuylar she'rlarim...

Yig'lab o'tardim ko'chalardan:

Ko'z yoshimni shimgan yer guvoh.

Topib kelib, tun kechalardan

Internatga bermadingmi, a?

Yetim qolganimni bilaman:

Men beshikda, xuddi ikkita

Cho'yan soqqa kabi ko'z bilan

Jon berishin ko'rganman unda...

Hali-hali uxlar paytimda

Misolini qilaman xayol.

Nega bahorimda — hayotimda

Tirilishni qilmay ehtimol?

Otam o'ldi, men sarson bo'ldim.

Shum yetim, — deb so'kdilar meni.

Ajib kunga mubtalo bo'ldim,

Ko'chalarga quvdilar meni...

O'sha kunlar dilimda hayot.

(Og'ir g'amni unutib bo'lmas!)

Tur! — dedilar, — tur, yetimcha zot!
Ilojim yo'q, turaman birpas.

So'ngra o'zim — o'zim oldimdan

Qaramasdan kulib o'taman.

U eski "men" faqat yodimda,

Endi menda yashar boshqa "men!"

Esimda, bu yerga yosh keldim,

Qonim to'kilgan joyni bilmay.

Ko'chalarda shamoldek yeldim,

Tentib, orom ne ekan, bilmay!

Mana bog'im, mana internat,

Hali hamon ochilar siren.

Bu yer menga, hayotimga kat

Bergan uchun ko'rinar shirin.

Men bu yerda birinchi daf'a

Ikki so'zni qofiya qildim.

Men bu yerda birinchi daf'a

Ikki ko'zning o'tida kuydim...

E!.. Bu mayli. Yana esimda

Ko'chalarda oqqan daryo qon.

Men bilmayman, ammo tushimda —

Shunda akamni ko'rdim qurbon...

Ketdim degan, qaytib kelmagan,

Zulmga sabri chidolmagan.

Yigit edi, so'zlar edi rost,

Faqat, shuni bilaman, xolos!

O, u yurak, o, u tillo bosh,

O'lim uchun chiqqanmi eding?

Yo'q, bilaman, faqat tinch yashash —

Erking uchun olishgan eding!

Mayli, ukang sening uchun ham
Yashar. Yuzga kirmasdan o'lmaz!
Esimdasan har qachon, har dam,
Og'ir g'ammi unutib bo'lmas!

Onam tirik, senmisan ona?
Ko'kragingga bosh qo'yay yana.
Ko'z yoshini bas qil, yig'lama!
O'lgan ilonlarni qo'zg'ama.

Daydib ketgan o'g'lingni kechir,
Emgim keldi: mehriydan ichir,
Mast bo'layin chaqaloq kabi...
To'ysin o'g'lingning tashna qalbi!

— Kuyib ado bo'ldim kuyingda...
Bas qil! Yig'i ko'zni buzadi,
Qara, derazaning ko'zida
Baxtli kunlar oyi yuzadi...

Istaysanmi, nur kiyintiray?
Istaysanmi, olib ketayin?
Yurgin, chamanzorga eltayin,
Yur, tug'ishgan qonim, o'rgilay!

Keldim: yana esimga tushdi
Bolaligim, o'sgan yerlarim.
Dilimdan to'kildi she'rilarim,
Xayol qushi ko'klarga uchdi...

1933

YOSHLIK

Kunlarimni yoshligimdan ayamadim,
Menda yoshlik nokaslikni hech ko'rmadi.
Qiz sevganda, ho'ngir-ho'ngir qon yig'ladim,
Go'yo, qalbim amri — azmimni bir so'rmadi.

Yoshligimning tarozusi beposangi,
Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir:
Sevinchim ko'p... shodligim zo'r... tilim biyron,
Qaysi umr, shunday yoshlik ko'rdi, axir?

Yuragimga achchiq-achchiq botar edi,
"Bog' ko'chada" sharsharakning mungli kuyi...
Hayron bo'lib, bolalikda o'ynar edim,
Qaydadir deb bu oftobning yotar uyi?

Bolaligim gul bog'larni ko'rolmagan,
G'arib bo'lib, mungshib yurgan ko'chalarda.
Yulduz sanab, yildan uzun kechalarda
Hisobiga sira, azal yetolmagan.

Ayamadim yoshligimdan kunlarimni,
Nokaslikni ravo ko'rmay, sevintirdim,
Chunki, unga yuragimda o'lib qolgan
Bolaligim, erkalgini tiriltirdim.

Yoshligimning sarguzashti benihoyat,
Bisoti ham tasodifga to'lib bitgan...
Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan,
Hodisani yetaklarkan sababiyat.

1934-yil, Toshkent

YOSHLAR KECHASIDA

Lug'atimda so'zim ancha ko'p,
Qaysi biri bilan so'zlayin?

Mayli, ukang sening uchun ham
Yashar. Yuzga kirmasdan o'lmas!
Esimdasan har qachon, har dam,
Og'ir g'amni unutib bo'lmas!

Onam tirik, senmisan ona?

Ko'kragingga bosh qo'yay yana.
Ko'z yoshini bas qil, yig'lama!
O'lgan ilonlarni qo'zg'ama.

Daydib ketgan o'g'lingni kechir,
Emgim keldi: mehringdan ichir,
Mast bo'layin chaqaloq kabi...
To'ysin o'g'lingning tashna qalbi!

— Kuyib ado bo'ldim kuyingda...
Bas qil! Yig'i ko'zni buzadi,
Qara, derazaning ko'zida
Baxtli kunlar oyi yuzadi...

Istaysanmi, nur kiyintiray?

Istaysanmi, olib ketayin?

Yurgin, chamanzorga eltayin,
Yur, tug'ishgan qonim, o'rgilay!..

Keldim: yana esimga tushdi
Bolaligim, o'sgan yerlarim.
Dilimdan to'kildi she'rlarim,
Xayol qushi ko'klarga uchdi...

1933

YOSHLIK

Kunlarimni yoshligimdan ayamadim,
Menda yoshlik nokaslikni hech ko'rmadi.
Qiz sevganda, ho'ngir-ho'ngir qon yig'ladim,
Go'yo, qalbim amri — azmimni bir so'rmadi.

Yoshligimning tarozusi beposangi,
Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir:
Sevinchim ko'p... shodligim zo'r... tilim biyron,
Qaysi umr, shunday yoshlik ko'rdi, axir?

Yuragimga achchiq-achchiq botar edi,
"Bog' ko'chada" sharsharakning mungli kuyi...
Hayron bo'lib, bolalikda o'ynar edim,
Qaydadir deb bu oftobning yotar uyi?

Bolaligim gul bog'larni ko'rolmagan,
G'arib bo'lib, mungshib yurgan ko'chalarda.
Yulduz sanab, yildan uzun kechalarda
Hisobiga sira, azal yetolmagan.

Ayamadim yoshligimdan kunlarimni,
Nokaslikni ravo ko'rmay, sevintirdim,
Chunki, unga yuragimda o'lib qolgan
Bolaligim, erkaligim tiriltirdim.

Yoshligimning sarguzashti benihoyat,
Bisoti ham tasodifga to'lib bitgan...
Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan,
Hodisani yetaklarkan sababiyat.

1934-yil, Toshkent

YOSHLAR KECHASIDA

Lug'atimda so'zim ancha ko'p,
Qaysi biri bilan so'zlayin?

Shunday shodman, shodligim behad,
Ko'nglim shodligimdan o'sadi.

Sentyabrning salqin kechasi
Onam kabi yumshoq, beozor.
Osmongacha yetgan shu'lasi,
Pionerning mash'ali yonar.

Shu damda men, go'yo sevinchdan,
Qanot yasab, uchardim baland —
O'sha baland osmon tubidan
Yoshligimni tabrik aylardim.

1934

DILIMDADIR MANGU

Yanvar kunlaridan biri edi,
Tanaffusda o'ynab yurardik.
Maktab hovlisida, keng anhorda
Shovqin solib, biz muz so'radik.

Birdan mudir o'zi chang chalib,
Bizga dedi: "Bolalar zalga!"
Zangni odatda u chalmas edi,
Hayron bo'ldik biz bu ahvolga.

Zal liq to'ldi. Avval kirib kelgan —
Rasm muallimi "Jim!" — dedi.
Orqasidan shinel kiygan kishi
Kirib keldi. Parishon edi...

Kim biladi, nega muncha xafa
Nega yosh bor uning ko'zida?
Nega og'ir faryod — ulib yig'lar
Kalta-kalta, uzuq so'zida?

— Yetimlar! Gorkiyda bir inson o'ldi!"
Oyoqqa qalqidi bor yig'in.
Shundan keyingina sezgan bo'ldim
Eshikdagi yanvar sovuq'in.

Shundan keyingina men angladim
O'lim borligini dunyoda.
Shundan keyin har kun uni ko'rdim
Yuragimda, yerda, havoda

Shundan keyin yodimga keldi
O'tganlarning tuproq bo'lgani.
Shundan keyin qasamyod etdim
Yaxshi o'lim bilan o'lgani!

Shundan keyin menga yon bo'ldi
Tarqalarkan asta u yig'in
Mening uchun tug'ilish kuni bor-ku,
Ammo o'lim kun yo'qligin.

Shundan beri dilga o't tutashgan,
Xayolimda hamon o'sha kun.
O'tganlarni dilga ko'mganman,
Dilimdadir manguga, butun!

1934

IMTIHON ISHQIDA...

Havoda suzadir
Parcha bulutlar
Oy nurini qilib o'ziga lenta...
Kitobdagi jumalarga
Tikib ko'zni
Darslarni o'qiymiz
Shu go'zal paytda...

Baxtimizdek
Charaqlab yonib
O'tayotir bizning bu kunlar.
Mudramas ko'zimiz
Satriar ustida.
Satriardan
Ko'zim olganda
Bosh yostiqqqa tegar
Har kungi sahar...

1934-yil 12-dekabr
Samarqand

* * *

Shafaq — uzun, qizil lenta
Dengiz chetida.
Shovillab shabada yelar
To'liqin betida.
Oppoq qanoti qayrilib
Oq qush ucharmi?
Yonbag'irlab, muncha pastda,
Suvga tusharmi?

Chirik-chirik...
Chirik-chirik...

Ey, oq qushim, oppoq qushim,
Salomingmi bu?
Yoki, kechmish esdaligi
Alamli qayg'u.

Bilmadim men, uchib o'tding,
Ko'zdan yo'qolding.
Bilmadim men, negadir sen
Yurakni olding:

— 60 —

Eslarimga tushib ketdi
Yillarning kuyi,
Ko'z oldimda Shaumyaning
Basti — bor bo'yi...

Xayollarim cho'zildi-da,
Suv bilan oqdi...
Shafaq — uzun, qizil lenta
Dengizga botdi.

193-yil,
Kaspiy — Boku

BOLALIGIMGA

Kapalakning gul emganini ko'rdim,
Eslab ketdim seni, malagim...
Sen berdingmi, shuncha shirin she'rmi,
Ey, barglari ko'm-ko'k palagim?

1934

IKKI SHE'R

I

Ayriliq

Uchdi yulduz barg kabi,
Qarab qolding sen.
Men ketarkan, "xat yoz" deb
So'rab qolding sen.

Oydin edi u kecha.
Sen ham oy eding.
Ko'zingda yosh, ko'ksimga
Yig'ib bosh qo'yding...

— 61 —

Sochlaringni siladim
"Qo'zim, Muhabbat,
Kelaman, — deb, — oppog'im,
Kelaman albat!"

O'sha kecha so'ng marta
O'pding betimdan...
O'sha kecha sen qolding
Yig'lab ketimdan...

II

Boraman

O'qishlarim tugadi,
Muhandis bo'ldim.
Har bir kichik hujayram
Fan bilan to'ldi.

Uchib ketar edim tez
Qanotim bo'lsa...
Eh, ko'zlari shahlo qiz,
Men endi ko'rsam.

Avvalgiday orziqib
Seni sevaman...
Unutganing yo'qmi, qiz?
Kutgin, boraman!

1933-yil, Samarqand

MONOLOG

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilab ko'ksidan,
Kim qalbidan qonlar to'kmagan?

Seni yaxshi bilaman, go'zal,
Petrankani o'qiganim bor.
Buyuk Rimning Sapfosi azal
Xayolimni oshiqday tortar.

Bilamanki, Tasso bechora
Rohat ko'rmay o'tgan bir umr.
Ey makkora qiz, Leanora,
Nomi qora bilan yozilgur!..

Balki, guldun yargalagan pari
Tosh ko'ngilli Biatrichi
Gadosan, — deb qochmasa nari
Dante baxtli bo'lardi pichi!

Balki, Gamlet oydin tunlarda
Ofeliyani erkalatardi.
Balki, uzun sochini silab
Azongacha ertak aytardi.

Agar xiyonatni bilmasa,
Ezmasa fojia yuragin!
Yo'q. Yo'q, shoir! Gar shunday bo'lsa,
Shekspirning yo'qdi keragi!

Dezdemona, gunohsiz dilbar,
Jigar qonlaringni ichgan kim?
Bilaman Otello, bilaman,
Otello haqlimi?.. Shoir jim!..

Jim!.. Ufqdan botar quyoshni
Shart kesilgan boshga o'xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar
Tirqiratgan qonni eslatdi!

Qanday qo'rqinch! Qanday qabohat!
Mumkin emas hech qiynalmasdan!
Aqlidan ozganmi muhabbat?
Mumkin emas, qarshi turmasdan!

Mumkin emas, ey, oliy janob,
Necha yurakni aylab xarob,
Shohona toj kiygan muhabbat.
Mumkin emas! Qanday qabohat,

Ki odamning o'ziginamas,
Hissasini ham xarob qilsa davr!
Qiynalaman!.. Yuragimda hovur...
Bu — qarshilik! Yon! Gina emas.
Bu — qarshilik! Ko'ring tarixni.

Parvonadek qanoti kuygan,
Bu — qarshilik! Ko'ring tarixni.
Umr tepasida musht tuygan...
Qiynalaman vijdon bilan men.
Mumkin emas, qarshi turmasdan!

.....
O'z zimmamga katta ish oldim:
Ehtimolki, tamom qilmasdan —
Umrimga tugur. Ammo, bo'lmaydi
(Ko'nglim o'rniga hech tushmaydi.)
Senga qarshi bosh ko'tarmasdan
Asrlarni yig'latgan sevgi!..

* * *

Gulzor — chaman. Yur, bog'larga
Eltay yetaklab.
Binafshalar terib beray
Senga etaklab...

Chakkangga taq! To'lib tursin
Oydek yuzlaring.
Kunday yorug', tunday qora
Ekan ko'zlaring.

Tingla, erkam, o'rtog'imsan,
Ko'nglimni ochay,
Qonim she'r bo'lib oqsin-da,
Men qayta ichay.

Istaymanki, oqar qonim
Tamom bo'lmasin.
Istaymanki, sevar yorim
Tashlab ketmasin.

Chunki, do'stlik mehri bilan
Shodligim o'sar.
U har qachon yonboshimda
Soyamday yurar.

U, sen, qo'zim. Yur, bog'larga
Eltay yetaklab.
Binafshalar terib beray
Senga etaklab.

Bu shoir, — deb, — yengil, — deb
Asti o'ylama!
O'pgan o'pichlarim haqi,
Ishontiraman.

Agar, darkor bo'lsa har choq,
Chorlasa Vatan.

Qo'lyozmalarimni tashlab,
Shinel kiyaman.

Uddasidan chiqolmasam
Ahdimni, unda —
Brauningni qo'linga ber,
Qop-qora tunda.

O'z jazomni o'zim beray,
Azob-la o'lay...
Yo'q!.. Hamdam bo'l, qo'limdan tut,
Janglarga kiray!

1934

TIFLIS OQSHOMI

Yulduzlar yonar... gurji qizlarning
Ko'zlari kabi.

Aragvadan esgan mayin yel o'ynar,
Barglar — asabiy...

Tuya misolida oq bulut suzar
Sudralib bari.

Osmon — kashтали chodir ... uzoq chetlari
Kurradan nari.

Lermontov sevgan, Pushkin qoyalarin
Ko'rsaydim deyman,
Och bag'rimni to'shlariga bossam,
To'ysaydim deyman.

Tiflis oqshomi sutdek... ko'zim to'ymas
Har yon boqmoqdan.
Qaytmasdim "Ko'z yoshi" shalolasidek
Tomchilamoqdan...

1934-yil, Tiflis

XAYR, SEVAN!

Yel esar huv-huvlab,
To'lqinlar sho'x, erkin.
Ko'ksimga otilgan
Tomchi suv ne derkin?

Hali ham bag'rim ho'l,
Esimdan ketmaydi.
Ajralgim kelmaydi
Ey, shisha, oltin ko'l!

Sen bilan shirindi —
Shakardi har bir on.
Naylayki, bu hijron
Kiprikka ilindi?!

Alvido, marmar suv,
Alvido, qirg'oqlar!
Alvido, marvarid,
Sachralgan oppoqlar!

Suvlarga to'sh qo'rgan
Keng osmon, alvido!
Tunlarga naqsh o'rgan
Oy makon, alvido!

1934-yil 7-iyul,
Yerevan

KARVON BORADI

Qayg'urma, o'yim... Charx urma, xayol...
Hali dil to'la armon!
Karvon boradi, yo'llari oydin,
Ko'zlari oydin karvon.

Chulg'adi tinchlik... O'yim, yig'laysanmi,
Bitdimi yurak bardoshi?
Ketdi bir karvonboshi, deysanmi,
Ravonmi qayg'ung yoshi?

Yig'lama, erkam, yo'llari oydin,
Karvon boradi. Safar —
Charxi uzundir. Ko'zlari oydin,
Xondon kuldi zafar!

Ketdi u yo'lchi... Bizning umr —
Umlarning davomi.
Yashar ekammiz bizdagi armon,
Yo'lda karvon... Azami?

Yo'q! Qayg'urma, o'yim, qasdlar qolajak
Karvon ortida changday...
Kel, kuy-la u umrning davomin,
She'rinni unga bog'lay!

1934

TRAKTOR BORADI

(*Publitsistik she'r*)

I

Oydin kecha.
Sutdek oq
Har yer,
Har bir joy.
Doirali kamanda
Boqar kumush oy.
Oy nurida feruza
Taqib suv oqar.
Suv tagida jimirlab

— 68 —

Oy aksi yotar...
Chaman-chaman ochilgan
Dala gullari.
Yuksaladir bir sada,
Baland unlari...
Bunda traktor borar
Pahlavon kabi.
Tunning qo'ynini yorar
Bosgan qadami.
Tinchlikni chaqmoq kabi
Yorgan traktor.
Vatan topshirig'i, deb
Yo'llar boradir.
Planini tez, jadal,
Soz bitirgali.
Brigadir so'zini
Bajo etgali.
Kechaning erki shuning,
Mayli ham shuning,
Bodom gullagan onning
She'ri ham shuning.

2

Traktorga jabduq urgan
Oddiy bir yigit,
Shu qishloqning o'spirini
Bitta azamat.
Shu kolxozning bir a'zosi,
Zarbdor bolasi.
Ekish uchun jon kuydirib,
Tunlarni yonlab,
Po'lat otning yuganidan
Mahkamlab ushlab,
No'xta solib qansharidan
Oydin kechaga —

— 69 —

Borayotir:

"Tunlari ham Ishmi?" demasdan
Haydov planini jadal,
Soz bitirgali.
Brigadir aytganin
Bajo etgali.

3

Borayotgan yigitga
Tikilib qarang.
Oddiygina o' spirin,
Afti bug'doy rang.
Qoshi tutashib ketgan.
Ko'zlari o'ynar.
Uning yosh bisotida
Katta tarix bor.
Bechoraning boshini
Birov yuvmagan.
Peshonasini silab,
"O'g'lim!" demagan.
Vabo bilan o'lganda
Mushtipar ona,
Ajaj qurg'ur kelganda
O'lgandi ota.
Qoni to'kilgan yerdan
Bo'lib darbadar,
Yosh boshidan tentigan
Bo'lib samandar.
Yosh boshidan har kimga
"Bir burda non!" deb.
"Rahm qiling, oyijon,
O'ldim ochdan", deb.
Sarg'ayib, somon bo'lib
Zor-zor qaqshagan.
Bechora g'arib bo'lib,

Yakka, tul qolgan.
Qarol yurib, ko'p ezilgan
Sag'ir, yosh umr.
Yurak-bag'ri kuyib ketgan
Bamisli ko'mir.

4

Yarim kecha.
Oy safardan
Tindi degan payt.
U boradir, yer yoradir
Xushhol, ajab kayf...
U bilan birga boradir
Traktor haydab.
Uzun, poyonsiz tunlarni
Dam bermay yondab.
Haydov planini jadal,
Soz bitirgali.
Vatan topshrig'ini
Bajo etgali...
Butun tunning,
Erki shuning,
Mayli ham shuning.
Bodom gullagan kechaning
She'ri ham shuning.

1935-yil, Urganch

BAND¹

(Sarbast she'r)

Sayr etar bulut
Ko'kni egallab.

¹ Band — Shanxaydagi bir ko'chaning nomi. Bu ko'chada chet davlatlar-ning vakolatxonalari turadilar. Olamda chiroyli ko'chalardan bittasi.

Ko'yonsor¹ kabi
 O'lja ov izlab —
 Och ko'zi bilan!
 Fahsh kabi
 Qahqaha bilan.
 Band
 Kular o'lib...
 Qon hidiga mast,
 Ko'zi tinib, aylanib,
 Gir-gir gangirab,
 Kayf qilayotir
 Jinni bo'lgan Band!..
 Bozori kasod bo'lib,
 Arosatda qolgan Band!..
 Chiroy bilan kerilgan,
 Oltin bilan terilgan,
 Birovga so'z bermagan
 Mahmadona Band!..

 Dengizda to'lqin,
 Po'rtana yuradi,
 Bo'ron kuch oladi,
 Quyunlar quydi:
 Harbiy kreyser
 Haryonda daydir,
 "Qon" der...
 "Qon" der...
 "Qon"!
 O'z uyi kabi
 Bemalol o'ynar
 Ko'chalarda o'q...
 Tankalar tezlab
 Ko'z olaytirgan.
 Tilga kirgan to'p!..

¹ **Ko'yonsor** — matnda shunday yozilgan. Ammo bu so'zning qanday ma'noni anglatishini aniqlab bo'lmadi.

To'rt tomonda "dod",
 Bo'g'iq bir faryod...
 Nola bilan zor
 Ko'klarga chiqqan.
 "Oh"larning dudi
 Ko'kka ilashgan.
 To'rt tomonda qon:
 Qon...
 Qon...
 Tunika pir-pir pirrakdek
 Buralib,
 Buralib-
 Alanga chiqqan:
 O' bilan to'lgan shahar,
 O't bilan to'lgan osmon...
 Sarajch¹ yonadir...
 Sarejch kuyadir.
 Ishchi xonadan besar,
 Haqshig'an
 Qorong'ida
 Yo'l axtarsang,
 Peshonang o'qqa duchor,
 Tegar tangaga...
 Yonadir sarer,
 Kuyadir sarer,
 Sarer buzilgan!
 Sarelda nola,
 Sarelda fig'on,
 Sarelda qon!..

 Sarer yonadir,
 Band shodlanadir.

¹ **Sarejch, sarer** — bosma matnda shunday yozilgan. Ammo bu so'zlarni turli shakllarga solib, o'qiganimizda ham biror ishonarli ma'no chiqmadi. — N.K.

Kapitalning saroyini
 Titratdi bo'ron.
 Bozori kasod bo'ldi...
 Dastmoya tamom...
 Oldi buhron —
 Bozor axtarib,
 Buhron dastidan
 Qutulmoq bo'lib,
 O'qlar uzadir,
 Qonlar to'kadir...

 Band kuladir, shod,
 Sarerda faryod.
 Sarer bir shahar.
 Million proleter —
 Istqomat joyi!..
 — Nima gunohi?..
 Sarer sehrli,
 Sarer bir sinf
 Joyi,
 Uyi.
 Inqilobiy qo'shiq bundan
 Avj oladi...
 Kapitalga qo'rqinch,
 Shubha soladi.
 Qo'rqib, rangi o'chib,
 Jononni ushlab,
 Sarerga o't ochgan:
 Sarer yonadir,
 Sarer kuyadir,
 Sarer buzilgan...
 "Dod"!
 "Dod"!
 "Dod"!
 Bosadir soldat:
 Mo'ltillab qarab yurgan

Ko'zga boqsa-chi...
 Qulog'ini kar qilgan
 So'zga boqsa-chi...
 O'q uzadi,
 Qon oladi,
 Qonlar to'kadi...

 Buzilmagan uy qolmagan,
 Otilmagan jon.
 Kuyib tamom bo'lgan
 Hamma xandon!..
 Band bazm qurib
 Yalla qiladi:
 Ishrat suradir
 Anglichan boy.
 Musiqa o'ynar,
 Fransuz qirol
 Chapak chalib, yana
 Bir to'da lordlar,
 To'ralar, poplar
 Yapon bachchani
 O'ynatadirlar.
 Ustiga o'qdan
 Libos kiygizib;
 Beliga o'tdan
 Kamar oqizib;
 Ikki chakkasiga
 Bomba qistirib;
 Urib yelkasiga
 Rosa pishirib...

 Sarer yonar,
 Vayron bo'ladir...

 Bukun kulgan Band,
 Ishrat qurgan Band.

Qon daryolarin
Tomosha qil, Band!
Baribir bir kun
Sarer tuzalar,
Sening kulingni
Ko'kka sovirar.

SHAHRINISA¹

(*Qurultoy zalidan*)

Gulzor — chaman. Hoy, juvon, yur
Eltay yetaklab.
Banafshalar terib beray
Senga etaklab
Chakkangga taq, to'lib tursin
Bug'doy yuzlaring...

* * *

Yildirimday yonar edi
Vahshiy ko'zlari.
Chibiq zarbiga chidolmay,
"Dod" ora ketding.
Nola chekding... aks-sadosi
Osmonan keldi:
"Hoy, nomard er, ko'ngli qora,
Dushman nomusin.
Erk — hayotdir, erk balanddir,
Sen-chi, yovisen!
Ko'rib erkin, keng hayotni
Tura olmaysan.
Tovoningga tuz tiqqanday
Chiday olmaysan.

Haddingni kes! Gar bo'lmasa,
Umring kesilar!..
Butun kolxoz: "Tursun jazo —
Tortsin", - dedilar.
Jazosini ko'rdi dushman,
Qonun — erk o'zi!
Gulzor — chaman. Yayra, quvon,
Hoy, shahri qo'zi.
Yana bardam, yana ildam
Bos olg'a qadam.
Bu davrda yuksalajak
Sen kabi odam!
Erk bayroqdir. Yur bog'larga,
Eltay yetaklab.
Binafshaday ochil, erkam,
Hoy, Shahrinisa.
Xarob bo'lar, qonun shunday
Kim qarshi tursa!..
Marhamat qil, qurultoyning
Minbari — sening
Marhamat qil, butun Vatan
Tinglaydi seni!

1935

OYIMJON

(*O'zbekiston 10 yilligiga atalib Xorazm
hayotidan yozilayotgan 1-bo'lakning hali ishla-
najak 1 nabroskalaridan 1-bo'lak*)

Kirish

Hoy, Oyimjon, senga oshnami
Mening qalbindan oqqani she'r?
Shodligingday yuksakdir nomi,
Uni jami jigar "Qani?" der.

¹ Ushbu she'rning birinchi bandi shoirning "Gulzor — chaman. Yur, bog'larga..." satri bilan boshlangan she'rda qariyb aynan takrorlangan. Ushbu she'r matni "Yosh leninchi" gazetasining 1935-yil 6-oktabr sonidan olindi — N.K.

Kel, Oyimjon, sendan ayamay,
Tomchi-tomchi to'kib berayin.
Baxti kulgan, g'uncha chok etgan
Gulzoringda bulbul bo'layin.

I

Dedi: "Qahrab qolgur xirmoni
To'lib o'lday rosa to'libsan.
Muncha shirin-shakar bo'libsan,
Koshki umring bilsa vafoni.

Koshki yuzginingga aks solgan
Zuhra yulduz sira o'chmasa,
Koshki betingdagi tiniqlik
Begona lablarga ko'chmasa.

Koshki shunday chiroy sen uchun
Moling bo'lib qolma umrbod.
Koshki orzu-havasni butun
Bulbul o'qiy olsa, sharros, yod.

Erkin bo'lsang koshki, hamdardim,
Men ham erkin bo'lsam o'shanda.
Shabnam bo'lib senga inardim
Shabada-qiz kulgan oqshomda.

Sening tunday qora sochingning
Baxtim bilan o'xshashi bordir.
Shundanmikin, ko'rsam aftingni
Yurakkinam doim zorlanadir.

Ko'ngil to'la mening dardim bor,
Taqqir ekan, o'jizman. Netay?
Faqat nolam, g'amim, dardim yor,
O'zdan bo'lak kimga arz etay?"

Bog' to'rida oxirgi yulduz
Yilt etdi-da o'chdi butunlay.
Sezmay qoldi zorlanuvchi qiz,
Sahar unga pinhondi tunday.

Shabada barglarni o'ynaydi,
Qiz bechora shuni sezsa-chi.
Muncha to'lib-toshib yig'laydi,
Qayg'ularni nari quvsa-chi!

Tong havosi yengil va yumshoq;
To'la nafas ololsaydi-ku...

Qayg'ularni quvolmaydi u,
Cho'rlikning cheki shu har choq!

U oftob-u tunning asiri,
U bir oy-u kunga tutilgan.
Qor qo'ynida bir bahor guli,
Bir ra'no-yu rangi to'kilgan.

Qanday qilib asir bo'lmasin,
O'ynab kulolmasa bog'larda,
Nega yig'lmasin bechora?
Nega qalbi qonga to'lmasin?

Nega sarg'aymasin yuzlari,
Rang qo'shmasa bog'dagi gullar?
Xasta qaraydilar ko'zlari,
Nur bermaydi baxil yulduzlar!

O'z umridan o'zi norozi,
Dakki dastirohlarning bandi.
Qish-u, kuz-u, bahori, yozi
Bu qo'rig'onda yetim, asrandi.

Ko'z oldida sarg'imtir iz bor,
Qorachig'i to'lg'on va nursiz,

Qarashlari xasta, ko'ngilsiz,
Yosh boshida boyning zo'ri bor!

Bu xastani kimlar yupatgay,
Nelar orom bera bilarkin.
Nasibasi shumi bo'lgani,
Qachongacha shunday qolarkin?

Oyday yorug' bo'lsin yuzing, deb
"Oy..." qo'yibdir otingni ona.
U sho'rlik ham qaydan bilipti,
Qiz dardini tortadi yana.

U ham qizi kabi bir cho'ri,
Boyning dargohida xizmatchi.
Yonadi kuyib butun ichi,
Ne qilardi taqdirga qarshi?

Oyjon yig'lay-yig'lay, so'ng tindi,
Savatchaga soldi uzumni.
Ovuntirmoq bo'lib o'zini,
Sekin-asta qo'shig'in qildi:

Ro'molim bor, ro'molim bor,
Ro'molimda tumorim bor,
Shu jujugda xumorim bor,
"Dod" qo'limdan ketdi ro'mol.

Ro'molimning uchi shoyi,
O'rtasida bordir oyi.
Olib bering, jonim doyi.
"Dod", qo'limdan ketdi ro'mol,

Xo'p chiroyli edi ro'mol,
Qo'limdan uchirdi shamol.
Otam-onam ham kambag'al,
"Dod" qo'limdan ketdi ro'mol.

Ro'molim bor, ro'molim bor,
Ro'molimda tumorim bor,
U xo'jukda xumorim bor,
"Dod" qo'limdan ketdi ro'mol.

1935-yil, Urganch

* * *

Xolida Sulaymonovaga

Tatar qizi! Yashil ko'zlaringdan
Allaqanday sirlar angladim.
Senga aytam, ishon, ma'sum qiz,
Men hech qachon bulay yonmadim.

So'yla, sening o'ynoq ko'zlaringdan
Men anglagan sirlar sirini.
Nega shulay bir yondirib o'tding
Shoiringning kasal dilini.

Sening ko'zlar sirli, shoyon boqdi,
Mening yurak erib, suvdak oqdi.

1935

SENGA, SINGLIM

(Ukam Ravzaxonga)

Ko'chalarda quyosh bayram etar,
Yel — orkestr o'ynaydi xursand.
Bilasanmi, bu to'p qayga ketar?
Qolma! Orqasidan yugur san!

Qolma! Osmon ko'm-ko'k bayroq kabi
Bosh ustingda yoyilgan hamon.

Tutqich bermay xuddi simob kabi
Olg'a qarab tashlanar har on.

Tinglaysanmi, temir qadamlarni?
Eh, qanday ko'p, oldingdagi to'p!
Yugur! Qichqir! Bermagin damlarni,
Sevin, sevintirgin, degin xo'p!..

BEGONA

Sening oying menikidan chiroylimi?
Ayriliqqa bardosh berib chidaydimi?
Qayg'usini kulgu bilan,
Shodligini yig'i bilan
Izhor qila oladimi?

Mening oyim senikidan chiroylidir,
Ayriliqqa aqlidir, chidamlidir.
Qayg'usini kulgu bilan,
Shodligini yig'i bilan
Izhor qila oladi u!

Ko'z oldimda muzdek qotib turasan sen,
Yaramaysan kurashlarga, begonasen!
Jahlim yomon, saqlanib qol.
Ol, nuri yo'q oyingni ol,
So'ngra yo'qol dargohimdan!

Kulgilarim orqasida zahrim bor,
O, ishonma, bo'lolmaysan sen menga yor!
Niyatingda o'zga fikr,
Tillaringda o'zga zikr...
Yo'qol! Jahlimni qo'zg'atma!!!

1934

CHARENS

(Oktava)

Ko'z oldimda Ologezning ko'k qori,
Qulog'imda bo'ron hamon guvillar
Ana, Charens yengishi, go'yo bari
Bir kichkina bulut, ammo dovullar
Chuqur izlar qoldirgan unda...yori
Yaxshi ko'rgan sokinligi uvillar
Yo'lbars kabi, uni shunday sezaman,
Dante kabi do'zaxida kezaman...

1934-yil, Yerevan

* * *

Qushcha kabi derazamga urar qanotin
Vodiylardan chechak taqib kelgan sentabr.
Shodlanaman, tuyg'ularim qaynar besabr:
Keng ko'z bilan ishonaman: shirin hayotim!

Shu chog'dagi yuragimni tinglangiz hoy, hu...
Aks sadosi gumburlaydi go'yo zambarak:
"Sezgilarning bebozori — menimcha — tuyg'u.
Menga shodlik va gullarning lablari kerak!"

1934

* * *

Moviylik dengizi borliqni ko'mgan,
Betimga salqin yel asta urinat...
Nigohim kunduzning nuriga cho'mgan,
Uzoqdan chinakchi qizlar ko'rinar.

Ko'nglimga quyilar sho'x, qichiq yalla,
Osmonday yuksalar orzu va armon.

Oq gullar ochilib yetilgan palla,
Bulutday to'lg'anar kattakon xirmon.

1934

* * *

Boraman, oqarib yotar yo'llar,
Yam-yashil dalalar — sohilsiz dengiz,
Ko'zimga ilinmas ufqning cheti.

Zangori barglarning to'liqini ichra
Oftobga termilar nafarmon gullar...
To'ymayman, o, kenglik! O, chaman diyor!

1934

* * *

Shafaq o'chay deb qoldi
Kaptar qonidek rangsiz...
Ko'zlarimni uzmayman

Deding: Endi o'chir u,
O'tgan qaytib kelmaydi,
Ertani sevinib kut!..

1934

* * *

Hayot hali mening oldimda,
Aqlim o'sar, fikrim yuksalar.
Ammo, ko'rganlarim yodimda,
Hammasi ham butunlay qolar.

O'sha paytda qaysisi kulgi,
Qaysi biri berar hayajon.
Bu she'rinning boisi shulki:
Fikr — bola, bola — o'suvchan!

1934

* * *

Ukraina yellari,
Ukraina yellari...
(Uyg'un)

Olcha bog'laridan esgan shamol
Betlarimga yumshoq urilur.
Oy nurini to'kib, o'ynasa tol,
Bargdek titrab ko'ngil qo'zg'alur...

Qo'zg'alur-da... orom bilmay picha,
Tog' bulog'i kabi urar jo'sh...
Shunda meni achoqlaydi kecha:
(O, u qanday shirin, issiq to'sh!)

Yoshligimdek to'ydirmasdan sira,
Zumlar kabi uchgan bu Pegas.
O'ynab sochlarimni boshim uzra
Yelpisa-chi, dil tinsa birpas...

O'tib ketdimi u? Balki, hozir
Dneprni urar qirg'oqqa.
Balki, tilla boshloqlarni yozar,
Balki, mindi oqargan toqqa...

Mayli, ko'ngil... Mayli, o'ynasin u,
Naylaringni chalg'in, taratsin.
Xuddi senday qabul etmay qayg'u,
Faqat, shodlik... shodlik yaratsin!

1934

* * *

Yodimdadir uzoq Shimol,
Yodimdadir, u tinch oqshom.
Suv betiga egilgan tol
Shivir-shivir qilib behol
So'zlaganday edi boqsam.

Shunda sen ham yetib kelding,
O, dengizning oq qunduzi.
Ko'l bo'yidan chechak terding,
Esdalik deb menga berding.
Esingdami, Shimol qizi?

Hali-hali qulog' imda
Qaltirab kuyilgan gitar.
O'pgan izning yonog' imda,
Kulkilaring sanog' imda,
Dildan ular qayga ketar?

1935

BOBOMNING FALSAFASI

(Oq she'r)

Yosh edim, yer go'yo tor edi.
Dard yeli sochimni to'zdirgan.
Osmonga ko'z tashlay olmasdim,
Kiprigim og'irlik qilardi.

Bir oqshom. Oy to'lgan, yel o'ynar.
To baland surayyo zangori.
Barglarga uch urgan igna nur.
Yulduzlar jimirlar. Charog'on.

Ko'kragi liq to'la orzuni
Hassa qilib ushlab, o'tmishda
Oyini, yilini yo'qotib,
Baxtining xokini izlagan,

Topmagan, kulfatning seplarini
Yalagan, duv tirish peshona —
Onam, esda, silab-siyपालab
Nasihah qildi, ki, bu dedi:

"Dunyo — u,
Dunyo — bu
Bil, bolam!
Boboginang bor edi, qari.
Sen bilmaysan, u o'lib ketgan,
Moma seni yo'rgaklagan kech
U derdi: "Taqdirga o'shirmang,
Zo'rlik ham, insof ham xudodan.
Bu janjal yo'qolar bir kuni.
Ammo, siz talashmang "haqqim" deb.
Yomondan yaxshilik yaralar,
Aql — faqat dunyoni yaxshilar!"

Bolalik vaqtimda onamning
Ortidan "aya"lab chopganday,
Nasihatlari ham ortidan —
Bolalik maylida quvganman.

Ishonib, onam deb, so'ziga
Bosh egib, qul bo'lib yillarim
Azob ko'chasida kechganlar...
Ko'zimga rasm solgan uqubat!

Yer menga tor bo'lib ko'ringan,
Ko'krakka qo'l qo'yib, egilgan.
Osmon kengligiga boqolmay
O'tganman. Ko'zlarim jiqqa yosh.

O'qdim, angladim hayotni,
Har so'zi mazmundor "diamat".
"Mantiq"ni tushundim toza ham,
Falsafa ne ekan bildim men.

O'tgan yillarimni axtaray?
Qaytarib bermasin, makkora!
Mayli, bu falsafa berajak
Menga har bir kunni — yil qilib.

Menda bitdi endi, bobomning
Men tug'ilmay turib qilgani,
Onamning aytgani nasihat,
Bitdi menda endi, butunlay!

Onajon, kel endi, men senga
O'rgatay, hayotni anglatay.
Tashla, bobolarning o'g'itini,
Eskiday, o'zimga ona bo'li!

Menda bitdi og'ir kurashlar so'nggida.
Senda yashayotir u, hali.
Lekin, bitajagi aniqdir,
Bitajak u, o'lajak albat!

1935-yil, Samarqand

* * *

Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi,
Jallddek rahm etmay dilni tiladi.
Ayondir: bir kuni aylaydi xarob...
Mayliga. Mehrimni, go'yoki, sharob —
Shimirdim. Yashayman, tilsin dilimni.
Bemehnat sevmayman tirik tilimni

1935

NIL VA RIM

(Tarix kitobidan)

I

Lampam yonur... Yaralangan qanotdek og'ir
O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ir.
Qiyinalaman. Tirishaman. Hushim parishon.
O'tmish, hozir va kelajak ko'runar — har on.
Tirishaman, butun kuchim ko'zimga kelar;

Chirog'imga parvonadek urunar yillar,
To'rt atrofim to'lib ketar kuygan qanotga...
Hayolimda: katta sahro, men mingib otga —
Shamolday tez, bulutlardan yengil chopaman,
Kuyib tushgan har qanotdan bir jon topaman.
Termilaman o'lik ko'zga (nega qo'rqayin?).
Barchasidan o'yib olib ko'zining oyin —
Termilaman: qichqiradi yillar, odamlar,
Eshitiladi menga ular bosgan qadamlar...

II

Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh —
Ko'tarilar. Nil oqadir — qullar to'kkan yosh.
Faryodlarga chidolmaydi yer bilan osmon.
Ro'qayrda? Azirisa? Qiynaydi Tifan!
Kimga yig'lab, kimdan madad kutsin bemor qul?

Erki qulfdir, hayoti qulf, bor xudolar qulf!
Kosasida suv yo'q, quruq xaltasi — non yo'q.
Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo'q.
Ko'zida ko'z yo'q, belida bel yo'q, hayhot!
Fir'avni uni chumoliday ezadi: voydod!..
Fir'avning hukmi qattiq, fir'avni xo'jayin,
Xudolarga u manzurdir, hayoti tayin.
Neki qilsa, o'zi bilar, o'zi hukmron,
Mistr bo'ylab nil oqadir — qullar to'kkan qon!

III

To Minisidan Ramzesgacha, Ramzesdan nari
"Malika qiz." Kleopatra hukmron davri,
Undan tortib... yana uzoq, yana ko'p yillar
Xarsang bilan yotqizilgan necha ming dillar.
Ko'z yoshidan, dil toshidan qurilgan haykal
Mag'rur turar, mag'rur boqar, hech biron mahal

Na odamdan, na zamondan qo'rqmas asti u.
G'azabini yutib o'lgan qullar dasti bu!
Qullar... (menman u qullarning o'lmas avlodi.
Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi.
Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib,
O'talarimning boshidan paydevor o'yib,
Ozodligim obidasin qurgan insonman!
O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!)

IV

Otim uchar (xayolimda) oldinga doim,
Avval bahor osmonidek yig'lar gado Rim.
Emchagida bir tomizim suti yo'q ona
Go'dagini tosh ostiga bostirdi ana!
O'lim yaxshi, odam agar, shunday xor bo'lsa!
Bir parcha non nima o'zi? Shunga zor bo'lsa!
Nahot, chaqmoq yondirmaydi butun ochunni?
Kul fardiday umr — tog'day kulfat uchunmi?
Javob bergin menga, zakki qadimgi Xomer,
Ko'z yoshi-yu qonga rostdan tashnami bu yer?
Qo'y, yaxshi chol! Ko'nglim to'ldi, gaplashamiz so'ng,
Bu nimasi? Eshitasanmi, og'ir, hazin mung?
Hamon yig'lar yalong'och Rim, hamon dil ezar,
Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar!

Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig'ishmasdan qaynar oloman:
"Odam bilan hayvon o'yin ko'rsatar emish..."
(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!)
Tishlarini irjaytirib bo'kirgan yo'lbars
To'rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.
Och ko'zlari qonga to'lgan, sakrab o'ynaydi...
O, bechora, qoch! U seni tirik qo'ymaydi!
Ana! Ana, tirnog'ini nishlab kelar u,
Changal soldi! Xalq o'rnidan birdan turdi duv...
Chapak choldi "Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga!

Bundan boshqa xo'rlik bormi axir insonga?"
Dedi, parcha-parcha bo'lgan gladiator.
Rim — o'yindan o'lim kutgan jinni teatr!

V

Issiq izlar... hamon u isyondan is bordek,
Bulutlarning orasinda yurar Spartak.
Osmon — qalqon, kamon yoyi — chaqmoq, yonar o't,
Zulm uchun yig'i, fig'on va erksizlik sud.
Javob bersin, Aflotunmi, Vergeliymi, yo —
Boshqa biri, qani kim u? Kim mard? Kim guvoh?
Ki — tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorur?
Spartakning lashkarlari hali ham borur.
Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi.
Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi.
Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib,
O'talarimning boshidan poydevor o'yib,
Kelajagim obidasin qurgan insonman!
O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!!!

1935

ISROIL

I

Tushimdagi odam

Ko'z yumsam, qora kafanli,
Soya kabi beqon, behayot
Bir skelet ko'rindi... Hayhot!
Tushimmi, o'ng? Bu qandaqa sir?
"Qo'rqma, shoir! Men — mayib asir,
Men — odamman. Ko'zni ochmasdan.
Beshigimni tebratdi o'lim.
Dunyo ko'rib, ko'rmasdan unim,

Chidolmadim yo'qqa qochmasdan:
 Men o'lganman ko'zni ochmasdan!
 O'lim! O'lim! Xunuk zarurat!
 Tur, ey shoir, ruhingni uyg'ot,
 Achin! Agar, fig'on bilan zor
 Aylanolsa edi tutunga,
 Men ko'rgan zulm, men tortgan ozor
 Butun yorug' jahonni mozor —
 Qilib, burkab qo'yardi tunga!...
 Mana bu kul, bilasanmi, kim?
 Bu men emish. Kulki! Inonma!
 Men odamman. Mana imon. Ma,
 Buni olgin. Mana pichoq, jim,
 Hovliqmasdan dilingni kes. Ber,
 Men tirilmoq istayman, shoir!
 Qo'rqma mendan. Bosingirama,
 Men — gulxanda yongan Bruno,
 Men — Temurning quli, shahidi.
 Men — haramda zo'rlangan bir qiz,
 Men — ko'mirga aylangan yulduz.
 Men — och qolgan, yalang'och dehqon,
 Men — dorlarga osilgan "buntar".
 Men — begunoh ko'p ezilgan jon.
 Men — odamman. Olam taniydi.
 Oydin ko'r, to'rt oyoqqa to'ntar,
 Yaxshi qara, taniysanmi? A...
 Charchab qoldim, orom ber. Uxlay,
 Yo'q! Shoshma, men hammani yo'qlay.
 Sen bizni ko'r. Bosingirama.
 Xalal berma, olam uyquda...
 Bas qil, shoir, ko'p abdirama!
 Hay o'liklar! Keling! Hay...to'da!"
 Rangi zahil, qora kafanli,
 Soya kabi beqon, behayot
 Skeletlar ko'rindi... Hayhot!... —
 Men uyg'ondim. Cho'chib uyg'ondim.

Osmon toza. Oy yuzar erkin.
 Chirkin xayollarga chulg'andim.
 O'lim! O'lim! Hayot uchun biz
 Go'yo ko'kdan otilgan yulduz.
 Och qo'yningni tashlandik birdan,
 Sen kuchlisan, ammoki, sendan
 Odam battar! — dedik; yuksaldi,
 Odam — odam haqini oldi!

2

O'ngimdagi odam

(Ikki o'pich)

Xuddi tilla kapalaklarday
 Shitirlashib to'kilar barglar.
 Uzoqlarda kimdir chalar nay,
 Bandi chuqur his bilan to'la.
 Qiz ko'nglini yondirar dardlar
 Betlarida yetilgan shu'la...
 Qiz. Sochlari to'lqin urgan qiz,
 Kimni kutar xilvatda yolg'iz?
 Qachongina yerga osmondan
 Tushib qolgan ekan bu yulduz?
 Kim ekan u, matol bo'lgani?
 Kim ekan u, baxtli o'spirin?
 Qish kutishi — hammadan burun —
 Er yigitning nurga to'lgani!
 Qiz. Sochlari to'lqin urgan qiz,
 Kimni kutar xilvatda yolg'iz?
 Qachongina yerga osmondan
 Tushib qolgan ekan bu yulduz?
 U, quchoqlab oldi. Muz kabi
 Erib ketgan sezdi qiz o'zin.
 Yuzlariga tegdi yuz. Labi —
 Labga tegdi. Yumdi qiz ko'zin...

Shu choq... g'arbdan kelgan bir bulut
Oy yuzini to'sdi. Bir zamon —
Qorong'ilik bosdi. To'rt tomon
Jimjit edi. Bosmishdi sukut...
Oy ham bilmay qoldi bu sirni.

Juvon. Ko'zi yalnagan juvon,
Sochi to'liq urgan kelinchak,
Kimni kutar? Bir quchoq chechak.
Kimga tuhfa? Kimga armug'on?
Shunday gullar ilimbidiki,
Qaritmaydi asti ko'ngilni!
Intizorlik bilimbidiki,
Quchog'iga bosibdir gulni.
Kishi qancha intizor bo'lsa,
Sevgi shuncha shirin tuyular,
(O... U qimmat, nozik tuyg'ular,
Unutmayman, hattoki o'lsam!)

Endi uni quchoqladi bu...
Dildan sezdi buyuk bir tuyg'u...
Hayollari qush kabi uchdi,
Yodiga, ha... xilvat tun tushdi.
Yuzlariga yuz tegdi. Labi
Lablar bilan olishgan kabi
Ustunlikning yo'lini tutdi,
Kim shoshirar janggida yutdi.

O'pichlarga sig'madi shekil
Uning ishq, intizorligi,
Kuyovining ko'ksiga butkul
Tashlandi... va nishondorligin
Keng ko'z bilan ko'rib O'g'iloy,
Ne qilishni bilmadi birpas.
So'ngra, birdan uzmasdan nafas,

Quchoqladi uni Majnunday.
Childirmaning dili o'ynardi,
Xalq dengizday toshib qaynardi...
Hamma ko'rdi bu katta sirni!

KORAB

Oqshom tushdi, tog'ni tuman bosdi,
Yulduz bilan to'ldi dengiz osti.
O'ynaydi shamol,
Uxlaydi Shimol...

Sohil qoldi, yana olg'a qarab,
Chiqdi asta tog'day buyuk korab.
Suvlar chayqaldi,
Oy qalqib qoldi.

Bo'ron, chaqmoq, dovul undan yiroq.
Tilak bayroq, tilak ko'zda chiroq.
Parillab yonur,
Nedan tap tortur?

O'lim, qo'rquv, yo'qlik qo'rqitilmas,
Tilak bayroq, tilak qo'lda kompas.
Bexatar safar!
Bo'ysunar zafar!!

Oqshom tushgan, tog'ni tuman bosgan,
Tiniq suvda cho'kib yotar osmon...
Men qarab qoldim,
Keng nafas oldim.

1935-yil, Murmansk

* * *

— Yur, tog'larga chiqaylik.
Mayli, yur!
Eh... qandayin chiroylik
Oppoq nur...

Olmos kabi oppoq qor
Yaltirar.
Nega muncha dil oqar,
Qaltirar?

Bilasanmi, yoshlik bu
To'ymagan!
Tinim bilmas, go'yo suv
O'ynagan...

Shunga o'ta chiroylik
Ko'rinur...
Yur, tog'larga chiqaylik
Mayli, yur!

1935

BALIQCCHI

Oq bulutlar qo'zg'aldi,
Tog'dan nari yo'l oldi.
Ochildi ko'm-ko'k osmon...

Uzoqda yulduz ko'rdim,
Sohilda bir qiz ko'rdim.
Boqqan bilan to'ymasman...

U qayiqqa o'tirdi,
Yelkanini yel surdi,
Qarab qoldim ortidan...

To'mi tashlab ketdi qiz,
Suvda aks etgan yulduz,
Ilindi qanotidan.

Xayol — dengiz, men — baliq,
Qalbimla nayim choliq...
Hushimni oldi ketdi.

Ketiga qiyo boqmay,
To'lqinlardan hayiqmay,
Ko'zdan yo'qoldi ketdi...

1935-yil, Murmansk

* * *

Yurganmisiz birga oy bilan
Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?
Maysalarga shabnam qo'nganda
Shunday yaxshi tinch bo'lar ekan!

Shitir-shitir o'ynar shaboda,
Barglar musiqasi bir shirin...
Havo go'yo tiniq, sof boda,
Ko'ngil sezar hayotning sirin.

Men mast bo'lib qoldim bir kecha,
Sil o'pkamni ancha yayratdim.
Uxlamasdan to tong otguncha,
Dilginamni rosa sayratdim.

1935

* * *

Dengiz oyna kabi yaltirar,
To'lqinlarga suqim oqadir,
Oqqush mungli-mungli oh urar,
Hazin kuyi dilga yoqadi.

O'tiraman, ko'nglim osuda,
Boshim uzra barglar shitraydi.
Soyalari limmo-lim suvda
Tanga-tanga bo'lib titraydi.
Qanday yaxshi, kechqurun yolg'iz
Yursang, ko'ngil asti to'y masa.
Oy — go'yoki parishonhol qiz,
Sochlarini yozib o'ynasa...

1935-yil, Bolliq dengizi

DENGIZGA

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!
Ko'nglimda ishqingni olib qaytaman.
Sochimni o'ynaydi muzdek sho'x shamol.
Men unga dardimni qanday aytaman?

Kechqurun qirg'oqda aylanib tanho
Sevdim, sevib qoldim to'lqinlaringni.
Oyni cho'miltirgan tinch tunlaringni
Tushimda ko'rganda ne qilarman, o'?

O'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan!
Armonim qolmasin ketar oldimda.
Bag'ringda baliqday yuzgan oq yelkan
Bir umr sayr etgay mening yodimda...

Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!
To'lqinlar, qo'yimda qizday kirdingiz...

1935-yil, Oq dengiz

YO'LCHI

Yo'lchiman, manzilib dengizdan nari,
Lojuvard ufqning tubiga yaqin.
Ko'nglimda dardlarim daryodek oqin.
Chayqalar ko'zlarim tikilgan sari.
O, yo'llar!..

Chu, qora toychog'im! Chu, qora yo'rg'am!
Murodga qasd qilib yugurgan yetur.
Bo'ronni sevmasa, dil nechun tepur?
Tiriklik ne kerak bemehnat, beg'am?!
Chu, qora yo'rg'am!

1935

* * *

Do'stlarim, xabar oling. Ko'nglim kuyadi:
Bir taraf — yoshligimning sho'xligi mag'rur,
Bir taraf — tajribamning darslari turur,
Ikki yoq so'g'ishadi. Urush qiladi.

Ko'nglim yonadi. Qiyin. Qonim qo'zg'alur...
O'zim-o'zimga tinchlik beray deb agar, —
"Bu kurash, og'ir kurash, bittasi yengil..."
Desam qo'ysam... Oxirda menga ne qolur?

1935

YANA SHE'RIMGA

(Sonet)

She'rim! Yana o'zing yaxshisan.
Boqqa kirsang, gullar sharmanda,
Bir men emas, hayot shaxsisan
Jonim kabi yashaysan manda.

Yuragimning dardi — naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O't bo'lurmi ishqo yo'q tanda?
Dardimsanki, she'rim yaxshisan.

Sen orada ko'prik bo'lding-da,
Geyne bilan o'rtoq tutindim,
Lermontovdan ko'mak o'tindim.

Butun umrim sening bo'yningda.
Saharda qon tupursam, mayli,
Men — Majnunman, she'rim, sen — Layli!

1935

* * *

Shirin bo'ldi hayot iqlimi
Haqqim bilan tuyulganimdan.
Sho'xlik o'tib, quyulganimdan
Rosa tanib oldim aqlimi.

O, quyulish — achchiq tajriba!
Chaqirasan, turib "ho" deyman,
Chunki, kelajagim hajrida
Men umrimni yaxshi taniyman!

Toyim uchar...ho.. ancha oldin.
Qo'lga olib istak-ra'yimni,
Baland qo'yib erka nayimni,
Katta yo'lga chiqqanman; oydin...

Bayrog'imsan yo'limdan har vaqt
O, hayotim — achchiq tajriba.
Kim qiynalsa tilak hajrida,
Uni kutar saodat va baxt!

Men boraman sevinganimdan,
Umrimning yo'q hech ham tinimi.
O'zimga haq tuyulganimdan
Shirin bo'ldi hayot iqlimi!...

1935

BOG'IM

O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to'lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman.
Ko'nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to'lgan butun.

Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog'im,
Ishimni hurmat qilor,
Gullardan haykal qurur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog'im!

She'rilarim yangrab qolur...
Bir umrga o'ylayman!
Hayotimning davomi —
Kelajagimga homiy.
O'rimga bog'bon bo'lur:
Bir umrga o'lmayman!

O, u qanday davomdor!
Nur bilan to'lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman.
Ko'nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to'lgan butun.

1935

NASIMAGA DEGANIM

Yo'q, hali hammasi o'tganmas,
Ko'p hali hayotda nasibam.
Silligim bezarar, hech gapmas,
Barini ko'raman, Nasimam,
Yo'q, hali hammasi o'tganmas!

Oldimda kutadir imtihon —
Men og'ir janglarda bo'larman.
Nasiba! Bu kungi issiq qon
O, balki to'kilur... o'larman...
Oldimda kutadir imtihon!

O'ylanib, ko'zingga qarasam,
Ikkita dengizday ko'rinur...
Nasima! Ichaman rost qasam,
Olovdek lovullab dil yonur,
Baxtliman janglarga yarasam!

1935

QIZLAR

I

O'rtoq

Quyosh kabi jahonga mashhur
Yoshligimning hamrohi Xumor,
Men bilaman, ko'nglimiz bahor,
Men bilaman, shirin bu umr!

Men bilaman, yillar yel kabi
Tez o'tadi... To'ymay qolaman.
Shunda xayolimni sel kabi
O'tmish bosar... Esga olaman.

Ham kelajak, ham bukun, ham u
O'tmish bo'lgan shonli onglarni.
Bizning shodlik uchun janglarda
Daryo-daryo oqqan qonlarni.

Shunda ko'zim yonib ketadi,
Sen tog' kabi bosib kelasan.
Qanday yaxshi, Xumor sen borsan —
Do'stlarimdan ... Ko'nglim o'sadi!

Boshga qayg'u tushsa, bo'lishdik.
Shodlik bo'lsa, teng sherik bo'ldi.
Shuning uchun ko'nglimiz bahor,
Bahor ishq bilan liq to'ldi.

Qanday shodlik, butun umri
Yaxshi she'rday yoddan bilaman.
Qanday yaxshi, Xumor, sen bilan
Eski yerda birga yuraman!

Qanday shodlik, Vatan... yur! — desa,
Birga qator turamiz, Xumor.
Men — komandir-u, sen — hamshira,
Hamon ko'nglimizda gulbahor!

II

Muhabbat

Daryo chayqaladi sabodan,
Oyning nuri chil-chil sinadi.
Dengiz kabi moviy havoda
Yulduzlarning sayri tinadi.

Muhabbat, tur, Muhabbat, uyg'on, —
Deydi sekin mehribon ona.
Shirin tushlar ko'rib to'ymagan
Muhabbatxon uyg'onar yana...

Shu dam bilmam, na xayol kechdi,
Shahlo ko'zi suzilib ketdi...
Barg uzildi, barg betidagi —
Oy parcha ham uzilib ketdi.

Salqin havo asta qo'yar lab
Oppoq betlariga ko'chada.
Ko'rmoq uchun uni ataylab,
Yakka yulduz qopti kechadan!

Muhabbatxon yelib boradi,
Durrasini o'ynar shabboda.
Karvon bulut ko'char masodan:
Respublika tongi otadi.

Muhabbatni quchdi kombinat,
Shahlo ko'zi suzilib ketdi.
Barg uzildi. Barg betidagi
Xira oy ham uzilib ketdi.

Sabil qoldi mis angishvona,
Endi barmog'ini siqmaydi!
Qayg'usiga aylab nishona
Safsar choyshablarni tikmaydi:
She'r parisi — ilhom Muhabbat!

III

Oyimjon

“O'lgur, qahrab qolg'ur xirmoni¹
Muncha shirin-shakar bo'libsan?
To'lin oyday rosa to'libsan,
Koshki, umring bilisa vafoni!

Koshki, yuzingga aks solgan
Zuhra yulduz asti o'chmasa.

Koshki, betingdagi tiniqlik
Begona lablarga ko'chmasa.

Koshki, shunday chiroy sen uchun
Moling bo'lib qolsa umrbod.
Koshki, orzu-havasni butun
Bulbul kabi o'qib bo'lsa yod.

Koshki, baxtim siyoh bo'lmasa,
Shabnam bo'lib, insam bargingga!
Koshki, xo'jayinim so'kmasa
Seni qo'yib bersam haddingga”.

Dedi: Ko'zlarida sel ravon,
Tirnoq urdi bandiga asta.
Uzum uzildi-yu... birpasda
Yerga tushdi...
Yozildi: voy... Qon!

Bog' to'rida oxirgi yulduz
Yilt etdi-da, o'chdi butunlay.
Sezmay qoldi zorlanuvchi qiz,
Sahar unga pinhondi tunday...

Pinhon edi unga bor umr,
Chunki, hayot etmishdi basir,
U, falakdan uzilib tushgan
Quyosh edi... Va lekin asir!...

Siyrak tuman bosgan bir sahar,
Savatlarda liq to'la uzum.
Qora sochi belidan uzun
Oyim ishkam ora barg yig'ar.

Ko'zlarida asar qolmagan,
Xunibiyron to'kkan yoshidan.

¹ Uzunning bir turi

Ro'molini olib boshidan,
Yelkasiga peshkach tashlagan.

Yonboshida, pastak supada
O'g'ilchasi uxlab yotadi.
Javdiragan qora ko'zidan
To'lib-to'lib mehr tomadi.

Kajavalar liq: olamjahon
Xirmoni-yu, kishmish, daroyi...
Kolxoz gulzorida Oyimjon
Kunduz Quyosh, kechasi Oyi.

IV

Oqila

Kecha

Kechagina yetti pog'ona
Shotichadan tomga chiqqanda,
Onang seni urishar edi:
— Yiqilasan, Oqil, juvonmarg!

Bugun

Oq shohidan qanoting sening,
Kaptar kabi o'ynab osmonda.
Bulutlarni sayr etib yurding,
Olam qoyil senga, oqila!

Ertaga

Yulduzlarni asir olasan.
Sendan bitta iltimosim bor:
Sen o'shanda, mana shoir! — deb,
Zuhra yulduzini menga bergin!

V

Armına

Bir qizni ko'rdim

Yuzimga och, suqli qarading,
Lablaringda shirin tabassum.
Balki, meni oshna sanading,
Mayli, qolay yoningda bir zum.

Mayli, qolay, sezdim yoynashin
Osmon bilan o'xshar ko'zingni.
Hoy, o'yli qiz, nigohi yashin,
Tortinmasdan tila arzingni!

Sen qaraysan, senga ko'ngilli
To'lqinlarning kuylab oqishi.
Sen qaraysan, senga sevimli
Buyonlarning chechak otishi.

Sen qaraysan baland qirg'oqdan
Uzoq yulduzlarga termilib...
Oq qumlarda izlar qoldirib,
Kimni kutib chiqding bu yoqqa?

Ko'zlar, yaxshi qoling

Asli ko'k ko'z ekan — ko'z degan,
Xuddi dengiz... Ishq-u hurmatni
Kema qilib, yuzsang o'shandan,
Anglar eding butun ne'matni!

Ko'rasanmi, qanday chiroyli
Tikilgancha boqib tursa u?
Chidolmayman, pishgan tut kabi
Oyog'iga to'kilmasdan duv.

Ko'zlar!

Oqqush uchdi qayoqqa?

Qanotida olib ketsaydi.

Butun o'yim mana shu xatda,

Egasiga tezda yetsaydi!

Ko'zlar!

Yaxshi qoling men ketay,

Notanish qiz, xating omonat.

Xotirjam bo'l, men shuni aytay:

Shoir qilolmaydi xiyonat!

Qiz xatidan parchalar

"...Bu yoqlarda sulum bo'ladi

May oyining salqin tunlari.

Chechak otsa buyon gullari

Qirg'oq chiroy bilan to'ladi".

"...Bu yoqlarda dalalar tashna,

Suv umrning qoni o'rnida.

Bu yoqlarda dashtlar qo'ynida

Men zarurman va lekin chashna".

"...Mendan xursand hamma ko'ngildan,

Agronom qiz, — deydi barchasi.

Men bu yoqda, qumlar qo'ynida

Inqilobning kichik parchasi!"

"...Parcha-parcha sinza suv uzra

Tuman o'tib kelgan oy — yaxshi.

Agar boqsam, shunday bir sira

Nigohingni eltadi naqshi..."

"...Shu oy bilan chiqib har oqshom

Xayolingni qilaman, sevgim.

Qayda bo'lsam, qayerga borsam
Yo'qolganday xuddi bir kimim..."

"...Sen qalimda o'chmas suratsan,
Qanday qilib seni sog'inmay?

Suvlar go'yo menga oqin — may,

Qarayman-da, dil ovutaman!"

"...Ortiq changovlikda o'stirgan

Gulzorim bor, oq gullarim bor.

Ular seni taniydi ko'pdan,

Ular senga ko'pdan intizor".

"...Qora rangni asli sevmasdim,

Endi tun ham kunduz bilan teng.

Bilmoq edi bu sirmi qasdim,

Bilsam qora ekan ko'zlaring!"

"...Sijilaman eslagan choqda

Sening bilan kechgan damlarni.

Ammo, armon buyuk bu yoqda,

Keltirmayman yonga g'amlarni!"

"...Sijilsam-da, sog'insam-da men,

Vatan xohishini tutaman!

Xafa bo'lma, unutmagin sen,

Unutmayman, men ham kutaman".

"...Mayli, sevgimizning onlari

Uzoqlarda to'ydirmay o'tsin.

Mayli, kerak bo'lsa qonlarim

Suv o'rniga yerga to'kilsin".

("...Kechir meni oppog'im, bekam,

Omonatni oshkor ayladim.

Bilaman, va'dadan aynidim,

Qanday qilay shoirlilik ekan!")

Sen sevasan...

Sen sevasan, salqin va yengil
Amu cho 'miltirgan shamolni.

Sen sevasan, notanish singil,
Ko 'nglingdagi to 'la armonni.

Sevar yoring sendan uzoqda
Ichikkansan bu yoqda yolg 'iz.
Lekin Vatan oshiq etgan qiz
Sevging undan kuchli bu yoqda!

Xayollarga cho 'mib qaraysan
To 'lqinlaring yuksak yoringdan,
O 'ylaringni changa solasan,
Qolish kuchli kelar baridan.

1936

TA'ZIM

A.S. Pushkinga

Teran so 'z ummoning ichra g 'arq bo 'lib,
Arang chiqa oldim she 'riy qirg 'oqqa.
Yoniq satrlardan nurlangan ko 'zim
Ravshan boqayotir yiroq-yiroqqa.

Katta g 'ala-g 'ovur olam sathida,
Ovozingni mutlaq o 'zgacha bildim.
Ovozingga monand she 'rlar yozmoqqa
Saharlar uxlamay, bag 'rimni tildim.

Yangidan ko 'kardi fikr-ruhimda
Hidi yo 'q, unutilgan, qurigan chechak.
Goho ko 'rinadi go 'zal Tatyayang
Bizning xonamizda bo 'lib kelinchak.

- 110 -

Goho raqs etarlar qarshimda turib,
Jilvakor, husndor cherkes qizlari.
Xullas, aslo o 'chmas bo 'lib qoldilar
Lirikang qalbimga solgan izlari.

Xuddi o 'zingdayin maydondadurman,
Hur ilhom egasi — shoir bo 'lib men.
Dildan umidlarim kuylamoqdaman
Sen istagan ozod zamonada men.

Men — o 'zimga xonman, o 'zimga — sulton,
Qo 'l cho 'zib hech kimdan kutmayman ehson.
El uchun, yurt uchun yonib kuylayman,
Istagim — hur va tinch yashasin inson.

Ezgu ozodlik-la qonun birlashgan,
Ayrilmas bir tusda jipslashgan ular.
Sodiq qo 'llar tutgan o 'tkir qilichlar,
Vatanni qo 'riqlar jangovar askar.

Jo 'shqin ilhom bilan sen ham safdasan,
Ijoding muxlisi — do 'st millat bilan.
Dil-dildan hurmating aylaymiz bajo,
Xalqim boqmas senga hech minnat bilan.

1937

YURAK TUG'YONI

O 'lmoq istab, she 'riyat uzra darg 'a,
Itardilar meni chuqur bir jarg 'a.
Menga ayon: bulbulning oshyoniga
Qo 'nolmag 'ay urinish bilan qarg 'a.

Qarg 'a qag 'illashda etsa ham davom,
Bulbul-u navosiga el solur quloq.

- 111 -

Jarlikda ham qaynar,
El nazari tushgan ilhomgoh buloq.

* * *

O'Imaslik da'vosin qilmoq nomardlik,
Nom qoldirmoq uchun urin olamda.
Ezgu ishninggina uzoq yashashga
Qulamas bir o'rin berur olamda.

* * *

Umidim bor: bulbuling bo'lib,
Qurmoqlikka boshingga oshyon.
Vomiq, Farhod, Majnundan ko'ra
Muhabbatim hadsiz, bepoyon.

* * *

Saharda yozilgan she'rlar
"Ko'ngil gavhariman", — derlar.

1957-yil, sentabr, Avaxta

TUTQUN BULBULCHA

Hozir sening qanoting bog'liq
yuraging dog'liq,
Eshitilmas sayrashing xalqqa.
Sen kezgan bog'lar ham bo'm-bo'sh,
yo'q unda tanish.
Eshiklari qulfdir — halqa.

Amin bo'li, yechilur bog'li qanoting,
Bulbul-ku oting,
Xizmatin el uchun aylagan zoting.
Qo'shig'ing mavj ursin, tinmasin
dilda, sof erk yo'q tilda!

Baribir tenglashur davr kelib...
Elda!

Qo'nasan takroran g'uncha-taxtingga,
sog' va bardam bo'li!

1937-yil, Avaxta

TOJIXON

Quyosh hali yer yarmining nari yog'ida,
Kechagi yel tinmay o'ynar qir yonog'ida.
Qizg'ish bo'lib botar edi ufqdagi oy,
Uzoqlarda shildir-shildir oqar edi soy.
Hamma yoq tinch, to'rt atrofnı bosmishdi sukut,
Tiniq suvda baliq kabi yuzardi bulut,
U qo'zg'oldi. Mast bir ilon kabi to'lg'ondi.
Qosh ostida ikki yulduz pirillab yondi.
Bilmadimki, sahardagi Zuhra yulduzni
Haddi bormi tenglashgani ko'rganda yuzin?
Paxsa devor qorong'isi tutiltiran oy,
Endi hozir hayot kabi armon bilan boy.
"O'lgan paxmoq" deya so'kkan mushfiq onasi
Endi ko'rsin, o'sha Toji — gavhar donasi.
Endi ko'rsin, baxt qushini rostdan qo'nganin,
Endi ko'rsin, g'arib kulba gulga to'lganin.
Endi ko'rsin, mash'al bo'lib yongan ko'zlarin,
Jahon tinglar hayot bilan to'lgan so'zlarin:
"Ko'p qiynaldim qora tunning zulmi dastidan,
Quyosh kashfi nur etarmi bulut ostidan?
Men o'zimni bilmas edim, endi tanidim.
Men o'zimda hech na sezmay tek yotganidim.
Paxsa devor qorong'isi tutiltiran oy,
Endi hozir hayot kabi armon bilan boy.
Bu ufqni bilmas edi umrim nigohi,
Sen sababsan, yashashimga ey, ulug' dohiy!

Bilmas edim, odam shuncha aziz ekanin,
Kuchsiz edim. Ishonmasdim o'zim o'zimga,
Yosh olmagan kunim yo'qdi asti ko'zimga.
Endi topdim: halol mehnat meni qo'llarkan,
Jon kuydirsang, so'ngra saodat ham yo'llarkan.
Jon kuydirsang, so'ngra saodat ham yo'llarkan.
Bilmas edi bu ufqni umrim nigohi,
Sen sababsan, yashashimga ey, ulug' dohiy!"
Quyosh hali yer yarmining nari yog'ida,
Kechagi yel tinmay o'ynar qir yonog'ida,
Qizg'ish bo'lib botar edi ufqdagi oy,
Shildir-shildir oqar edi uzoqdagi soy.
Hamma yoq tinch. To'rt atrofda soqchiydi sukut,
U qo'zg'oldi. Mast bir ilon kabi to'lg'ondi:
Orqasidan Muhabbatxon opa uyg'ondi,
Shoshildilar. Apil-tapil kiyindilar tez,
Hatto hali uyg'onmagan xo'roz saharxez,
Qayga buncha och va nahor borishar ekan?
Tong yorishib qoldi. Hamon tinmayin, g'uv-g'uv —
Qilgan shamol ro'mol bilan olishar ekan,
Tomog'idan aylantirib o'rab oldi u.
Shu asnoda birin-ketin hamma kelishdi,
Xuddi o'sha shamol kabi tinmay yelishdi:
Tojixonning "laskarlari" shudgor etardi,
Brigadaning ashulasi ko'kka yetardi:
Ro'molimning uchini
Tugmaganga tugdiray.
Shudgorimni tamomlab,
Ko'zlarini kuydiray.
Hoy, akajon, hoy aka,
Mehnatingga baraka.
"Dalangni parvarish qil!" —
Dedilar Akmal aka.
O'rtacha bo'y, qorachadan kelgan juvoncha,
Uddaburron, ishbilarmon ko'zli juvoncha.
Hurmat senga! Sen Vatanning erka qizisan,
Osmonida porlab turgan bir yulduzisan.

Ilhomimning parisi sen, ravonligi sen,
Fikrlarning o'tkirligi, ayonligi sen.
Ilojim yo'q, bu onamni esimga olmay!
Ilojim yo'q. Chunki umrim — uning mevasi,
Butun kuchim, shoirligim — uning evazi!
O, dalalar, qirg'og'i yo'q, sohilsiz dengiz,
Qush uyg'onmay, Tojixonni shunda ko'rdingiz,
Chevar qo'llar o'ynab ketdi... Navbat kutmasdan,
U qo'ymadi, chinakchi qiz, kunni yutmasdan.
Zum o'ymasdan oq gullarga to'ldirib etak,
Quyosh kabi ochildi u — yashnagan chechak.
Oq bulutday to'lg'anardi kattakon xirmon...
Tojixonning yuragida umid va armon
Tog' bulog'i kabi baland, kuchli qaynardi
Bolasiga ichikkanday bo'lib yonardi —
Har fardini ko'z qarosi kabi saqladi.
Ko'nglidagi muhabbatni elga oqladi:
Odam qancha epchil, ziyrak va dov ekanin
Ko'rsatdi u — lola kabi yashnar deganim.
O, dalalar... O, bulutday to'lg'angan xirmon,
Tojixonning yuragida qaynaydi armon.
Mis bozbandga erishaolmay yig'lagan ko'krak
Nishon taqdi. Yashnab ketdi misli bir guldak...
Shu-da, axir, odamzodning baxtli bo'lgani!
Shu-da, axir, odamzodning nurga to'lgani!
Yulduzlardan ayirmaysiz yongan ko'zlarin
Jahon tinglar hayot bilan to'lgan so'zlarin.
"Umrim borki, xizmatindan charchamaydi hech,
Sutday sahar, nurli kunduz, baxmal kabi kech,
Tinmay sira shudgor etdim hamma yerimni,
O'g'it bilan birga sochdim kumush terimni.
Va'dam — va'da! Bajaraman! Ont ichdim senga,
Ey hayotga patta bergan ulug'im, menga —
Ayon bo'ldi hayotimning chinakam rohi
Sen sababsan hammasiga ey, ulug' hayot!"

1935-yil

USMON NOSIRGA NISBAT BERILGAN SHE'R

HAYOT¹

Men she'rimni bitirdim tongda,
Tun ham uyqusini bitirdi.

Ammo hayot bu kichik ongda
Hamon o'z darsini o'tardi.

Men charchadim. Mening o'rimni
Oldi navbatdagi ish dami.


Qalam tutgan kabi ko'rdim, men kabi,
Stolimda bir parcha nurni.

Hayot tinmas. Tinmay tong otar,
Hayot xursand zumrad yaproqda.
Har bitta so'z, har qon tuproqda;
Minglab hayot, minglab yil yotar.

¹ Bu she'ri men o'tgan asrning 60-yillarida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi poliklinikasida xizmat qilgan Saidnabi Vositxonov og'zidan yozib olganman. Uning aytishicha, bu she'r 30-yillarning ikkinchi yarmida qaysi bir jurnalda bosilgan. Lekin men bu she'ri birorta jurnaldan topa olmadim. Uni Usmon Nosir yozgan, deb aniq aytolmayman. (Naim Karimov)



DOSTON



Sen kelding,
Ruhimda yashash boshlandi,
Sevinchdan ko'zlarim
Behol yoshlandi.
Sen kelding,
She'rimga chechaklar taqding.

Sen kelding,
Va'damga vafolar malak,
Oppoq qo'lingnimi,
Siypalay o'pay?
Qora sochingnimi,
Siypalab o'ray?
Va'da etayinmi,
Senga deb falak?

Arzirdi
Falakni etsam hadya,
Afsus...
Fazo hali menga qul emas,
Mayli...borinni
Aylay armug'on
Garchi u,
Ajoyib, asl gul emas,
Naxshon, ey, yoshligim
Sevgilim ma, ol!
Ishqimning eng oliy
Tuhfasi — she'rim.
O'qi!
Lablaringdan to'yib emgani,
She'rimga berkindi
Ataylab mehrim.

Shoti bo'lib
Ko'kka chirmashgan nola,
Shunday poyadorki,

NAXSHON

Bag'ishlov

Bog'larga namozgar
Salqini tushdi,
Gullar nam bargini
Qayirdi asta.
Oftob ham suv ichar
Tog'lardan pastda,
Loladek qip-qizil
O't shafaq o'chdi.

Ko'z tutdim,
Ko'zlarim nigoron bo'ldi,
O, Dilbar,
Simbarim, yuzlari qirmiz,
Kiprigi ko'ksiga
Soya solgan qiz,
Ko'z tutdim,
Yuragim to'la qon bo'ldi.

Shabboda bolalarday
Gulzor uzra sho'x,
Oy fanorini
Yoqdi — qiz oqshom,
Yasha!..
Sen kelding
Sevgilim, Naxshon,
Suv qizi — suvsarim,

Kipriklari o'q,
Sen kelding,
Ko'nglimga suv kabi oqding.

Ko'rinmas tagi...
Tog' boshida kunning
Qonli etagi,
Yig'lar o'ngirlarda
Mungli shalola.

Kech kirgan
Changlarni ko'kka ko'tarib,
Poda ketdi.
Tindi cho'ponning nayi.
(Bilmam,
nechanchi yil,
Bilmam qaysi kun
Faqat esda qoldi
Achchiq bir biyi!)

Yakka, salqini yo'q
Noholi tolcha
Yomg'ir tomchilariga
Jom qilib bargin,
Istamasdan shu ham
Umrning tarkin
Yashash uchun urnab
Ovora edi:
Zangizo'rga¹
Marjon yoshim to'kildi,
(Zor ekanmi daryo
Mening yoshimga?)
Yuragimni tutgan
Choki so'kildi.
Qora kunlar tushdi
Sag'ir boshimga:
Otam ketgan,
O'chgan hayotim shami,

Hali silqigan yo'q
Go'ming kesagi,
Bu ham ketdi.
Ketdi dilim daldasi!
Mehribonim onam...
Jonginam onam...

Naylay,
Kiprigimning nozik uchida
Qayg'ularning nami —
Simob donalar?
Naylay,
Qalbim uzra
Qon emar Nishtar?
Naylay,
Yuragimda
Dard-ardonalalar?
Suv betida oqqan
Hay sap-sariq barg
To'xta, xayolimni
Olib qochmay tur.
Men ham ro'molimni
Tashlay azaga.
Men ham
Suvga shimg'iy,
So'ngra birga yur!

Oqsam, zora qalbim
Kuymasa deymam...
Dardim oshmasaydi
Men kelarmidim,
Alam halqumimdan
Tutmasa yig'lab,
Yuragimni hasrat
Nayzasi tig'lab,
Senga kelib,

¹ Yerevanda bir daryo

Ey, barg,
Roz aytarmidim?
Suzilgisi kelar,
Ko'zlarimni — yu...
Naylay,
Ko'z yoshiga
Hamroh bo'ldi u?
Mehribonim onam...
Jonginam onam...

Muncha katta ekan
Qora yer sabil,
Kiray desam bo'lmas,
Osmon ham baland,
Uchay desam bo'lmas,
Qay yerda iloj?

* * *

"Xufton. Qora bulut
Yashirgan oyni,
Bulut soyasini
Oqizardi soy...
Tentib shamol kabi
Gadodek bejoy,
Sarsonlikning
Siyoh yo'lga kirdim.

Har ertaning
yengil sabo yellari,
Har oftobning
To'ng'ich birinchi tig'i
Meni, bechorani
Topdi bewatan.
Yoki qayg'u bo'yi,
Yoki zor yig'i...
Kunlar — hasrat makon.
Dard. Alam. Qadar.

O'zligingni o'zrim bilmay.
Tilda "Oh..."
Bosh urgani topmay
Rahmdil panoh,
Umr toychog'ini
Ko'rdim samandar!
Yig'lab tog'lar o'tdim,
Haybatli yuksak.
Yig'lab bog'lar o'tdim,
Barglar sap-sariq.
Yig'lab kunlar o'tdim,
Tunlarni o'tdim,
Ilimmadi sira
Ko'zimga yorug'!

Haybatiga o'zi
Cho'milgan Masis¹"
Mastlar kabi hushsiz,
Ohimmi sezmay,
Demadi-ya xasis,
Ey, Masis — xasis,
"Kelgin, gadoyvachcha
Qo'ynimga olay!"

* * *

Bir kun
Yong'irli tun.
Qop-qora zulmat.
Chuchvaradek qaynar
Ko'chalarda suv.
Baxmal kabi qora,
Ko'rinmas osmon.
Butun yorug' jahon —
Dardli bir qayg'u.

¹ Yerevanda.

Shahar chekkasida
Men bilan ochlik
Hamdam bo'lib yurdi,
Ko'zim qoraydi.
Go'yo avvallari
Shunchalar cheksiz...
Cheksiz bo'lgan olam
Endi toraydi.

O'ching bormi yana
Vafosiz falak?
Jafolaring qursin,
Yuragim to'ldi.
Bir parcha dil bo'lsa,
Kuyib kul bo'ldi.
O'lar bo'lsam, o'ldim.
Etma ko'p halak!

Tun qorong'u. Zulmat?
Hol quridi. Uh...
Ochlik yengvordi.
Sovuqlik sezdim,
Etim "juv" etdi-yu,
Ko'zim berkildi.
Holsiz qo'lim bilan
Boshimni tutdim:
Peshonamdan ajab
Sovuq ter keldi,
Boshginamga qildim
Bir toshni bolish.
Sal o'tmasdan yurdi
Shabada g'ir-g'ir.
Qulog'imga ingan
Bir tomchi yomg'ir
Go'yo men faqirga
Aylardi nolish...

* * *
Shundan keyin,
Keyin, bilmayman sira,
Yoki azon edi,
Yoki yarim tun.
Tepamda bir qora
Soyani sezdim.
"Qizim, yotma, — dedi, —
Uyg'on, bolam, tur!"
Biron odam menga
Rahmi kelmagan,
Yumshoq gapni azal
Eshitmagandan,
Chidolmadim aslo,
Yig'lab yubordim,
Bu odamning
Muncha g'amxo'rligidan...
yelkasi
Shartta kir tujurkani
Olib, boshim bilan
Birga o'radi.
"Qo'rqma, qizim, — dedi, —
Qo'rqma oppog'im!"
Ketdik.
Yo'l-yo'lakay
Hech na so'rmadi.

Biz yurdig-u
Havo ochilib ketdi.
Yulduz marvaridlar
Sochilib ketdi...

* * *
Osmon shodligimdan
Toza va baland.
Havo muzdek salqin.

Yengil yel turdi.
Barglar ko'nglim kabi
Qaltirar tinmay,
Xavfim xayolimni
Qo'rqitib so'rdi:

"Kim u o'zi?
Meni eltar qayerga?
Yana kulfatlarga
Oshna etarmi?
Sochlarimni
Yelday to'zdirib qo'yib,
Oylar kabi yoshlik
Tashlab ketarmi?"

Odam indamaydi,
Tunday jim borar.
Uzoqlarni quvlar
Sirli ko'zlarim.
Aytay desam, qo'rqdim,
Churq etolmadim.
Til tagida qoldi
Aytar so'zlarim.

* * *

Fonar yonar edi.
Jivillagan nur
Ko'cha betkayida
Jimib yotardi.
Tunning qora sochli
Lo'lisi sekin
Araratdan o'tib
Pastga botardi.

"Kirgin, — dedi, — qizim,
Qo'rqma, kiraver!"
Oyoqlarim sira tortmasalar ham

— 126 —

Kirdim, "Ko'chalardan
Qoch endi qo'zim!"
Degan fikr bo'ldi
Menga zo'r hamdam.

* * *

Oddiy bir uy,
Xira jinchiroq porlar.
Tishda tunning daydi
Shamoli sarson.
"Qizim, tap tortmagin,
O'tir, o'z uying,
Qorning ochdir, — dedi, —
Mana jindek non!"

Ey, boshimni silab,
Qizim, degan, hey,
Ko'zlarimdan o'qi,
Dardim ko'p mening!
Qo'ygin qayg'ularni
O'zim chekayin,
Bundan bag'i
Jafo ulushim — mening
Degim keldi.
Ammo tilim bormadi,
Yurakkinam

Go'yo qo'rqib oqardi...
Mening xavfim bilan
O'chakishganday
Sirli ko'zlar menga
Oy!.. Tik boqardi.

* * *

Damlar soqov kabi
Mirg'ayib o'tar...
Birdan: — "Qizim, — dedi, —
Oppog'im, so'zla,

— 127 —

Nechun, nechun bo'ldi
Umring sargardon?
Nechun, nechun so'ndi
Qop-qora ko'zlar?"

Ko'zlarimdan tomgan
Tomchilar unga
Umrin ertagini
Aytib berdilar.

.....
Yana jimib ketdi.
Uning qarashi...
Xayollarim yana
Qo'rqib derdilar:
"Kim bu o'zi?
Nega shunday kechasi
Bu uy mizg'imagan,
Rohati yo'q hech?"

.....
"Qizim, charchagansan,
Tolgansan, erkam.
Orom olgin... uxla,
O'zi ham ja kech!"

* * *

O'quvchi!
Sen mening
Qadrin do'stim,
Sening ishqing borki,
Zahmat chekaman.
Shirin uyqularning
Bahridan o'tib,
Uzun kechalari
She'rlar bitaman.
Bu kun yana keldi
Chiroyli qiz — tun,

Hol-jonimga qo'yimay
Kirdi uyimga,
Ro'paramga asta
O'tirdi yana.
Teran ko'zi bilan
Singdi o'yimga.
Yana ilhom qalbni
Ignalab tildi.
Yuragimning
Choki so'kildi yana,
Yana ilhom qalbdan
Qon emar so'rib,
Qon tomchisi she'rim
Tikildi yana.
Yana "Naxshon" uchun
Sevgili she'rim.
Hikoyasi uning
Avj olsin tezroq,
Lekin shu yergaki,
yetdim bitiklab
Uzurim bor sendan
O'quvchim, jindak:
Orzum bor bitmak
Bir dasta doston.
(O'Imasam men uni
Rostlab beraman!
Hali bu bitiklar
Bir havas, xolos.
Hali havas bilan
Gullar teraman.
Balki bu guldasta
Rang-barang bo'lmas,
Balki raso bo'lmas boylami...
Sal bo'sh
Balki bahosi kam
Ko'p bo'lmas hali.

Balki... Ammo sen ham
Bilganingni qo'sh!..

Xuddi shu yerida,
Mening bilgimcha,
Naxshon, garchi bunday
Muruvvat ko'rdi;
Garchi, mehribonlik
Qildi u odam,
Garchi, ahvolini
Achinib so'rdi,
Yosh bola-ku, axir,
Qo'rqishi kerak:
"Ko'kragimda xuddi
O'lim o'rmalar".
"Xayolimda katta
Bir dev xo'mrayar".
Deya, yana ortiq
Qo'rqishi kerak.
Chunki u sirli ko'z
Qo'llarday sokin.
Allanarsalarni
O'ylaydi tinmay,
Naxshon qiynaladi
Ko'zi ilinmay...
Qanday qilib, axir,
Tinchiy oladi?
Naxshon axir hali
Bilmaydi uni,
Qanday mizg'iy olar
Ko'zlari suzgun,
Shunday uyda...
Shunday, ayniqsa, tuni?..
Buni men bu yerda
Yozib turmayman,
Chunki qahramonim:

"Tezroq bo'!" — deydi.
"Tezroq bo'lg'in, Usmon,
Tezroq bitirgin,
Yig'lab o'lib bo'ldim,
sevinay", — deydi.

Mayli! Men ham qo'ydim,
Faraz qil sen ham.
Dostonimda albat
Bular but bo'lar,
So'ngra sening ishqing,
Toza, pok mehring,
Suvdek suqing bilan
Shuhratim to'lar!

* * *

Xayollarim chigal...
Ko'zim yumulgan.
Shirin uyqu andak
Mizg'itgan ekan,
Ko'kragimga jindek
Shabada tegdi.
Cho'chib turdim,
Uyga bir xotin kirdi:
Sil bashara,
Ko'zi olchadek qora.
Ustida bor edi
Bamaziy ko'ylak.
Bir qaradi menga,
Qalbim titradi.
G'ijjak bilan chalgan
Mungli bir kuydek
Titroq ovoz bilan
Shivirlab asta
Darrov uy to'riga
Borib, odamga

Allanarsalarni
So'zlash tez-tez...

So'ngra nafas oldi,
So'ngra tinchidi.
Menga yana boqdi,
Men yana qo'rqdim.

Yaqin kelib menga
Kulib birpasda:
"Xush kelibsan, singlim,
O'ksima, oposh!" —
Dedi. Boshlarimni
Siladi yovvosh.

Ko'zlarimga tushdi
Xasta nigohi.

"O'ksik ekanimni
Kim aytdi senga?
Kimsan?

Qanday bilding?

Qanday bilasan?

Nega mehribonlik

Aylaysan menga?"

Degan bo'lib men ham

Ko'zni olmadim.

Sirli ko'zga boqdi.

U juvon ham tez,

Va u odam dedi:

"Xotinim Maro,

Bu ham g'arib...

Qizim, tortinma hargiz!"

O'zimda yo'q kabi

Ochoqlab ketdim.

Namxush kipriklarim

Yana ship-shilta...

Yana tomchi tomadi.
Yana ko'z yoshi.

Sevinch yoshi bilan
To'ldi dil shunda.

Endi sabo meni

Izlab topolmas,

Ehtimolki, oftob

Meni axtarar.

O'ngirlarga borar,

Tog'larni qarar,

Tepalarda tentib

Bog'larga borar...

Shodligimdan uyqu

Qochdi bir go'rga.

O'yim uzun...

Ko'zim yondi charaqlab.

Endi chiqmayman men,

Sabo yellari,

Yig'lab ko'chalarga,

Baxtim so'roqlab!

* * *

Sirli ko'zim uxlar,

Alla qil, otam!

Shirin tushlar ko'rgin,

Alla qil, Maro,

Meni ko'rgin, meni...

Sayr etgan bo'lay

Yuzlarimda shodlik,

Chamanlar aro.

Eh, uyqusiz tunning

Chiziq o'ylari,

Eh, o'ylarim —

Qanot yozgan kaphtarlar,

Eh, kaphtarlar — yumshoq,

Momiy oq parlar,
Eh, oq parlar,
Uching samo bo'ylari,
Uching o'ksik dilni
Birpas allalang!
Birpas o'ksik dilni
Somon yo'llarida
Qiyqirib uching.
Ovuntiring,
Ado bo'lgan ko'ngilni.
Uching! Uching! Uching!
Oq parlar, uching!

* * *

Shunday xayol bilan
Uxlab ketibman.
Tush aralash menga
Sezildi sharpa,
Boqsam: xom sut kabi
Ko'kimtir sahar.
Maro o'z-o'zidan
Munglanar satta...
Sekin bosh ko'tardim
Maro iljaydi:
"Ha, oppog'im, singlim,
O'rgilsin opang?
Hali erta, uxla,
Uxlaylik ikkov!
Zavodiga ishga
Jo'nadi otang" —
Dedi. Joni bilan
Rosa esnadi.
Peshonamni silab
Yonimga yotdi,
Men ham esnadim,

Ko'zlarimni yumdim,
Uyqu, kel beri!

* * *

Barglarda oqardi
Yoqut tomchilar,
Bulut chodir tikdi
Qahrabo erta.
Maro sochlariga
Qildek ingichka
Tig'i oftob indi
Jivillab erka...
Nafaslarim shuncha
Ichdan keladi.
Butun havolarni
Yutgudek bo'lib.
Oyna orqasidan
Osmon boqadi,
Zangor tozalikka
Ko'ksi zich bo'lib...

Maro jonim, turgin,
Turgin, aylanay!
Oftob yozdi
Oltin kokillarini,
Eh, qandayin dilbar
Bo'ldi bu erta,
Qara. Zangizo'rning
Sohillarini.
Qara, bulutlarning
Xil-xilasini,
Yashil o'rmonlarning
Salqinini ko'r.
Turgin, Maro jonim,
Turgin, o'rgilay,

Yelni taroq qilib,
Sochlaringni o'ri?!

Girgittoning bo'lay,
Tabiat pari,
Maysalaring gilam,
Ko'king soyabon.
Go'zalliging sening
Ajab bepoyon, —
Poy izimdan tortib
Ufqdan nari!..

Seni endi bildim,
Senga qaradim.
Nafaslarim — yel,
Ko'kragim — osmon.
Seni — yetimlikning
Ochiq vatani.
O'lim oldida ham
Hech unutmaman!

* * *

Kichik kulbachani
Aylab tark shartta,
Maro bilan
Qo'shni bog'larga chiqdik.
Satanglardek qaddi
Kekkaygan olma,
Maro bilan birga
Biz uni egdik.

Maro dedi:
“Singlim,
Qaysi yoqdansen?”
Dedim: “Osmon” degan
Kapa tagidan.

Dedi: “Sarkis menga
Aytdi “yetim” deb”.
Dedim: “Azob chekdim,
Yuragimni yeb”.
Dedi: “Otang o'lgan,
Onang ham o'lgan?”
Dedim: “Qarindoshim
Yo'q o'zga mendan!”
Dedi: “Ko'zlaringdan
Aylanay qo'zim,
Men ham g'arib, singlim,
Ko'nglim yarimta”.
(Umrin ertagini
So'yladi butun.)
Yana ko'nglim oqdi,
Ko'ksim ship-shilta.

* * *

Maro bilan rosa
To'lib dardlashdik.
Yuragimni endi
Bo'shatdim men ham.
“Umr shuncha qimmat,
Shuncha ozgina,
Shuncha qisqa damu,
Nega dard-u'g'am?”
Dedim: “Sahardagi
Bulbul ohidek
Umr qayoqlarga
Borar noma'lum”.
Dedi: “Sarkis dedi:
Jangga chiqamiz
Yoki yorug' jahon,
Va yoki o'lim!”
“Rostdan, Naxshon uka,
Tokay, bu xo'rlik?”

Tokay, boshimizda
Badhom ko'ika?
Qo'yki, ozod bo'lsin
Ohudek yayrab.
Osmon kabi toza
Bo'lsin bu o'ika!
Jangga chiqasanmi,
Qo'lingdan tutsam?
Naxshon, oppoq singlim,
Choparmi ko'ngling?
(O'z-o'zidan ortiq
Qaltirab ketdi.)
Ushla qo'llarimni,
Ber, uka, qo'ling!
Yuraginga botdi.
Maro so'zlari.

* * *

Hargiz ajab o'ylar
Ko'z ochib ketdi,
Bir nuqtada tindi
Nigoh kun bo'yi...
Endi chinakamdan
O'y bosib ketdi...
Benihoyat yurak
Tepkisi oshar,
Ichdan lavalardek
Olov yonadi.
Ararati buncha
Kibor boqadi,
Hayot buyukligi
Undami yashar?

* * *

Bilmay qoldim,
Kunning botganini ham,

Kaptar qoni kabi
Shafaq nim qizil...
Hamon yuragimda Maro so'zlari.
Ko'ksim tosh bosganday,
Rosa vazmin — zil...
"Maro, Sarkis muncha
Kech qoldi ekan?"
"Kelib qolar, Naxshon,
Shoshma, halzamon".
Kuta-kuta uni
Ko'zlar to'rt bo'ldi,
Kuta-kuta uni
Yurak bo'ldi qon.

Oy ham chiqdi,
Oydim Sarkis ham keldi.
Ko'nglim tilsim edi,
Bo'ldi charog'on.
Peshonamni silab
Bag'riga bosdi,
"Mehr" degan shunday
Kuchlimi rostdan?
Dedi: "Yaxshimisan,
G'aribim, qizim?"
Dedim:
"Rahmat ota".
(Ichim shuv etdi.)
Endi ko'kragimga
Shabada tegdi,
Ko'nglim o'ksib ketdi
Yana beizim...
Kiprigimdan bosdi
Xayol vazmini,
O'tgan kunlarimni
Esimga oldim.
O'ylarimni yana

Azaga soldim,
So'ramasdan sira,
Erkim izmini.

Maro dedi:
"Naxshon, yana xayolim?"
"Yana orziqarmi
Yurakchang sening?"
Sarkis ichar ekan
Obi yovg'onni
Shunda ko'zlarimga
Boqdi-da, mening
Avzoyimni buzmay,
Sekin, salmoqli
Ohang bilan dedi:
"Qizginam, Naxshon,
O'tkanlarga qayg'u
Chekma, oppog'im.
Chaman-chaman bog'lar
O'ldadir, boqsang!"

* * *

(Shetda birpas to'xta,
Og'ir bo'l, shoir,
Senga ularni men
Tanishtirayin.
Oshna bo'lsin Sarkes
Va dilbar Maro.
So'ngra hikoyamni
Davom etayin.)
"Sarkis, o'sha meni
Yomg'irli tunda,
"Turgin, oppoq qizim,
Yur!" degan kishi
Qirq beshlarga borgan.
Manglayi tirish.

Mehnat ko'chasida
Duv tushgan tishi.
Uzoq o'tmishda —
Yakka podachi.
Qayg'u naylariga
Jar bo'lib o'sgan.
Qochay desa
Umr azobin tashlab,
Yo'llarini zulm
Tog'lari to'sgan.

Gardanida ko'm-ko'k
Momataloq iz,
yelkasida singan
Ilg'ay qamchilar.
Olis tarixida
Xor bo'lib qolgan
Balki...ko'zlaridan
Tomgan tomchilar...
"Birparcha non" degan
Umr savdosi
Uni ko'chalarda
Sarson aylagan.
Qulluq — ibodatning
Jazo kishani
Aldab yaltiragan,
Ko'zin boylagan.

U o'z tili bilan,
Shunday der edi:
"Esdaliklarimning
Salobati zo'r,
Aytay desam
Butun kechmishlarimni,
So'zga kelmas tilim sira...
Mana ko'r.

Adash gapiraman
Halitdan
Ey, hush!
Qanotlanma uzoq,
Qanotlanma tush!
Sening tiling achchiq,
So'zlaring achchiq,
Achchiq alamlarni
Qo'zg'ab qo'lasan.
Eslaringa solib
Kuygan yoshlikni,
Ko'zlarimdan bir juft
Chashma o'lasan!"
Toshlar o'yar,
Tog'lar haybatini yorar?
Ko'z nurlarin to'kar
"Silliq bo'lsin" deb.
Uning umri shunday.
Uning umri — tog'.
Voyasiga yetgan
Sabri qayg'u yeb.

Maro uning joni.
Maro — xotini.
Ancha ziqroq.
Ammo dilkaş va tirik.
(Axtarsangiz,
Uning bor bisotini,
Har kulfatda chiqar
Sarkisga sherik.)

* * *

Kunlar o'tdi bir-bir.
Oylar sanaldi.
Maro bilan nuqul
Sen-senga o'tdik.

Dunyo gaplarini
Tinglab birishta
O'y-u fikrim o'sdi
Alanga — o'tdek.
Kunlar o'tdi bir-bir,
Suvday tutashib.
Kunduz — oqshom bilan,
Kecha — tong bilan.
Ey!... U kunlar,
Kunlar,
Menga ong bergan.
Eslar ekan,
Ko'ngil ketar ushalib...

* * *

Bir kun.
Tanho edim
Men o'zim yolg'iz.
Sarkis ishga ketgan,
Maro yo'q edi.
Shamol tezligida
Kirdi bir yigit,
"Maro qani?" — dedi.
"Maro yo'q", — dedim.

Ko'zlarimga tushdi
Nigohi qiyo.
Kim ekan bu?
Buncha chiroyli ekan?
Yuragimda paydo
Bo'ldi bir tikan,
Go'yo timdaladi...
Ayladi qiyma.

Ne bu?
Nega yurak hal-hal ezildi?

Nega shisha kabi
Chil-chil sindi dil?
Ne bo'ldi?
Nega, suri kiprikni suzdi?
Nega o'z-o'zidan
So'z yo'qotdi til?
Suqim oqib ketdi
Go'yo poyida.
Lablarim ham ajib
Qaltirab turdi.
Ko'kragimda xuddi
Bir balo yurdi,
Achchig'-achchig' botib
Yumshoq joyida,
Dedim: "Maro yo'q-ku,
Ne ishingiz bor?"
Dedi: "Shunday bekor,
Tortma sen ozor".
Dedim: "Ozori yo'q
Qatracha ham hech".
Dedi: "Xayr bo'lmasa,
Kelarman sal kech".
Ko'zlarini olmay
Tikildi menga.
"Ketma!" degim keldi
Sansirab uni.
Birdan shartta chopib
Chiqdi eshikdan.
Orqasidan chopdim.
Yurak tutuni —
Ko'z oldimni etdi
Tunday qop-qora;
Qalbim uzra sezdim
Bir jaroh — yara...

Qanday sezgi ekan,
O'ychan ayladi?
Xayolimni butun
Olib qochdi u.
Borlig'imni chambarchas
Boyladi.
Bilsam... bilsam keyin
Sevgim ekan bu!

* * *

Maro keldi. Aytдим.
U dedi: "Ko'rdim".
"Kim u yigit?" — dedim,
Marodan so'rdim.
Sezdi shekilli-da,
Kuldi ohista.
Lablarini ochib
Xuddi oq pista.

Dedi: "Ashot degan
Ishchi bir yigit.
Gazet, kitoblarga
Harflar teradi.
Yaqinda u o'zi
Maskovdan kelgan.
Bir xil paytlar, shunday,
Kelib turadi.

Nima balo, Naxshon,
Ne bo'ldi o'zi?"
Uyat og'ir keldi,
Boshimni bosdi.
Yana Maro dedi:
"Uyalma, qo'zim,
Aytkin nima bo'ldi?
Ne olib qochdi?"

Qalbim dedi:
"Aytkin, sevaman, degin" ...
Tilim tarjimonlik
Qilolmay qoldi.
... Shunday qilib, sevgi,
Birinchi sevgi —
Kishi bilmas qilib,
Ko'nglimni oldi.
Qani, Ashot bola,
Ko'zlari qora?
Qani, yuragimni
Ezguvchim mening?
Umrin bino bo'lib
Bilmagan edim,
"Sevgi nima?
Nega orziqar ko'ngil?"
Uni bir ko'rdim-u,
Birgina ko'rdim,
Ko'z o'ngimda bosar
Misoli butkul...
Kim ekan u?
Nega daragi yo'q hech?
Yozgi suvlar kabi
Tashlab ketdimi?
Qayg'um tog'dan oshar,
Yana qayg'uli
Chorrahada yo'lsiz
Tashlab ketdimi?
* * *
Bir kun
Otam Sarkis
Qayg'uli qaytdi.
Qovog'idan xuddi

Qor yog'ar edi.
Kungi odatini
Aylagan kanda:
Yuvilmagan
Afti kir, mog'or edi
Hech biron gap uni
Ovintirmadi.
Surunkasi "uh" deb
Oldi og'ir dam.
"Nechun? — dedi, Maro, —
Sarkis, munchalik,
Ortiq qayg'ulisan?
Tushdi qanday g'am?"
"So'ramagin", — dedi,
Entikib Sarkis.
Ancha vaqt sira
So'zlolmay qoldi.
Dedi: "Bu kun kunduz
Gorgen qamalgan".
O'pkasini qiynab
Bir nafas oldi.
Ki, qaytarib yana
Chiqarganda dam
Lampa p'ir-p'ir
Etdi-da, o'chdi.
Tanimayman kim u,
Ammo Sarkisning
Qayg'usiga sherik bo'ldim.
Qalb ko'chdi.

* * *
Allanechuk o'ylar
O'ylab, oxiri
Endi ko'zim andak
Mizg'igan ekan,

Birdan eshik
Qattiq taqillab ketdi.
"Maro", — dedim.
Sarkis: "Jim qizim", — dedi.
Birpas jimlik tushdi.
Pashsha g'ing etmas.
Borgan sari
Qo'rqib yurak o'ynaydi.
Yana taqilladi.
Yana va yana...
Sarkis turdi.
Yurdi. Uy o'rtasida
Qotib qoldi.
Bilmay qay vaziyatda.
Qorong'uda Maro
Ko'zga ko'rinmas.
Birdan Sarkis
"Kimdir?
Kim taqillatgan?" —
Dedi. Tashqaridan
Xirri bir ovoz
"Oching!" — dedi.
Sarkis eshikni ochdi,
Uy yoridi.
Lampa yoqildi. Uyga
Kirib keldi.
Uch nafar — politsiya.
Biri asta burab
Uzun mo'ylovin:
"Sarkis Abovyanmi?
Dengizdan dengiz —
Buyuk Armaniston
Hukumatining ismidan
Qamoq qildim".

Tintingiz!
Tintib ketdi.

Uyni ostun-ustun qildi.
Chidolmadim sira
Yig'lab yubordim.
Maro ho'ngilladi.
Bir azo turdi.
Sarkisga men
O'zni tashladim, mahkam
Quchoqladim siqib,
Boshimdan o'pdi.
Hech gap gapirmadi —
Tog'larday mag'rur,
Ko'llar kabi sokin
Tinch turib berdi.

Tintib bo'ldi,
Topmay hech biron narsa.
Gumon bilan qarab,
Sarkisga tikka,
U shop mo'ylov
Kulib: "Olingiz!" — dedi.
"Otajonim, otam,
Omon bo'li, omon!"
"Omon bo'lg'in, Maro,
Naxshon, siqtama", —
Dedi. Uni shartta
Olib chiqdilar,
Yig'lab xunibiyron,
Qoldik sargardon.
Qattiq tegdi dilga
Qo'nu qo'shning
Shivir-shiviri-yu,
Tek tomoshasi!..."

"Uyqu uyqu bo'lmay
O'tdi kechasi.
Oy oy bo'lmadi-yu,
G'am bergan bo'ldi.

Yurak laxta-laxta
Qon bilan to'ldi.
Muncha serqayg'ukan
Umr ko'chasi?
Yana ko'ngil uzra
Qayg'u, haromi,
Yana ko'zlarimdan
Sel ravon oqdi.
Nechun-nechun Masis
Xaroba boqdi?
Buncha o'gay bo'ldi
Hayot oromi?
Butun tuni bilan
Maroni biram
Hol-joniga qo'ymay
"Ayt", — deb zo'rladim:
"Nega Sarkisimni
Qamoq qildilar?
Nedir axir uning
Gunohi?" — dedim.
Dedi: "Singlim, Naxshon,
Asti so'rama.
Ko'pga kelgan balo,
Nedir chorasi?
Sen so'raysan, qo'zim,
Oh, bilsang edi,
Yuragimning qonar
Dardli yarasi...
Hali hokim ekan
Bu itvachchalar,
Yelkamizda tinmas
Hali ko'p gavron.
Kelar axir bizga
Umming gali.

Kelar axir bizga
Yelkamizda tinmas
Bahori davron.
Moskov, Petrburgda
Oktyabr yashar.
Oktyabrki, buyuk
Inqilob nomi.
Bizga panoh berar
Faqat qo'zg'olon.
Qo'zg'olsakki, sinar
Bu zulm dami!
Hozir butun vatan
Bezgak qo'ynida...
Shimarilgan zahmat
Xalqning bilagi,
"To dengizdan dengiz —
Buyuk davlatim"
Degan dashnoqlarga
O'lim tilagin!
Otang haddan ortiq
Sabri tugagan.
"Qo'zg'olsak-chi,
Vatan bog'boni bo'lsak,
"Umr degan mayga
Mast bo'lib to'ysak", —
Der edi hargiz.
Ko'rgulik ekan.
"Gorgen qamalgan" deb
Qayg'uli edi.
O'zi-chun ham
yegan ekan qayg'uni.
Qo'zg'ol, singlim.
Qo'zg'ol, zahmat armoni!
Ag'dar falakni ham
Soya bermasa!"

Satta yig'lab so'zlab,
Ezdi yurakni,
Uxlamasdan arang
Tongni yoritdik.
Ko'zga ko'rinnadi
Tong tabiati.
Go'yo uni ham biz
Darddan horitdik.

Ota-onam o'lib,
Shunday kuymagan,
Shunday ezilmagan
Edi yuragim.
Eh, yuragim,
Sirdosh, hamrohim mening,
Nahot, ochilmagay
Kulib tilagim?

* * *

"Tong oqardi,
Tongda turdi-yu, ketdi
Alamiga sira
Chidolmay Maro,
Bilmam qayga ketdi,
Kinga arz etdi?!"
Yana ko'nglim, qaro
Xayolim qaro.

Yana oftob botdi,
Yana kech tushdi.
Yana yurak qo'rqib
Bittalab tepar.
Qayerlarda sarson,
Tentib sargardon:
Maro nechun bunday
Ketdi bexabar.

Qosh qoraygan vaqt,
Qon qora qaqshab
Maro keldi yig'lab:
"Kunim qursin", deb.
"Ketdi boshimizdan
U g'amxo'r sohib,
Jaloldlarga, Naxshon,
Qiron kelsin", deb.
"Kecha Gorgen degan
Qamalgan uchun,
Zavod ishchilari
Yig'in qilishgan.
Shunda otang qattiq
Gapirgan ekan;
Uni qamaganlar
Faqat shuning-chun:
Bilmam, endi Naxshon,
Oxiri qanday?
Baxayr bo'lsa, go'rga.
Yomon bo'lmasin.
Bittagina panoh,
Qarindoshim shu.
Aytkin-aytkin, singlim,
Uh... ko'p ko'rmasin!"

* * *

"Shunday kunlar o'tar...
O'tardi kunlar;
Sevinch oshna bo'lmay
Umriga benom.
Maro menga ajab
So'zlar pishitdi:
Aytib berdi
Dunyo sirlarin tamom.
Ko'zlarimga go'yo
Oftob berkindi.

Uzoqlarni ko'rdim,
Ko'rsatdi Maro.
Bildim. Bilib yetdim
Bildim men endi,
Bildim oqi qaysi,
Qaysisi qora".

* * *

Yana kecha. Azon.
Kunduz. Namozshom,
Yana kunlar yelday
Uchib o'tdilar.
Borgan sari
Isyon etar bo'ldi dil,
O'z-o'zidan
Og'ir bosib ko'p o'ylar.
Nechun buncha xo'rlik
Bunchalik jazo?
Yoki vabo keldi
Etmakda xarob?
Yoki qon qusmoqchi
Sarg'ayib sarob?
Nechun-nechun bizga
Bunchalik azob?

Jivilladi mening
A'zoyi badan.
Yaxshi bilolmayman,
Nega, nimadan,
Go'yo nigoh o'qi
Tehsa osmonni,
Go'yo parchalasang
Yiqib tog'-toshni.
"Yo'qol, osmonimni
Qoraytma, bulut!
Yo'qol isyonimdan

Qo'rqmaysanmi, a?
Yo'qol, hayot bog'in
Xarob etgan sel!
Yo'qol, yo'qolmasang,
Xarob etaman!"

* * *

"May kunlari edi,
Yel yozar kurtak.
Olam bugun ko'm-ko'k
Ko'kargan edi.
Qora atlas kiyib
Egniga kecha.
Ko'chalarda sanqib
Tinch yurgan edi.
O'zim yakka, uyda
Maro yo'q edi.
Eshik taqilladi,
"Kimdir? Kim?" — dedim.
Hech kim javob bermas.
Qaltiroq turdi:
"Kimsan? Aytkin, kimsan?"
Qo'rqdim. Dim bo'ldim.

"Naxshon!" — dedi.
Xuddi Sarkisga o'xshab,
"Ota!" — dedim, ochdim
Darrov eshikni.
Kim bu? Yana o'sha!
Yana u keldi.
Sevgimnimi aylay
Izhor, qayg'umni?
Nigoh degan shuncha
Qattiq bo'larmi?
Yuragimga botdi

Misli nashtarday.
"Maro qani?" — dedi.
"Kep qolar" — dedim.
Yo'tal tutdi uni
Biram paydar-pay...

Sira, bechora-chi,
Dam ololmadi;
Darrov chakkasidan
Tutdim. To'xtadi.
Bosh ko'tarib menga
Tikildi yana,
Qotdim. Go'yo qonim
Sovib to'xtadi.

Unutibman o'zni,
Hushim qochibdi —
Qo'llarimni uning
Boshidan olmay,
Ushlagancha ancha
Turib qolibman...
(Eh, esimga uni
Qo'y shoir, solma;
Uni esalaganda,
Bag'rim yonadi.
Yuragimda achchiq
Dard yara ochar...
Uning xayollari
Ko'nglimda tursin,
O'sha yerda chuchuk,
Bamisli ochar.)

* * *

"Maro keldi,
Ko'zi soqqadek o'ynab.
Allanarsa uchun

Shoshilgan kabi.
Shodlik bilan qayg'u
Qo'shilgan edi
Uning yuzlarida...
Titradi labi.
Uyda kim boriga
Bo'lmadi hayron,
Ashot bilan
Qo'lin berib so'rashdi.
Keyin ikkalasi
Bir chetga borib,
Bilam, nimalami
Uzoq gaplashdi...

Bilarmikan mening
Pok sevgimni u?
Sevarmikan menday
U ham entikib?
Bilmay qoldim.
"Xayr", — deb eshikdan chiqdi.
Uch kunlik oy — ko'kda
O'roqday egik...

Maro chuqur xayol
Surib o'tirdi.
Gapirmadi. Men ham
Churq etmay turdim.
Bir qaradi menga,
Men sekin kuldim.
Kulmadi u,
Ko'zni ko'chaga burdi
"Naxshon, — dedi, —
Qara, oynadan bunday,
Tunmi ko'chadagi,
Qorong'umi, a?
Singlim, — dedi, —

Jonim, ko' r rosa, mana
 Butun jahon
 Shunday, qop-qora tunday!"
 "Uch kunlik oy
 Ko'kda kamoncha, singlim,
 Afsus...
 Sarkis otang
 Biz bilan emas!
 Balki azob chekar...
 Balki...
 Naxshon, ey,
 Balki hushdan ketgan —
 O'zini bilmas!
 Aytkin, oyga,
 Salom aytsin bizlardan.
 O'rni yo'qolmasin deb
 Sening uchun
 Maro bilan Naxshon
 Chiqalar — desin,
 Ko'rsatmakka mehnat
 Sutining kuchin!
 Chiqasanmi? Naxshon!
 Otang o'rniga,
 Otang mehri senga
 Kamar bog'lasa
 Chiqasanmi, qo'zim,
 Jangga men bilan,
 Bu kun — erta seni
 Jangga chorlasa?
 Tokay, umr degan
 Sabil bo'ladi?
 Tokay.

Boshdan nari
 Qolar ordona!
 Singlim, — dedi, — rostlan,
 Qo'rqma, mardona —
 Bo'ldi, bizni endi
 Zo'r jang kutadi!
 Qaltirama, Naxshon!
 Qo'rqma, oppog'im,
 Ol qo'lingga buni,
 Mauzer deydilar
 (Otish, o'q solishni
 O'rgatdi menga.)
 Buni! "yengsin" deya
 Do'stlar berdilar".
 "Qaltirama!" — dedi,
 Qaltiroq qochdi.
 Ko'zlarimni yongan
 Bildim sher ko'ziday.
 Marojonni rosa
 Quchoqlab o'pdim.
 O'zni sezdim kuchli
 Afsona devday!..
 Parcha-parcha singan
 Sabr kosasi...
 "To'xta, dedim, — qo'rquv,
 O'tib tashlayman!"
 * * *
 Bir kun o'tdi,
 Yana ikki kun o'tdi,
 Yozgi suvlar kabi
 Oshiqar yurak.
 O'rgilaman tilak
 Pok yuzlaringdan.
 Sevgim baxti senda

Aylanay, tilak!..
Ko'rsa edi, - deyman,
Sarkis Naxshonni,
Ehtimolki, birpas
Hayron qolardi.
Yomg'irli tun
Tushib esiga nogoh,
Balki uzoq ... tolib
Xo'p o'ylanardi...
Ko'rsa edi — deyman,
Meni shu choqda
Balki ko'kragiga
Bosardi mahkam...
.....
Turma zaxin tortib
Yotgan dadamning
O'rniga men, mana!
Jang, qo'yingga ol!

* * * * *
Sel yurdimi?
Yoki turdi zo'r quyun,
Yoki dengiz toshdi
Qirg'oqlaridan?
Yoki tog'lar sindi,
Yoqildi falak?
Olam to'ldi o'qning
Qirg'oqlaridan...
Daryo peshnoviga
Qo'shilgan suvdek
Men ham ko'chalarda
Sher bo'lib ketdim.
O'ng qo'limda
Maro bergan muazercha,
Chap qo'lim ham o'zi
Muazer bo'b ketdi.

Jangni senga
Tasvir etolmas tilim,
Trax-traxlatib
Bosdi pulemyot.
Shovqin-suron,
Qiy-chuv. To'polon,
Bos!
Ot!
Qaltraydi, agar, eslasam dilim".

* * *

Jon halpida hamma
Chopar ilgari...
Maro nima bo'ldi?
Ne bo'ldi, qo'zim,
Birdan shartta tushdi...
Yumuldi ko'zi.

Jigirim!.. Jigirim!..
Voy, o'layin, to'xta,
To'xta, ketmay tur.
O'rgilayin sendan,
Aylanay, Maro.
Sen emasmi eding
Shirin tush ko'rib,
Sayri jahon etgan
Chamanlar aro?
Qanday chiday olar
Naxshoning o'lgur,
Ketdingmi sen?
Voy-dod, men o'lay... Maro.
Voy men o'lay, singlim.
Jigirim! Jigirim!..
Eh, bechora.
Bag'rin siqimlab yotar
Ko'm-ko'k — momataloq

Bo'ldi yuzlari.
Muncha xunuk ekan,
Jonning talashi?!
Bir umrga yumdi
Qora ko'zlarin.
Yig'lab, hushim qochib
Boshim aylandi.
Men ham tappagina
yerga tashlandim.
Qo'ltig'imdan birov
Tikka ko'tardi.
"Kimsan? Maro o'ldi,
Ashotim", — dedim.
"Yig'lama, qiz Naxshon,
Yig'lama sira.
yenguv bizning qo'lda.
Vatan bizniki!..
Maro, qurbon bo'lgan.
Qurbonlar aro
Yoki bir yuzinchi
Yoki minginchi.
Chop ilgari!
Yugur!
Oldda jang. Naxshon!"
Shu fursatda
Birdan muazerim uchdi,
O'ng qo'limga xuddi
Tosh kelib tushdi
Juda qattiq...
Azob... Ketibman hushdan".

* * *

Shundan keyin...
Mening hushim yo'qolgan.
Boshdan boshqasini
Eslay olmayman.

Hushga kelsam:
Qo'lim og'ir... bog'langan
Hal-hal kabi...
Yerdan ko'tarolmayman.
Boshim uzra otam
Sarkis va Ashot.
Bilmay qoldim
Kunduz yoki kechmidi?!
Go'yo endi ko'rgan bo'ldim
Shu kezda
Dunyo ko'rib,
Ko'rgan bo'lsam sevinchni!
"Ota, — dedim, — Maro —..."
"Yig'lama, — dedi, —
Yig'lamagin, qizim,
Yig'lama, Naxshon,
Yuragimni sen ham
Tig'lama! — dedi, —
Omon bo'lgin, qizim,
Omon bo'l, bolam!
Mayib qo'lni ko'tar,
"Urta", — de erkam".
"Yenguv bizning,
Vatan bizniki, Naxshon", —
Dedi Ashot.
Go'yo shu so'zlari ham
Menga "sevaman" deb
Eshitilgandi...
* * *
Shodligimni sira
Qanday anglatay?
Ko'm-ko'k o'rmon kabi
Barg yozar o'yim.
Araratdan yuksak

Havaslarim bor.
Qaddim raso endi,
Sarvidek bo'yim.
Dardli yuragimda
Qayg'u o'rmini
Universitetning dongli
Klubi ochdi.
Dardni quvdim
Umrin darbozasidan,
Endi sarson bo'lib
Ko'chada qoldi!
Ayta bersam,
Tamom bo'lmas dafhtarim,
Uning har betida
Yoshim izi bor.
Eslab qo'ldan uchar
Xayol — kaptarim.
Har qanoti diydam
Nurini olar.
"Otam, akam", — deydi
Sirli ko'z otam,
Peshonamdan o'pgan
Bilan to'ymaydi,
U salomat hali...
(Eh, qanday yaxshi!
O'sha borki, ko'nglim
Yarim bo'lmaydi!)

Maro ketdi...
Shamdek lipillab o'chib,
Kuzgi yaproq kabi
Pirillab ketdi.
Baharga to'ymagan
Kapalak kabi,
O'lim nogahondan
Chiyillab ketdi...

Sevging hali bormi,
Hayotmi? — dersan.
Sevgim hali yashar
Ko'nglimda, o'lmas!
Faqat, sevguvchim yo'q.
Uni ham ko'mdim.
Shundan beri dilim
Xayolida mast...
Eslaringa tushsa
Yillarning ko'yi,
Yuragimni xuddi
Yegudek bo'lar.
Borlig'imda ajab
Qaltiroq turib,
Kipriklarim jiqqa
Yosh bilan to'lar...

Eslamayman deyman,
Eslamay deyman,
Mayib qo'lim yana
Solar esimga.
"Bir qo'lim-ku, mayli,
Jonni beraman! —
Deydi, — kurash bo'lsa, —
Qalbim ichimdan".

Xotima

Shabada bolalarday
Gulzor uzra sho'x,
Oy fanorini
Yoqdi qiz oqshom.
Yasha!.. Sen kelding,
Sevgilim Naxshon,
Suv qizi, suvsarim,
Kiprikleri o'q.


Umringning ertagin
Ayladim tamom.
Ammo o'zimni ham
Ichim chiqmadi.
O'qiganda, aziz o'quvchi,
Undan
Oz bo'lsa ham,
Xursand bo'lsa bo'ladi.

Tunlardan men ancha
Xafa ham bo'ldim.
Bir bet to'lg'izmasdan
Tong otib qolar.
Ertagindan hali
Ko'pi xom qoldi.
Vaqti bilan asl
Yaralar ular.
Mayli, umring sening
Tuganmas doston,
Yozgan bilan hali
Tamom bo'lmas u.
Kulma. "Shuginami?" — deb
Mendan, Naxshon!
Men o'ylagan she'rning
Boshginasi bu.
Faqat charchab qoldim,
Men shuni aytay,
"Shoir so'zi bu", — deb —
Yod qilib olgin.
Agar, Vatan senga
Yana "Chiq!" desa,
Kiprikларingni ham
O'q qilib otgin!...

1934-yil,
Yerevan — Samarqand



DRAMA



Bahori bog'imda barg yozgan
Bir g'uncha chechaklar... bir yumshoq.

(*Pauza*)

Kutgani, unga ko'z tutgani
Termilib qarayman yo'liga...

(*Pauza*)

Bir bahor oqshomi... oy kular suzgun,
Titirardi barglarning siyrak soyasi.
Bir ko'rdim. Bir ko'rdim, ayladi tutqun,
To'ldi ishq bilan dil piyolasi.
Ichdim xayolida mast-u beqaror...
Mehrim go'yo suvdek payiga oqdi.
U bo'ldi qonimga qon qo'shgan tabib,
U keldi, ruhimga sevinchlar taqdi,
U keldi, ishqimni aylab ixtiyor.
U keldi, nurlardan yaralgan malak
E, she'rim bo'lsaydi shu baland falak,
Aylardim butunlay unga bir yodgor.

(*Pauza*)

Atlas kiradi.

Fan agar topshirsa elchilik,
Uchardim shu baland fazoga.
Ko'rardim qaysi bir sayyora
Olamda baxtlidir bizchalik!
Erkimni yurakning ijodi
Emardi mazmunin hayotdan?
Unda ham odamzod avlodi,
Xalqimni she'rdan, mamotdan?
Unda ham sevilgan qiz-yigit
Shunday tinch va sarin oqshomlar
Kutarmi sevganin orziqib?

ATLAS

O'n bir ko'rinishli drama

Ishirok etuvchilar:

S.N. Mamontov — professor

Nozim Kamolov — dotsent

Orzumand — talaba yigit

Atlas — talaba qiz

Qumri — talaba qiz

BIRINCHI VOQEA

Sahna. Professorning kabinetiga kiradigan xona. Uzoqda skripka o'ynaydi.

Orzumand

Barglarda uxlagin tinch havo,

To baland surayyo zangori.

Qalbmida birgina she'r yashar,

O'yimdan yasanmish angori.

Xayoli — sevgimning visoli,

Mazmuni — oylardan oppoqdir,

Ko'nglimga har narsa yumshoqdir,

Go'yoki har narsa misoli.

U, umrim ufqida bir shafaq,

Injudir tonglarda oqargan.

Atlas

Shoirlik xayoli.

Orzumand

Ha, Atlas, shoirlik yuksakdir,
U jigar qonidir, u yurak.
U hamma. Har narsa, u butun,
U hayot, u kulgan muhabbat,
U ancha chalingan musiqa.

(*Pauza*)

Atlas

Xayol ham qissai hayotdir
Xayoldan haqiqat ro'y berib,
Tag'in biz unutilib ketmaylik!

(*Kuladi.*)

Orzumand

Yurakni unutmog mumkinmi,
Ishonki, hech qachon, oppog'im!
Unutmog ixtiyor aylamas
Bu yurak... zotan bu bechora
U xilda zo'r kuchga molikmas!

Atlas sekin bosh ko'taradi. Orzumand Atlasni bag'riga bosadi.
Ko'zlari shahlo qiz.
Ishongin!

Atlas Orzumandning tugmasini o'ynab turib, ko'kragiga bosh qo'ya-
di. Orzumand quchoqlab o'padi. Atlas boshini solintirib qoladi. Orzu-
mand uning bir qo'lini ushlab, tikilib qaraydi. Atlas betoqatlanadi.
Ha?

Atlas

Boray...
Ertaga imtihon.
Hovliga kuni bilan bormadim,
Darsdan so'ng majlisda...

Orzumand

Mayling, qiz.

Atlas

Ovora bo'lmang, siz.

Chiqadilar. **Professor** kiradi va ularning orqasidan qarab qoladi.

Professor

Naqadar shirindir — totlidir hayot,
Yoshlik, u bahorgi yaproqdir, sabiy.
Baxtlilar ... ishlari toqat-u sabot.
Baxtlilar tog'larning burguti kabi!
Bularni ko'rganda yurak ezilar,
Bahorning hidini sezgan qushlarday.
Eh... essiz yoshligim — soyaday o'tdi,
Arshiga yetmadi kalta tushlarday.
Qani u, qaylarda darbadar, sarson,
Ey!.. Uning ko'zlari ko'r bo'lgan...ojiz.
Va achchiq xayoli... u... uzoq endi
Kulmagan biron yo'l unga sevgan qiz.

(*Pauza*)

Qaysi yer, qaysi yoq va qaysi asr
Yoshlikning baxtini bu qadar pichmish?

(*Pauza*)

Yo'q! Hali yoshligim shamolday o'ynar,
Hali ijodidan tolmagan yurak!

Qaltirab o'tirib qoladi. Uzoqda yana musiqa o'ynaydi. Musiqaga
ergashib g'ingillaydi, tanish ismlarni takror aytadi: **Misha, Volodya,**
Tanya, Ira, Orzumand... Qumri... Shu payt **Orzumand** qaytib qaradi.
Professor sezmaydi, davom etadi.

Atlas

Orzumand (*hayron*). Atlas?! Semyon Nikolayevich... (*Yugurib bo-
rib, professorni ushlab, yuziga tik qarab qoladi.*)
Professor. Da, bolam... Yoshlikning sevgisi qaymaydi.

(Tez-tez yurib chiqib ketadi.)

Orzumand. Yoshlikning sevgisi qaynaydi?! Professor sevilgan? Atlasga sevilgan?

P A R D A

IKKINCHI VOQEA

Sahna. Boyagi. Kunduz. Parda ochilishi bilan professor, Atlas bog' tarafga chiqar edilar. Orzumand kiradi.

Orzumand. Bejiz emas ekan kechagi ahvol!

Ularning ortidan chiqmoqchi edi, Nozim kiradi.

Nozim. Salom Orzumand!

Orzumand birdan to'xtaydi, boshini quyi solib, birpas qotib turadi. So'ng **Nozimga** boshini ko'taradi.

Orzumand. Salom, o'rtoq Kamolov...

Nozim. Xo'sh?

Orzumand. Bekor...

Nozim. Hali hech kim kelgani yo'qmi?

Orzumand. Yo'q.

Qumri kiradi.

Qumri. Salom.

Orzumand. Qumri ...

Qumri. Ha?

Orzumand. Hech narsa. Mayli... Keyin...

Shu paytda bog' yo'lidan professor, Atlas qaytib kiradilar.

Nozim. Salom, Semyon Nikolayevich.

Qumri. Salom.

Professor. Salom, salom, bolalarim.

Qumri. Semyon Nikolayevich, bugun faqat uch kishi tayinlanganmiz, xolosmi?

Professor. Da. (*Hammaga.*) Bugun imtihonni yangi kelgan dotsent, o'rtoq Nozim Kamolov qabul qiladi.

Atlas. Men sizga, Semyon Nikolayevich...

Orzumand. Men ham.

Professor. Tobim o'yq, bolalarim. Ehtimol, ikki kishidan qabul qila olmasman.

Atlas. Semyon Nikolayevich...

Professor. Xorosh.

Orzumand. Atlas! Semyon Nikolayevich...

Atlas. Xo'p. Mayli...

Nozim. Biz fizika kabinetiga. (*Atlas va Qumriga*) Qani...

Nozim orqasidan Atlas va Qumri kiradilar.

Atlas. Yaxshiroq ushlang, Semyon Nikolayevich. Orzu akam bilan shart bog'laganmiz.

Chiqadilar. Orzumand jim, bo'rni ushlab, to'g'ri doskaning oldiga kelib, boshini solib turadi.

Professor. Nima bo'ldi, o'g'lim?

Orzumand....

Professor. Yaxshimas... Sen tanlasang, boshqalar ham tanlaydilar. Yaxshi emas!

Orzumand bu so'zlarni Atlas to'g'risida deb o'ylaydi. Professor sovuqqonlik bilan kitobni ochib, bir joyini unga ko'rsatadi.

Mana, buni ushla!

Orzumand kitobni oladi. Diqqat bilan qaraydi. Doskaga kitobdan ko'chirib yozadi; uni berkitib stolga tashlaydi. Ishlay boshlaydi. **Professor** ancha vaqt unga qarab turadi. Stoliga keladi. Jim. Keyin yuradi va **Orzumand**ning ishiga bir qarab, tepaga chiqadi. **Orzumand** uning orqasidan qarab qoladi.

Orzumand... Marhamat, tanlash huquqi sizga ham berilgan, professor! (*Asabiylashib ishida davom etadi.*)

Anchadan so'ng **Qumri** kiradi. **Orzu** indamaydi. **Qumri** sekin **Orzumand**ning ishiga qaraydi.

Qumri. Xalal bermadimmi? Voy o'lay, muncha qiyin masala.

Orzumand. Qiyin. Ataylab tayyorlangan masala, oson bo'ladi-mi? Lekin baribir yengaman!

Qumri. Ataylab? Nega ataylab? Kim senga ataylab?

Orzumand. Shunaqa! (*Ishida davom etadi.*)

Shu paytda professor kiradi.

Professor. Ha, qizim!

Qumri. Uje, Semyon Nikolayevich.

Professor. Xorosh. Seni kutib turishibdi.

Qumri. Byuro tayinlagan edim.

Qumri chiqadi. Professor diqqat bilan Orzumand ishiga qarab qoladi. Pauza. Nozim, Atlas kiradilar.

Atlas. Hormang, Orzumand. (*Atlasga bir qaraydi va yana ishiga mashg'ul bo'ladi.*)

Nozim, Atlas professorning yoniga keladilar.

Orzumand. (*birdan tez-tez ishlab ketib.*) Bo'ldi!

Professor. Xo'sh... (*Orzumandni o'z stoliga yetaklaydi.*)

Atlas sevinadi.

Orzumand. Bo'ldimi?

Professor. Bo'ldi, bolam. Qani, imtihon daftarchangni ber-chi?

(Pauza)

Qani, o'g'lim, nima qo'yay?

Orzumand....

Professor. Ayt, bolam.

Orzumand...

Professor. Ma, o'g'lim. Otlichno.

*Orzu oladi, yig'ishtirinadi, ketmoqchi bo'ladi.
Atlas ham shlyapasini kiyadi.*

Professor. (*Nozimga.*) Ish plani tayyormi?

Nozim. Deyarli tamom bo'ldi, Semyon Nikolayevich.

Orzumand. Xayr. (*Chiqadi.*)

Professor. Xayr, o'g'lim.

Atlas. Xayr, Semyon Nikolayevich.

Professor. Xayr, qizim.

Atlas. Xayr, o'rtoq Kamolov.

Nozim. Xayr, Atlasxon, xayr.

Orzumandning orqasidan Atlas ham chiqadi.

Professor. Slavno.

Nozim. Da, Semyon Nikolayevich.

P A R D A

Sahna. Bog'.

Nozim. Bu qora ko'zlar necha bahorni o'tkazdi, Atlasxon?

Atlas. Nimaga kerak? O'n to'qqiz.

Nozim. O'n to'qqiz. Umr ajoyib va chiroyli narsa. Bugun o'n to'qqiz bo'lsa, o'tgan kuni o'n ikki edi. Ertaga yigirma-o'ttiz... Yoshlik o'n to'qqiz. Qo'yib berish kerak, toki husni kamoliga yetib, o'ziga-o'zi xushtor bo'lsin, Atlasxon, bir narsa so'rayman, yo'q demaysizmi?

Atlas. Nima?

Nozim....

Atlas. Nima axir?

Nozim. Orzumand qanaqa yigit, a?

Atlas. Nima qildi?

Nozim. Bekor...

Atlas. Qanaqa bo'lardi, yaxshi student. Komsomol.

Nozim. Yaxshi deng? Uni hamma ham yaxshi ko'radi shekilli? Shunaqami?

Atlas....

Nozim. Siz ham yaxshi ko'rarsiz?

Atlas...

Nozim. Yaxshi ko'rarsiz-da? Hamma yaxshi ko'rgan kishini siz yomon ko'ramidingiz?

Atlas...

Nozim. Yo bularni so'rayaymi, achchig'ingiz keladimi?

Atlas...

(*Pauza*)

Nozim. Da, sevgi yoshlikning moli, Atlasxon. Men ham sut bilan bet yuvgan saharlardan tortib, lampaning nurini allaqayoq-larga olib qochgan kechalargacha, hattoki, shamolning barg bilan gaplashgani eshitilgan tinch kechalardan tortib, to lampaning nurini o'z yorug'ligiga qo'shib olgan saharlarga o'ylayman, yonaman. Men ham sevaman. Sevgini izhor qilish gunoh emas. Sevgi — hayotning ustuni. Kelganimga bir oy bo'lgan bo'lsa, o'shandan berli azoblanaman. Azoblaydi...

Atlas. Kim?

Nozim. Bilmaysiz. Uning o'yi, uning ishq bilan yashayman. Mumkin bo'lsa, yuragimni ochib ko'rsatar edim unga. Jindek bo'lsa ham shafqati bordir...

Atlas. Kim o'zi?

Nozim. Aytar edim, tilim bormaydi. Bilsa ediki u, dunyoni unga umrbod bermaganlar. Bir kun, bir kun kuchli zo'r bo'ron uni bir barg kabi pirillatib-pirillatib, enka-tinkasini chiqarib, chunon uradi, chunon xarob qiladiki, kelganini bilmagandek, ketganini ham bilmay qoladi. Bilmas ham ... eh, bilsa edi.

Atlas. Kim axir? Ajoyib odam ekansiz-ku?

Nozim. Shunday ajoyib. Ishq ajoyibdan o'tkazib, g'aroyib ham qilib yuboradi.

(*Pauza*)

Bir ko'ring! Kumushday yarqiroq

Oppoq oy ... o'sha ham oshiqdir.

O'sha ham kuyadi. Yonadi.

O'sha ham istaydi sevganin.

Shunchalik sargardon bo'lsa ham

Vaslga bir vasl bo'lmoqchi.

Qarang, u, qandayin dovdirab

Har yonga termilib boqadi.

Kuysa ham, yonsa ham, ko'rmoqni,
Qalbiga tasalli bermoqni.

Istaydi bechora... Uyatib,

Butun shu borliqdan uyatib,

Oshig'in izlashga har qachon

Kechasi chiqadi... Baribir

Qalbidan gurlagan ishq o'ti

Sharmanda qiladi... Ana, u

Sizdan ham uyatib, yuzida

Harirdek bulutdan pardani

Tashladi...

Bilsangiz sevganning mazmuni

Bundan ham ulug'dir. Kattadir.

Yonaman yog'dan ham battarroq,

Sevaman oydan ham orziqib...

Atlas. Kim axir? Kim? Muncha?

Nozim. (*chidamasdan Atlasga tashlanib*) U, u — sen. Sen, Atlas!

Atlas. O'rtoq Kamolov! (*Tislanadi.*)

P A R D A

TO'RTINCHI VOQEA

Sahna. Birinchi ko'rinishdagi joy.

Orzumand. Shuni yaxshi bilkim, men muhabbatni o'yinchoq qilib o'ynatgani qo'ymayman. Ko'nglimda allaqanday bir narsa senga o'la tipirchilaydi. Bilmayman, nuqul sening o'ying... (*So'zi kesitib qoladi.*) Agar...

Atlas. G'alatisiz, Orzu aka... Nega munchalik...

Orzumand. Nega?!

Atlas. Nima bo'пти? Biron narsa bo'ptimi?

Orzumand. Yana ortiqroq bo'lsinmidi? Sen professorni yaxshi ko'rmas eding-ku?

Atlas. Nega? Avval ham yaxshi ko'tardim, hozir ham, bundan keyin ham... Nega yaxshi ko'rmay?

Orzumand. Bo'lmasa... meni... aldagansan...da? Ey-y...da. Mayli. Zorim bor, zo'rim yo'q. Xo'p. Xorosho. (*Tez-tez yurib chiqadi.*)

Atlas. Orzu aka! Orzu aka!

Eshikkacha boradi. Orqasiga tislanadi. Nozim kiradi.

Nozim. Ha?

Atlas...

Nozim. Shunchalik azizmi? Nega o'zingizni xo'rlaysiz?

Atlas...

Nozim. Da. Yurakdan sevilasang yomon. Fransuz yozuvchisi Anri Beyl Stendal ko'p kunlar ovora bo'lib, sevgi to'g'risida ikki jild kitib yozmish. O'shanda ham yuragimning to'la tarjimai emas, debdi. Deydiki, asl sevgi — yurak sevgisidir. Bilasizmi, yurak! Men ham yuragim bilan sevaman, Atlasxon!

Atlas. O'rtoq Kamolov yaxshi emas. Men bilan munchalik ochiq bo'lmasligingizni so'rayman.

Nozim. (*tiz cho'kib*). Shuni biling, Atlasxon, sevgim yuragimnikidir. Jindek bo'lsa ham, u kaptardek o'ynoqlagan yuragin-gizda shafqat yo'qmi? Bilmadim, sizni ko'rdim, bir kuch qalbimni shishadek chil-chil sindirdi. Sizni ko'rdim, bir kuch borlig'imni hal-hal ezdi Sizni ko'rdim...

Atlas. Uyat emasmi, o'rtiq Kamolov? (*Narsalarini yig'ishtirib chiqqani yuradi.*)

Nozim. Atlasxon, inoning, inoning!

Atlas chiqadi, Nozim bosh solib qoladi.

Qiz, qizmisan qiz. Bir bossam edi bag'ringa.

P A R D A

BESHINCHI VOQEA

Sahna. Kafedra. Vaqt kechqurun. Birinchi planda professor

Nozim bilan, to'rtinchi Atlas o'tirib pianino chaladi. Qumri uning tepasida. Ancha vaqt so'zsiz kartina. Orzumand kiradi. Eshik olib bosib qoladi. Qumri, Atlas bosh egadi. Orzumand professorga bosh egadi. Shu kezda professor Atlasning tepasiga kelib, o'ynab turgan "Budyonniy marshi" ni to'xtatib, "Masha" kuyini o'ynatadi va o'zi turgan joyida o'yin tushgan kabi qimirlaydi. Bu ko'rinish Orzumandga qattiq ta'sir qiladi. Pastga tushib, kursiga o'tiradi. Nozim, Qumri ham jim tinglaydilar. Birpas shu kuy davom qiladi.

Nozim. (*professorning yoniga kelib.*) Semyon Nikolayevich (*tomosha zalini ko'rsatib*), yig'ilib qolishdi boshlasak ham bo'lar.

Professor. Xorosh! Mojno!

Professor kafedraga chiqadi. Atlas musiqadan tinadi. Hammasi o'tiradilar. Professor dokladini boshlaydi.

Quyoshning quvvatidan va issig'ligidan foydalanish asrlar bo'yi olimlarning boshlarini qotirgan. Bu ish faqat endi bizning davlatdagina rivojlangan boshladi...

Chiroq o'chadi. Bir muddatdan so'ng, yana yonadi. Professor dokladining oxirini gapiradi.

Endi quyoshdagi bu quvvat qayerdan paydo bo'lgan degan savolga javob beraylik. Birinchi, dunyoda eng birinchi quyosh bo'lganki, u hozirgi hajmidan kattaroq va kuchliroq bo'lgan. Nurlanish issiq modda tarqatadi. Modda hisobiga bo'ladi. Quyosh nurlanishda va issiq olish uchun modda sarf qilamiz. Uning kuchi haddan ortiq ko'pdir. Men buni sizlarga so'zladim. Hozirgi vazifa bu sariq kourni simlarda yugurtirish uchun urinishdir. Shu dokladimning texnika va quyosh bo'limida sizlarga mufassal so'zladim.

Chapak chaladilar. Professor pastga tushadi. Hamma xursand. Shu paytda birdan Orzumand to'liqlanadi.

Orzumand. Yo'q, hurmatli professor, siz dunyoning tugalishini targ'ib qilasiz. Noto'g'ri. Demak, quyosh nurlanishida modda yo'qotsa, u bora-bora tamom bo'ladi? Dunyo tamom bo'ladi? Yo'q, noto'g'ri. Bu antimarksistik farazdir. Ha, ha, noto'g'ri.

Hamma hayron. Orzumand boshini yerga solib qoladi.

Professor. (*kulib.*) Xorosh. Bu ilmiy faraz, o'g'lim. Ilmiy fan shunday deydi. Da...

Zarda bilan tez-tez yurib chiqadi. Ortidan Nozim chiqadi. Atlas boshini yerdan ko'tarmaydi. Atlas turib-turib chiqmoqchi bo'lib yuradi. Orzu bosh ko'taradi va Atlasga qaraydi.

Orzumand. Atlas!

Atlas to'xtaydi. Orzumand borib, so'zsiz unga qarab turadi. Atlas chiqadi. Jim.

Qumri. Yaxshi emas. Yaxshi emas, Orzumand.

Orzumand. Bilaman. Bilaman, yaxshi emas. Bilmayman, qanday kuch majbur etadi. Bilmayman.

Qumri. Voy, komsomol Farhod!

Orzumand. Kul, Kul, Qumri. Qah-qah urib kul. Nahot senda sevgi yo'q? Nahot bilmaysan. Nega sen komsomolga muhabbatning kuchini inkor qilasan? Hatto Marks: "Muvaffaqiyatsiz sevilgan kishi, o'zini kommunizmga ham baxtsiz his etadi", — degan. Nega siz inkor qilasiz? Nega tushunmaysiz?

Qumri. Sen tushunasan. Faqat sen bilasan. Faqat sen marksist. Baytalmon! (*Zarb bilan yurib chiqadi.*)

Orzumand. Bir ko'zgu bo'lsaki, dilni fol ko'rsa, ezilgan ruhinni poymol ko'rsa. Ehtimol... Ehtimol...

P A R D A

OLTINCHI VOQEA

Sahna. Birinchi ko'rinishdagi joy.

Professor. Bir vaqtlar, bolalarim, o'g'lim Mixail Semyonovich kommunist edi. Men uni yomon ko'rar edim. Proletariat inqilobining mohiyatini tushunmagan edim. "Men, men fan kishisi. Menga inqilobning darkori yo'q. Men fanni poymol qilishga bormayman", deyar edim unga. O'z o'g'lim bilan chiqishmas edim, hatto Petrogradan: "O'g'lingiz Mixail Kishki saroyini olishda proletariat inqilobining sodiq soldati kabi halok bo'ldi, ta'ziyamizni qabul qiling", — deb telegramma olganimda ham oyoq qoqqanim yo'q. Boshimdan kepkamni olganim yo'q edi. Endi — keyin angladim. Bildim. Xayoldan haqiqat yaratayotgan bu borliq menga tushuntirdi. Shundan keyin o'g'lim Mixailning o'rnini bosgani turdim. Tanamda jonim bor, to so'nggi tomchi qonimgacha proletariatning oddiy bir soldati kabi qolajakmiz!! Mayli, mayli, bolam... Professor o'zining borlig'ini ayamaydi. Kelajak jamiyat murabbiylarini hozirlash uning uchun sharaf. Da... Savetlar Ittifoqining mingdan

bir professori Semyon Nikolayevich mehnat qahramoni, bu mamlakat qahramoni, buni mamlakat biladi. Semyon Nikolayevich fan kishisi. Yagona sotsialistik mamlakatning grajdani. Nahot undan dushmanlik izlasalar?!

Qumri. Xafa bo'lmang, Semyon Nikolayevich!...

Professor. Nega xafa bo'lmay, qizim. Sira xafagarchilik yo'q... Lekin, nima uchun, nimaga?

O'ylanib qoladi.

Qumri. Badbaxt!

Professor. yengil... Ne xorosho... Da! (*Chiqib ketadi*)

Qumri. Biron balo bo'ldimi? Nima bo'ldi o'zi?

Atlas. Bilmasam.

Qumri. Nega bilmaysan? Bir sir bordir-da...

Atlas. Kim biladi... Itdan battar ko'nglim qoldi...

Qumri. Bir balosi bordir-da, kim bilsin. (*Chiqadi.*)

Atlas ancha jim qoladi.

Atlas. Qanday savol bo'ldi? Nega ko'nglim qoladi? Nega? Men uni sevaman. Yo'q. Sevar edim, nega rashk qiladi? Bu ish-larning nimasi muhabbat? Bilmayman. Sevmayman. Qaysi biri muhabbat? Qaysi biri toza? Qaysisi? Umi, yoki bunisi? Bilmadim. Harqalay bundan ko'nglim battar qoldi. Ha qoldi... Bechora Atlas!

P A R D A

YETTINCHI VOQEA

Sahna. Yakka Orzumand.

Orzumand

Ko'nglimni xarob ayladi ketdi,
Sevganimning kamoli shodlik bo'lmadi.
Bir bahor umriga to'ysa kapalak,
Mening qalbim sira unga to'ymadi.

Qani u kunlarki, oy kular suzgin,
Kutib yo'llarida termilgan edim?
Qani u kunlarki, bir ko'rib tutqun,
Shirin xayolida kayf surgan edim.

Eh... Qalbim, yig'lagan qon-qora qaqshab,
Eh, shirin damingni azasin tutgin.
Ko'z yoshim aylansin yurak qoniga,
Ey, umr, qayg'urgil, laxta qon yutgin!

Istadim u bo'lsin yupanchim mening,
Alam bo'ldi oshna, kulfat hamrohim.
Nafas ichdan kelar, aylanib o'tga
Osmonni ham teshar go'yoki ohim.

Uni dedim, kuydim, kuyib kul bo'ldim,
Uni dedim, hatto, o'zni unutdim.
Har narsani ko'rdim o'zimga dushman,
Har narsaga ortiq dushmanlik tutdim.

Nega xafa qildim professorni?
Kechir, rahbar, kechir, kechir, mehribon!
Bilmaganman sira, sezmagannan hech,
Bu yonda ekan g'alva, o, menda hijron.

Ovuntirolmayman ko'nglimni birpas
Oy o'tdi... ketdi birakay nigor,
O'ylamagan edim Nozim shunday deb,
U o'ylagan ekan munday kirdikor.

Kayf sur!

Safo sur!

Ishq bilan o'yna!

O'yna,

O'ynasang bos,

Men xursand sendan.

O'yna,

Kul,

Quvon,

Atlas oppog'im!

O'yna,

O'yna sevgim,

Bilmayman,

Ketdi...

Ketdi yig'latib...

Oylar o'tdi Nozim bilan

Ishq o'ynaysan sen!

Birga, bir uyda

Atlas!

Hoy, Atlas... Ha... Ha...

Orzumand, sevging bormi hali...

Sevgim hali yashar ko'nglimda, o'Imas!

Faqat, sevguvchim yo'q, u ketdi tashlab,

Sevgim xarob endi... Men bechora mast...

Ey...

SAKKIZINCHI VOQEA

Sahna. Professorning kabinetini.

Professor. Koyima, o'g'lim, koyima! Hali sening butun umring, yoshliging oldda. Shunga ham shunchalik o'zni oldirishmi? Muvaqqiyatsiz sevgan kishi o'zini har zamonda ham baxtsiz his etadi. Lekin Marks shu muhabbatni deb butun yashashdan, ijoddan voz kechish kerak degani emas! Odamzod tarixining Dante, Betxoven kabi kishilari ham muhabbatdan muvaqqiyatsiz

bo'lganlar. Ammo ularning yaratganlari... bilasizmi, Dantening she'rlari, Betxovenning musiqasini minglab, millionlab baxtli muhabbat kishilari o'qiydilar, tinglaydilar... Senga hech kim sevma demaydi. Marhamat, sev! Lekin... Kurash kunlarini eslasang... Bir qorong'i uy, o'rnidan turgani darmoni yetmagan bir kampir tir o'yinida izillab turib, emgaklab paypaslab allakimni axtaradi. Topdi. Yerga tayanib turib, peshonasidan o'pdi. Qurib-qaqshab ketgan ko'r ko'zlaridan so'nggi tomchi yosh to'kdi. Eng oxirgi qarindoshi hayotining ustuni — yakka-yu yakka o'g'lini frontga jo'natdi. Dom-u daraksiz ketdi. Kampir bechora o'g'lining fi-roqida tamom bo'ldi. Eslasang — onalar bolalarini, bolalar onalarini, erlar xotinlarini, xotinlar erlarini yo'qotadilar. Bu ham sevgi. Ammo, sevgilarning hijroni tun bo'lmadi. Hozir ulardan so'rasang, yig'lamay-netmay, senga butun tarixni aytib beradilar. Chunki ular biladilarki, shu bilan keng, yalpi ijodiy hayot qurish darvozasini ochdilar.

O'rnidan turadi.

Orzumandning oldiga keladi.

Qiziqsan, o'g'lim, bordi-yu, men ham sevilgan bo'lsam, nima qilardi? Rashk? Eskilar rashkning kuchi zo'r, deyдилar. Rashk qil, marhamat. Ammo hayotingni o'ldirma. U kerak. Xafa bo'lma, u ketgan bo'lsa, ketibdi. Og'ir, bilaman, o'g'lim, bilaman. Ammo, u sening butun umringni belgilay olmaydi. Koyima, tuzukmi, bolam?

Orzumand jim. Professor sekin-sekin qaraydi va yana boshini pastga soladi. Atlas kiradi. Orzumandni ko'rib qaytadi.

Qumri. Atlas! (*Chopib orqasidan chiqadi.*)

Orzumand. Men chiqay, Semyon Nikolayevich, men chiqay... Bilmadim... Ishi bor shekilli. Mening oldimda kirolmaydi. Men bor yerdan qochadi. (*Chiqadi.*)

Professor. Harqalay og'ir...Da. (*Chiqadi.*)

Birpasdan so'ng sahnaga orqama-orqa Atlas va Qumri kiradilar.

Atlas. Men sizni o'z onam deb bilaman, Qumri opa.

Qumri. Nima bo'ldi?

Atlas. Bo'lar ish bo'ldi. O'zimga-o'zim qildim. Gapiray deyma-u...

Qumri. Gapir, opasi!

Atlas. Men baxtimdan nolimoqchi, yo undan gina qilmoqchi emasman... Lekin...

Qumri. Ha?

Atlas. Gapirmoqchi ham emas edim...

Qumri. Gapir, opasi!

Atlas. Aldadi.

Qumri. Kim?

Atlas. Shunday odam ekanki, hech men o'ylagancha emas. Siz deb yurgan odam, endi san, deydi. Na o'qishda, na uyda hecham yordam bermaydi. Urishadi, so'kadi, xo'rlaydi. Onasi bir narsa desa, o'shani qiladi. Hatto bilasizmi, bir kuni bir balodan ham achchiqlangan edim, men bir narsa desam, onasi: "Kelin, og'zingizga qarab gapiring, xotinning urug'i Urgutdan kelgani yo'q, biz sizni orzu-havas bilan kelin to'yi qilib olib kelmaganmiz, o'z oyog'ingiz bilan kirib kelgansiz", — deb ta'na qiladi. Nima de-yishimni bilmayman. U qurib ketgur bo'lsa hech narsa demaydi. "Komsomol, komsomol deysan, mening xotinim bo'lgandan keyin, meni tinglashga majbursan, yoki komsomolni de, yo erni de", — deydi. Nima qilishimga hayronman, Qumri opa. Ketay desam ketolmayman. Men sizga aytganim yo'q, bolam bor... (*Yig'lab Qumriga tashlanadi.*)

Qumri. Voy sho'ring qursin...

Shu orada professor kiradi va bu holatdan ajablanadi.

Professor. Ha, qizim?

Atlas indamaydi, yig'laydi. Professor imo bilan Qumridan nima bo'ldi, deb so'raydi.

Atlas. Semyon Nikolayevich, men endi o'qimayman.

Professor. Nega, bolam?

Atlas. Shunday... Semyon Nikolayevich!
(*Yana yig'laydi.*)

Professor. Bekor aytibsan, qizim. Bekor aytibsan.

Atlas. Mumkin emas, axir, Semyon Nikolayevich. Majburman.

Yig'laydi, professor bag'riga bosadi.

Professor. Nima bo'ldi, bolam, nima bo'ldi?

Shu orada sahnaga Nozim kiradi. To'xtab qoladi. Atlasga qarab xo'mrayadi. Atlas professorning qo'lidan chiqib, ko'zlarini artib chiqmoqchi bo'ladi. Qumri yo'lini to'sadi. Atlas bir yondan o'tib chiqib ketadi. Nozim Atlas ortidan, professor, Qumri qarab qoladilar.

Nozim. Semyon Nikolayevich, aprel oyi uchun ish plani.

Professorga qog'oz beradi, professor oladi.

Professor. Xorosh.

Qog'ozni stol ustiga tashlaydi va Nozimga qaraydi

Ladno.

Qumri. Semyon Nokolaevich...

Professor. Da.

*Qumri Nozimga qaraydi. Nozim Professorga qaraydi.
Professor indamaydi. Nozim chiqadi.*

Qumri. Tushunolmay qoldim, Semyon Nikolayevich.

Professor. Nimaga, qizim?

Qumri. Birovlarning shaxsiy hayotlari uchun biz javobgarmi?

Professor. Yo'q! Do'stlarimizning hayotlari uchun, biz javobgar. Bizning umrimiz va o'limimiz ertaning yo'lida bo'ladi. Shuning uchun ham, biz do'stlarimizning hayotlari uchun javobgar.

Chiroq sekin-sekin o'chadi.

P A R D A

TO'QQIZINCHI VOQEA

Sahna qop-qorong'i.

Birovning papiros chekkani va birovning yig'lagani eshitiladi.

Papiros chekkan — Nozim, yig'lagan — Atlas.

Atlas. Yillar o'tdilar, yozgi suvlar kabi sarg'ayib faqat xayolgina qoldi. U ham endi o'z shirinligini boy berib, yuragingga igna urgandek sanchar bo'ldi. Ixtiyorsiz eslab ketasan kishi... Eslab dard orttirasan... Bu yurak shunday bebaho narsa ekanki, ham shodliging, ham qayg'ungni saqlaydi. Agar u ham senga ko'rinadigan bo'lganda, o'zligini aldatar, o'g'irlatar edi. Shunday emasmi? Men shu kunlarni o'sha bilan, yuragim bilan gaplashaman, dardlashaman. O'zinga-o'zim tasalli beraman. U eslab, orzu qiladi. Rostdan, agar eslasam, hali ko'z o'ngimda: sochla-

rim taralgan, ko'zlarimda sho'x va o'ynoqi kulgi, yuzlarimda nur kabi qizillik, yurak to'la armon. Orzu-havas... Eh... Men ayblimi? Nima gunoh qildim? Ko'zlarimda biron aybning rasmi bormi? Rasm solganmi gunoh. Men o'zim bilmayman. Ko'rolmayman. Odam uzundan-uzoq yerlarga nigoh tashlaydi, dunyo-dunyo narsalarni ko'radi-yu, nega o'z ko'zlarini o'zi ko'ra olmaydi? Sen qara, sen ko'r, ko'zim oqida sarg'ayish, qorachig'ida esa tolish, uyqusiz kechalar qoraytirgan mijja. Ma'yus, faqirona, keng dasht qorong'iligida yakka jinchiroq kabi nursiz nigoh, boshqa hech narsa. Hech narsa, hammasini sen xarob qilding! Hammasini sen aldading! Shirin so'zlariga uchibman. Yolvorganlariga inonibman, aldanibman. Qizligida yoqqan Atlas, ona bo'lgach, yoqmay qoldimi, lazzat topolmadimgi endi, a? (Pauza.) Mumkin bo'lsa, bolangni qaytarib berar edim. (O'ylanib qoladi.) Sengami? Yo'q? Bu meniki. Xayr. Atlas yo'q, sening Atlasing yo'q! Xayr, bir umr-li xayr!

Taraq etib eshik berkilgani bilinadi. Sahna aylanadi.

Yordamchi voqea: Kecha. Shamol, bo'ron.

Kuchli yong'ir. Chaqmoq. Projektor o'ynaydi.

Atlas o'tib ketadi. Sahnaga Nozim kiradi.

Ancha vaqt so'zsiz qoladi.

Nozim. Sen, men ko'rganlarning biridek kelding, ketding... Sayyohda makr bo'lmasa, damiga ov ilinarmidi? Sen, faqat va faqat nafsning moli eding. Men sendan boshqa narsa izlamadim. Nozimga o'z vaqtida bo'lak narsa darkor emas! U yashagani, rohat, lazzat ko'rgani kelgan va o'z baxtini izlaydi, o'z nafsini ko'zlaydi. (Pauza.) A? Nima? Nima deb g'uvillaysan, ey, tilsiz bo'ron? O'lim? Kimga? Mengami? Ha...ha...ha...ko'rmasanmi sendan ulug'roq, sendan ko'ra bahodirroq kuchlarni ham pisand qilmayman! Ha...ha...ha... (Atlas ketgan tomonga qarab.) O'z bahorini yo'qotgan, bechora kapalak! Bor! Borib ko'r! Baribir senga bahor qayoqda? Baxtining, umrining hokimi bo'lgan nafs egasi senga kulib boqarmidi? Bor, borib ko'r! Ha...ha...ha...

(Pauza)

Nima? Nima deysan? Tabiatning jinni bolasi — darbadar bo'ron, nima deysan? O'lim? O'lim? Menga, o'lim? O'lim? Ha... ha...ha...

Shu kecha Nozimni tomoshabinga o'z falsafasi bilan endi o'ldi, degan qilib ko'rsatish uchun uni bo'ron, chaqmoq aralash yong'ir tamom qilishi kerak.

P A R D A

O'NINCHI VOQEA

Sahna. Orzumandning uyi. Butilkalar yumalagan, kartalar sochilgan, iflos. Ma'lumki, bu yerda ichkilik bo'lgan.

Orzumand. Ketdi. Tamom ketdi. Qayg'urma, koyima, koyima! Yo'q! Unuta olmayman! O'ylab ko'ring! Uchganda o'yinchi, suqlanadigan, bo'yinlari ola kaptaring bo'lsa... Sen unga mehr qo'ysang... Ishq bog'lasang... Arzanda qilsang... Uni deb necha balolarga giriftor bo'lsang-u... (Pauza.) Ey... Yulduzlariga uchaman. Somon yo'llarga yetmay mushak yoriladi. Butun fazoni yong'in oladi. Orzumand kul bo'lib, to'zib yerga tushadi. Rahmi kelsa, u shuncha vaqtli do'stlik hurmati uchun bir dona kul gardini olib, oppoq ro'molchasiga o'rab, olib qo'yadi. Har ko'rganda bir eslaydi. Har eslaganda, bir yig'laydi. Ha... men uni o'zim deb bilardim. Men unda o'zinning rasmimni ko'rgan edim... Ha... koyima muhabbat... bu dard uzoq safarga chiqqan karvon kabi allaqayoqlarda iz qoldirdi... Sevgim xarob... Hey-y...

Jim qoladi. Shu fursat, kutilmaganda Atlas kiradi va bosh egib qoladi.

O, o'rtoq Rahimova, marhamat, marhamat... Mendan sizga tag'in nima kerak?

Atlas. Otimni unutingizmi? Orzu aka?

Orzumand. Ha? Unutdingizmi? Yo'q! Boshqalar unutgan. Boshqalar unutgan.

Atlas yig'lab tashlanadi.

Ketganda toza ketding. Endi bu iflos bilan qaytdingmi? Ha!

Atlas qattiq yig'laydi va dod deb eshikka tashlanadi, chiqadi. Orzumand sochlarini yulib qoladi, anchadan so'ng qaltirab gapiradi.

Nihoyat muhabbat o'ldi?! Shuncha azob, shuncha uqubat chekib, endi...endi o'ldimi? Yo'q! Yo'q! Atlas! Atlas...Atlasim! (*Eshikka tashlanadi.*)

P A R D A

O'N BIRINCHI VOQEA

Sahna. Birinchi ko'rinishdagi joy. Professor ishlab o'tiradi. Yarim kecha. Eshik birdan taqillaydi. Professor ochadi. Orzumand kiradi.

Orzumand. Kelmadimi?

Professor. Kim, bolam?

Orzumand. Atlas.

Professor. Yo'q, nima qildi?

Professor gapirib bo'lmay, Orzumand orqasiga qaytib ketadi.

Ayo-ya-ya-ya-yay...

Professor o'ylanib kelib, yana o'tirib ishlaydi. Anchadan keyin Atlas sekin kiradi. Professor sezmaydi. Atlas holsiz yig'laydi. Professor yugurib boradi.

Nima bo'ldi, bolam? Atlas, Atlas qizim!

Atlasni ko'taradi, suwaydi. Atlas sekin boshini professorsorga qaratib, og'ir bir vaziyatda so'zlaydi.

Atlas. Bilmaganman, sezmagaman, g'am yeli sochimni yozdi. U oq tarayman, deb to'zdirdi. Kechiring, men bilmadim. Dunyo to'la hasrat desa, inonibman. Eirkam, qo'zichog'im desa, aldانبman. Men undan toza muhabbat qidiribman. Ayta bersam, yuragimda dardim, tilimda nolam ko'p. Bilmasdan bosdim u tikanni. Bir kun... bir kun qo'ymadi, uyiga olib bordi. Undan keyin ... (*yig'lab*) majbur bo'ldim. Kettim. Semyon Nikolayevich...

TA
Orzumand kiradi.

Orzumand. Atlas! (*Chopib kelib Atlasga tashlanmoqchi bo'lad.*)

Atlas professorsorga tashlanadi.

Atlas. Otamsiz, dadamsiz, Semyon Nikolayevich!

Professor. Qayg'urma, qizim! Sevgilarning chuqur bir muammosi bor! U mehnat bilan yechiladi! Gohilar quruqqina "yashayman, sevaman, azob chekaman", deb o'zlaricha faraz qiladilar. Lekin uning fahmini bilmaydilar! Muhabbat hayot borligi uchun bor va kerakligi uchun kerak! U o'yinchoq emas! U bilan o'ynamaydilar, rostmi? O'zingga olma, xafa bo'lma, qizim! (*Atlasning sochlarini silaydi.*)

Orzumand. Ana keladilar! Keladilar! (*Pauza*) Ichimdan keladilar! Yangi tuyg'u, yangi his oqini ichimdan keladi! Semyon Nikolayevich! Men ota bo'laman! Atlas, oppog'im, unut hamma-sini, unut! Oy kabi yoshlik oldda, bulbul kabi biyron u hali ham g'am yeli sochingni to'zdirmagan. Men uni ishqim bilan oppoq qilib tarayman. Sevaman, sevaman, Atlas! Atlasim... (*Atlasga tashlanadi. Achaqlashadi.*)

Professor. Borajak jamiyatimiz odamning butun hislari va xususiyatlarining gullash davridir. Orzumand, ichingda yangi hislar oqini qo'zg'algan bo'lsa, umringni endi boshlabsan. Atlas, qizim, hali dostoning tamom bo'lgani yo'q. U oldda. Oldingda

chaman bog'lar, boqsang... (*Tomoshabimni ko'rsatib.*) Zamon-
doshlaringga va'da ber, bular bilan oshna bo'! Va'da berki, ona
bo'lasan, ona! Kelajak umrning dostoni endi bitiladi. Orzumand
sen ham bularni ishonir, ota bo'lasan, ota!

Orzumand. Tug'ilsin, ko'zlarim ko'rsin. Havaslarim ushalsin.
Begona emas. O'g'il bo'lsa Reva, qiz bo'lsa Lyusiya qo'yamiz
otini. Ha, zamondoshlar! Ota bo'laman! (*Atlasni achaqlaydi.*)

Professor. Bu ertak emas, hayot, bolalarim!

Tamom

...

...


...

...

...



TARJIMALAR



...

A.S. PUSHKIN

BOG'CHASAROY FONTANI

Men ham ko'plar kabi ko'rgandim bir

Ba'zilar endi yo'q, o'zgalar yiroq...

Sa'diy

Qovoq solib o'tirar Garoy,
Lablarida qahrabo chilim.
Dahshatli xon atrofida jim
Bosh egib tek turardi saroy.
Jimjit edi butun koshona:
Hamma xonning xafa yuzidan,
G'am va o'yli g'azab izidan
Payqar edi mubham nishona.

Ammo mag'rur sohibi farmon.
Qo'llarini bir siltab soldi:
Barcha sekin tarqaldi har yon.
Ko'shklar aro bir o'zi qoldi:
Erkin nafas oldi siynasi.
To'lqinlanib buzmay sukutni
O'ynab turgan ko'rfaz oynasi
Aks etgandan qora bulutni
Uning jiddiy manglayi ayon
Dil to'lqinin aylardi bayon.

U mag'rur dil ne g'am-la o'lmish,
Qanday fikr bilan band bo'lmish
Yana Rus-la jang qilmoqchimi,
Yo Polshani tang qilmoqchimi,
Nega xafa, ne u sindirar,

Va yo qonli o'chmi yondirar.
Yoki qo'shin aylamish isyon.
Yoki tog'li xalq janglaridan,
Genuyaning' nayranglaridan
Tashvish tortib o'ylanarmi xon?

Yo'q, endi u charchab qolmishdir.
Zerikmishdir shuhrat, zafardan.
Berahm qo'l ortiq tolmishdir.
Xayol uzoq qondi safardan.
Nahot, haram ichra xiyonat,
Nahot, yelga uchib diyonat,
Asira qiz jinoyat qilmish,
Kofirga dil inoyat qilmish?

Yo'q, Garoyning xotinlari hech
Bunday ishga jur'at qilmaslar,
Mungli nola chekib erta-kech,
Yomonlikni asti bilmastlar.
Oyna uyda o'sar gul kabi,
Oy yuzlari zindon ichra berk,
Zulm ostida go'yo qul kabi
Ularda had yo'qdir, yo'qdir erk,
Oy-u yillar navbatma-navbat
G'amgin oqin bilan o'tarlar.
Bildirmasdan yoshlik, muhabbat
Barchasini olib ketarlar.

Kunlar birday kechadir g'amda,
Bitta-bitta imillar soat.
Yalqovlik amr etar haramda,
Kam ko'rinar safo-farog'at.
Yosh juvonlar qayg'uga to'lib,
Bir ish qilib ovunmoq bo'lib,
Zeb berishib kiyim kiyishar,
Gaplashishar, o'ynab yeyishar.

chog',

Yoki o'ynoq suvlar sasida,
Toza, shaffof zamzamasida
To'p-to'p bo'lib sayr etishadir
Chinorlarning' zich soyasida.
Ortlarida ularni poylab,
Yovuz og'a yurar hay-haylab,
Undan qochish, berkinish bekor:
Hasadli ko'z, ding qulog'i bor.

U hiylakor, u laganbardor.
Har bir ishdan voqif, xabardor.
Unga ko'ta o'rnashmish mangu
Abadiy bir tartib saroyda,
Unga xonning izmi har joyda
Yagona bir qonundirki, u
Uni Qur'on farzidek bilar;
Dilda saqlar va bajo qilar.

Uning ko'ngli sevgi istamas,
U but kabi sezgidan mahrum,
U hissizlik domida mahkum,
Na ko'z yoshi, na yumshoq nafas,
Na ta'naga bermas e'tibor;
Asiralar chekkan oh-u zor
Unga asti qilmaydi ta'sir;
Pinagini buzmaydi taqdir;
Yolvorishga quloq solmaydi;
Haqoratni qilmaydi pisand.
Hech na uni yumshatolmaydi,
Tosh qalbi-la mag'rur va xursand.

Unga xotin odati ma'lum,
U ko'p ko'rmish, har yerda, har zum.
Hurlikda ham, erksizlikda ham
Yumshoq nigoh, ko'zlardagi nam
Ko'ngliga hech hokim bo'lolmas.

U ularga ortiq ishonmas.
Soch yozishib haram qizlari —
Asiralar cho'milar ekan,
Sehr sochgan go'zal yuzlari
Chashmalarda ko'milar ekan.
Qip-yalang'och qizlarga loqayd,
Bee'tibor termilib, shu payt
U poyloqchi hozirdir yana,
Tutqunlarga nozirdir yana.

Kechalari barg ham mizg'ir-u,
U uxlamas. Ohista bosib,
Har eshikka bir quloq osib,
Haram ichra tanho izg'ir u;
Kim dam olar, kim tushda ingrat,
Kim oh tortar — hammasin tinglar
Uydan uyga bildirmay ko'chib
Keng tashlaydi u makkor domni;
Birontasi sandirab, cho'chib
Tilga olsa begona nomni,
Yo mabodo do'stiga bir oz
Taqdiridan koyib, qilib roz
Dildagini aylasa izhor,
Balolarga bo'lar giriftor!

Garoy nega tinmay chekar g'am?
Chilim o'chib qolmish qo'lida.
Botinolmay dam olgani ham
Ostonada, xonning yo'lida
Imo kutib turadir og'a,
Ibo tutib turadir og'a.
O'yga botgan hukmdor turar:
Oldidag'i darcha ochiq, u —
Ko'ngli cheksiz qayg'uga to'lgan.
Indamasdan ohista yurar
Kechagina sevimli bo'lgan

Xotinlarin qabriga to'g'ri.
Xonni kutib, ko'rish ko'yida,
O'ynab turgan fontan bo'yida
Ipak gilam uzra o'ynashib,
Bir to'da sho'x qizlar osuda
O'tirishar edi yayrashib:
Bolalarday shodlanib, suvda
Marmar tubda ko'ringan liqqa
Gir-gir yuzib yurgan baliqqa
Termilishar edi yayrashib.
Gohilari unga ataylab
Oltin sirg'a tashlardi boylab.
Joriyalar atrofda xushbo'y
Sharbat tashib yurardi. Nogoh,
Shirin qo'shiq, jaranglagan kuy
Bor haramni ayladi ogoh:

Tatar qo'shig'i

I

Yig'i, jafolarni boshdan ko'tarib
Tangri o'zi berar har kimga ehson:
Baxtiyordir, yillar so'nggida qarib
Makka borib ziyorat qilgan inson.

II

Baxtiyordir Dunay sohillarini
Qoni bilan taqdis etgan bahodir.
Jannat qizi yozib kokillarini
Unga shirin kulgi bilan boqadir.
Ammo, Zarema, eshitgil tag'in,
Dunyo va rohatga bermay e'tibor.
Xuddi gulday seni o'z quchog'ida
Erkalatgan hammasidan baxtiyor.
Ular kuylar. Ammo qani u,

Muhabbatning yulduzi qani.
Haram ko'rki — kunduzi qani.
Qayda qoldi Zarema bonu?
Hayhot, uning gul rangi so'lmish.
Hayhot dili qayg'ug'a to'lmish,
Maqtovlarga solmaydi quloq,
Ko'zlarida yosh buloq-buloq,
Yashin urgan xurmodek qaddi
Bukilmishdir, yo'q endi haddi.
Hech na unga yoqmasdan qoldi,
Chunki, Garoy boqmasdan qoldi.

Vafosizlik qildi xon... Ammo,
Ey gurji qiz, sen-la chiroyda
Kim tenglashar? Hattoki oy-da
Da'vo qilsa, bo'lur muammo.
Chambar qilgan soching, ey pari,
Ilon kabi yurak yoradir.
Yarqiragan ko'zing javhari
Kundan yorug', tundan qoradir.
Dil dardini kimlarning sasi
Sendan kuchli bayonlay bilar?
Kimning shirin-shakar bo'sasi
Senikidan jonlilik qilar?
Senga bir yo'l ko'ngli tushgan er
Qanday qilib boshqa ko'rki der?
Lekin loqayd, zolim Garoyxon
Haramiga Polsha qizini
Asir qilib olgandan buyon.
Sendan nari tutib o'zini,
Xo'rlab seni tashlab qo'ydi-yu,
O'zi g'amgin, tunlar beuyqu
Tanholikni ayladi odat.
Qo'llaringdan ketdi saodat!...
Yosh Mariya yaqindagina
O'zga diyor ko'kini ko'rtdi:

Gulday ko' rki bilan qizgina
O'z yurtida gullab yururdi.
Faxrlanar edi u bilan
Qarib qolgan otasi har on,
Lobarim, — deb, maqtanuv bilan
Erkalatar edi bearmon.
Uning bola erki chol uchun
Qonun edi, tinglardi butun...
Cholni qiynar edi bir tilak:
Istardiki, bahor kunidak
Ochiq bo'lsin qizining baxti,
Xushnud kechs in umrbod vaqti,
Zarragina qayg'u ham uni
Ranjitmasin, — der edi u chol.
Hech bir narsa biron dam uni
Lanj etmasin, — der edi u chol.
Hatto erga chiqqanida ham
Xotirlasin, — derdi, — tush kabi
O'tib ketgan, g'unchaday sabiy
Betashvish-u beozor, beg'am
Yashnab yurgan qizlik chog'ini,
Osmonday keng erk quchog'ini.

Uning yumshoq sevimli nozi,
Tabiati, laziz ovozi,
Yonib turgan moviy ko'zlari,
Dona-dona shirin so'zlari
Bir-biridan jozibadordi;
Hammasida ajib kuch bordi.
Ochiq qo'lli, saxiy tabiat
Ayamagan edi borini;
San'at bilan u najib xilqat
Bezar edi gul diydorini.
Sehr to'la arfa bilan qiz
Uy bazmini jonlantirardi.

Amaldorlar, boylar izma-iz
Orqasidan izlab yurardi.
Yigit-yalang "Oh..." deb o'yida,
Azob chekar edi ko'yida.
Lekin go'dak bola edi u,
Ko'ngli ishqni bilmasdi aslo.
Na kam-u ko'st, na g'am, na qayg'u,
Yuragini tilmasdi aslo.
Otasining qasrida ozod
O'rtoqlari bilan o'ynab shod,
Uchar qushday hur va xursanddi.

U ko'pdanmi bu yerda bandi?
Bir vaqt tatar to'plari mahkam
Daryo kabi Polshani bosdi;
Xirmonlarga tushgan yong'in ham
Bu qadar tez yoyilolmasdi.
Kunpayakun bo'lib urushda
Yetim qoldi gullab yotgan yurt,
Bu berahm yovuz yurishda
Faryod soldi qonga botgan yurt.
Butun atrof qayg'uga toldi:
U kulgilar, o'yinlar bitib,
Erkalatgan qo'yinlar bitib,
Hashamatli saroy bo'sh qoldi.

Mariyaning uyi jimjit, bo'sh...
Uy ma'badi ichra bir to'da
Mo'miyolangan o'liklar xomush
Rohat qilib, sovuq uyquda
Knyazlikka maxsus nishon-la,
Oltin toj-la, haybatli shon-la
Yotar ekan, u yerda yana
Paydo bo'lmish yangi sag'ana...
Ota go'rda, asoratda qiz.
Koshonada baxil bir voris

Amri farmon berib yuradir,
Tavqi la'nat ostida, beor
Xarob bo'lgan yurtni aylab xor
Badnom etib, yerga uradir.

Hayhot! Saqlar qo'ynida quldek
Bog'chasaroy yosh knyaz qizin,
Erksizlikda yosh to'kar, guldek
Sarg'aytirib Mariya yuzin.

Ayaydi u baxtsizni xon:
Uning munggi, u chekkan fig'on
Uyqusini bezovta qilib,
Garoyga hech bermaydi omon.

Bechoraga xon rahmi kelib,
Qat'iy haram qonunlarini
Yumshoq tutar unga ataylab.

Tund poyloqchi na kun, na tuni
Qiz oldiga kirmaydi poylab;
Yotar paytda joyiga uni

Uning g'amxo'r, parvoli dasti
Olib chiqib yotqizmas asti;
Mariyaga nigoh tikmakka
Botinolmas uning kir ko'zi;

Joriyasi bilan qiz yakka
Xilvat uyda cho'milar o'zi;

Asiraning g'amgin oromin
Buzib qo'ymay, bo'lmay, deb zomin

Xon o'zi ham qo'r qar ichida:
Haramning bir yiroq burchida

Unga yashash ijozat etgan,
Go'yo, unda samoviy bir jon

Yashiringan, uzlatga ketgan.
U yerda hech tinmasdan hamon

Aziz qizning oldida butun
Chiroq yonib turar kun-u tun.

U yerda qiz ko'nglin yupatib
Mas'ud kechgan o'tgan zamon-la
O'z yurtini dilga eslatib,

Umid yashar yuvosh imon-la.
U yerda yosh to'kar tinmay qiz

Kundoshlardan narida, yolg'iz.
Lekin atrof g'arq bo'lmish yaksar

Tentaklarcha bir ishrat ichra.
Mo'jiza-la ajralgan hujra

Yosh sanamni berkitib asrar.
Ozg'in o'ylar qurboni u dil,

Buzuq kayflar orasida ham,
Bir garovni saqlaydi har dam

Bir ilohiy his-la muttasil...

Tun qoraydi, bosdi qorong'u
Tavridaning gul bog'larini;

Bor olamni mast qildi uyqu,
Gullar yig'di yaproqlarini,

Uzoqlardan bulbul zorini
Eshitaman: oy diydorini —

Ko'rsatadir yulduz ketidan;
Ko'm-ko'k, toza osmon betidan

Nur to'kadir gulzor bog'larga,
Vodiylarga, o'rmon, tog'larga.

Bog'chasaroy ko'chalarida
Kechki paytlar oq ro'mol o'rab,

Oppoq oydin kechalarida
Bir-biridan hol-ahvol so'rab,

Gaplashishib o'tirish uchun
Oddiy tatar xotinlari tek

Lipillashib yengil soyadek
Uydan uyga kezishar butun.

Saroy tingan, uxlagan haram
Tinch rohatga cho'mib parvosiz:

Tun tinchligin biron narsa ham

Buzolmaydi. Sodiq muhofiz
O'zi kezib chiqib bor-yo'qni,
Yotmish; ammo tinch qo'ymas tashvish
Hatto unda uxlagan ruhni.
Xiyonatni kutib xavflanish
Orom bermas asti ham bunga:
Goh kimningdir shitirlagani,
Goh birovning pichirlagani,
Goh qichqiriq eshitilar unga.
Bekorlarga aldanib birdan
Sapchib turar, qaltiroq bosar;
Atrofiga tinch quloq osar...
Hamma sokin, sas yo'q bir yerdan:
Marmar hovuz ichra o'ynashar
Faqat bulbul dili poralar,
Faqat shirin kuy favvoralar
Sevimli gul uzra kuylashar...
Bular uni uzoq band etar,
Yana takror uyquga ketar.

Qanday xushdir bilguvchilarga
Sharq kechasin qora chiroyi!
Payg'ambarni sevguvchilarga
Qanday shirin boqadir oyi!
Ularning' uy-o'choqlarida,
Maftun etar gul bog'larida,
Oy ostida sirlarga to'lgan,
Tinchlik bilan hamsuhbat bo'lgan,
Shahvat bilan dard-u farog'at
Tashib yotgan haramlarida,
Kechalarning tinch damlarida
Qanday ko'rk bor, qandayin rohat!
Xonning hamma xotinalari tinch
Uxlar edi, bittasi notinch,
Uxlay olmay, o'midan turib,
Eshigini ochdi-yu, asta,

Bitta-bitta ohista yurib
Tashqariga chiqdi birpasda...
Qushday mudrab, ko'zi ilinib
Qari og'a oldida yotar.
Agar bu ish unga bilinib
Qolsa, umri qayg'uga botar...
Oh, u cholning qattiqdir qalbi.
Yalinganga bermas e'tibor:
Uyqusi ham aldamchi, ayyor!
Yonboshidan sekin, ruh kabi
Sezdirmasdan o'tib ketdi u.
Bir eshikka borib yetdi-yu,
Titrab sekin ochdi qulfini...
Ichkariga kirdi, ham uni
Sirli vahm bosdi shu zamon.
Ajablanib boqdi to'rt tomon:
Shamdon yonar, to'kar so'nik nur,
Yaltiraydi burchakda bir but,
Qiz yotadir, yuzida sukut,
Ko'ksida xoch porlab ko'rinur.
Ey gurji qiz, bular hammasi
Eslatdilar senga moziyni,
Go'yo o'tgan kunlarning sasi
Aytgan kabi bo'ldi rozini.
Ko'z o'ngida tinch rohat bilan
Uxlab yotar u knyaz qizi,
Qizlikka xos harorat bilan
Anor kabi qizarib yuzi.
Oshkor ekan sarin yosh izi,
Zaif kulgi ostida yonar:
Yomg'ir yuvib, o'chib ketgan rang
Oyning xira nurida arang.
Xuddi shunga o'xshab tovlanar.
Go'yo, jannat o'g'li osmondan
Uchib tushib, uxlab yotganday.

Asiraga achinib jondan

Uyqusida yig'lab yotganday...

A, Zarema, ne bo'ldi senga!

Chidolmadi, qalbi siqildi,

Beixtiyor yerga yiqildi.

Va yalinib: "Achingil menga.

Rad etmagin arzimni!" — dedi,

Uning so'zi, u chekkan fig'on

Uxloq qizni cho'chitib shu on

Tinch uyqudan uyg'otgan edi.

Knyaz qizi turib, oldida

Begona bir xotinni ko'rdi;

Ko'rqib, unga qarab oldi-da,

Hayajon-la qaltirab so'rdi;

"Kimsen? Tunda, tanho nechun sen

Bu yerdasen?" — "Senga keldim men

Meni saqla; taqdirim uchun

Menga faqat qoldi bir chora...

Rahm aylasang, yo'qolsa zora

Umrim ufqin qoplagan tutun.

Baxt qo'ynida ko'p huzur qildim,

Na qayg'uni, na g'amni bildim...

O'tdi orom bergan u soya,

Tingla, halok bo'lmayin zoye,

Men bu yerda tug'ilganim yo'q,

Mening yurtim yiroqdir, yiroq...

O'tgan kunlar, u dardli firoq,

Yodimdadir hali ham to'liq.

Yodimdadir gullagan bog'lar,

Osmon bilan o'pishgan tog'lar,

Tog'dan oqqan irmoqlar, soylar,

O'tib bo'lmas o'rmon-to'qaylar;

Yodimdadir kechgan saodat,

O'zga qonun, o'zga bir odat.

Ammo, qanday taqdir-la nechun

O'z yurtimdan ayrilganimni,

Bu yoqlarga qayrilganimni

Bilmayman men; faqat, qora tun

Yelkan uzra turgan odam-u

Hamda dengiz esimda, xolos...

Shu choqqacha qo'rqinch va qayg'u,

Alamlardan men edim xalos.

G'avg'odan chet tinchlikda xandon

Haram ichra gullab yurardim,

Itoatli ko'ngil-la har on

Ishq darsini kutib turardim;

Bu yashirin orzularim tez

Ushaldilar. Qonli urushdan

Charchab dahshat sochgan yurishdan

Qaytib keldi haramg'a xunrez.

Ta'zim qilib, xonning oldiga

Biz hammamiz chiqdik. U menga

Diqqat bilan indamay, so'zsiz

Ochiq, nuri nazarin soldi,

So'ngra, meni chaqirib oldi...

Shundan beri biz kami ko'stsiz

Tinim bilmay, rohatda masrur

Nafas oldik baxt bilan har dam;

Biron yo'l ham na fitna, na dam;

Na tuhmat-u na shubha, qusur,

Na azobli rashkning sitami.

Na xafalik va na alami

Bizga tashvish sololmagandi,

Vaqtimizni ololmagandi.

Mariya, sen duch kelding unga.

Bir ko'rishda xush kelding unga...

Shundan berli ko'ngli toraydi.

Jinoyatli o'y-la qaraydi!

Xiyonat-la yetkazib ozor

Eshitmaydi hech xitobimni,

So'ramaydi asti tobimni.

U noladan, fig'ondan bezor;

U eskiday menga topinmas,
Menda endi eskiday boqmas,
Na shirinso'z va na ko'hna his,
Go'yo bitgan, go'yo topilmas.
Jinoyatga bedaxlsan sen,
Men bilaman, ayb senda emas...
Tingla meni: chiroyliman men.
Menga hech kim tenglasha olmas.
Bir sengina haramda butun
Raqib bo'la olarding menga:
Ammo, aytib qo'yay men senga,
Tug'ilganman ehtiros uchun,
Sen men kabi seva olmaysan;
Sovuq ko'rking bilan sen nechun
U bir ojiz dilni qiynaysan?
Na haqing bor, na hadding sening,
Qo'y Garoyni menga; u mening.
Bo'salari yonar betimda,
Issig'i bor hali etimda,
Menga qat'iy qasamyod etgan.
Borlig'im-la ko'pdan armonin.
O'y va xohish, butun farmonin
Birga qo'shgan, ittihod etgan:
Xiyonati meni o'ldirar,
Xazon etar, gulday so'ldirar...
Men yig'layman: ko'rgin, tizzamni
Buqdim endi qarshingda, mana,
Sarg'aytirma mening' yuzimni,
Yalinaman, qaytarib yana
Sevinchimni, oromimni ber.
Ul burungi Garoyimni ber...
Menga zarra etma e'tiroz:
U meniki: senga asirdir,
Yo'llaringda ko'zi basirdir.
Xoh tahqir-la, xohi qilib roz,
Ne istasang, aylagil shuni,

Ammo, bezdir o'zingdan uni.
Ont ich... (Garchi, men Qur'onni deb,
Muhabbatni hamda xonni deb,
O'z dinimni otgan bo'lsam ham,
Ammo, mening onamning dini
Sening dining edi) kel, meni
Xalos ayla, yod etki qasam,
O'sha dil-la ont ich Garoyni
Zaremaga qaytarmoq uchun...
Ammo tingla: esla xudoyni,
Gar, yo'q desang, xanjarning' kuchin
Ko'rsatmoqqa qodirman oz-moz,
Zero, mening vatanim Kavkaz".
Shu so'zlarni aytdi-da, birdan
G'oyib bo'ldi darrov u yerdan,
Ta'qib etmoq uchun izma-iz
Botinolmay, dov qilmay dili,
Orqasidan chiqolmadi qiz,
U azobli ehtiros tili
Beayb qizga asti ma'lummas:
Ammo, uning ovozi, u sas
Sal anig'u ajoyib edi,
Qo'rqinch edi, g'aroyib edi.
Qanday yoshlar, qandaydir faryod
Bu xo'rlikdan aylaydi ozod?
Ne kutadir uni? Nahot, u
Qolgan achchiq yosh kunlarin, bu —
Asoratda o'tkazadir xor?
Ey xudoym, ey parvardigor!
Agar Garoy baxtsizni mangu
U mahbusday unutsa edi,
Yo, g'amlardan xalos aylab u,
Tez o'limga yuz tutsa edi,
Qanday shodlik bilan g'am to'lgan
Bu jahonni otar edi qiz!

Ko'pdan o'tgan hayotning laziz
Lahzalari, ko'pdan yo'q bo'lgan!
Ne bor endi unga dunyoda!
Vaqt yetdi, kutarlar uni:
Katta ochib tinchlik qo'ynini
Chaqirarlar uni samoda.

Kunlar o'tdi, ketdi Mariya,
Tarki umr etdi Mariya.

Ko'pdan orzu etgan olamni
Yangi malak kabi yoritdi.

Ammo, uni, go'zal sanamni
Nelar siqdi? Nelar horitdi?

Nechun, nechun daf etdi tobut?
Nelar uni ayladi nobud?

Asoratmi, hasratmi, g'ammi,
Erksizlikda tortgan sitammi,

Kasallikmi yo boshqa bir sir,
Kim biladi? O'lmish bexabar...

Latofatli Mariya o'lmish...

U yosh g'uncha ochilmay so'lmish!..
Bo'shab qolmish tumraygan saroy;

Uni yana qoldirmish Garoy;

Yana o'zga qirg'oqlar tomon,
Yovuz yurish boshlamish yomon,

Tag'in to'fon, bo'ronlar aro
G'amgin uchar qon qusar xunrez.

Ammo, uning yuragi qora,
Olovlanar unda boshqa his.

U ko'p choqlar to'qinishlarda
Qilichini tikka ushlar-da,

Yana birdan qotib qolardi,
Jinnilarcha nazar solardi

Atrofiga bo'zarib, go'yo
Vahimaga to'lganday dili,

Allanelar g'o'ldirab tili
Yosh to'kardi bamisli daryo,
Unutilgan u sodiq haram
Xon yuzini ko'rmaydi bu dam;
Unda, azob qo'ynida mahkum.
Sovuq muxsiy qo'lida mazlum.

Qarimoqda xotinlar g'amda.
Ko'pdan ular ichra haramda

Gurji xotin ko'rinmas; uni
Muhofizlar daryoga otgan,

Bechora suv ostiga botgan...
Knyaz qizi mahv o'lgan tuni

Bajarilib bu qonli sazo
Ko'zin yumgan Zarema... E voh,

Qandaygina bo'lmasin gunoh,
Ko'p dahshatli bo'lgan bu jazo!

Kavkaz oldi tuproqlarini,
Rusiyaning tinch qishloqlarini

Urush bilan qilib ming vayron
Tavridaga qaytib keldi xon.

Saroyning chet burchini saylab,
Mariyaga esdalik aylab

Marmarlardan yasatdi fontan.
Tepasiga xoch o'rnatilmay,

Musulmonlar oyi osilmish.
(Bu albatta, bo'lmag'ur bir ish:

Nodonlikning' aybi butunlay).
Yovuzlar bor, kechib ko'p yillar

Hali uchib ketmagan ular
Hali marmar hovuzdan suvlar

Qirg'oqlardan toshib guvillar.
Tinim bilmay, to'xtamay bir on

Dona-dona yosh to'kar fontan:
O'g'li harbda jon bergan ona

Xuddi shunday yig'laydi yana...
O'tmishning bu rivoyatini
U yoqlarda qizlar bilishgan,
So'ngra g'amgin haykal otini
"Yosh fontani", bo'lsin deyishgan.
Men shimolni tashlab nihoyat,
Bazmlarni ko'pga unutib,
Bog'chasaroy tomon yo'l tutib,
Mudroq ko'shkni qildim ziyorat;
Xalq ofati, jangari tatar
Ishrat qilib, bazmlar qurgan
Urushlardan so'ngra bexatar
Bekami ko'st farog'at surgan
Tinch uylarda, bog'larda sezdim —
Hamon rohat yashar kun-u tun;
Suvlar o'ynar, gul chechak otar,
Tok zanglari tovlanib yotar,
Devorlarda yarqirar oltin.
Men u yerda tinmay oh urib,
Yig'lab, haqiq tasbeh o'girib,
Bahorida yashnamay so'lgan
Xotinlarning makoni bo'lgan
Panjarali darchalar ko'rdim,
Kungurali parchalar ko'rdim.
Ko'rdim xonlar qabristonini;
Xo'jalarning so'ng makonini.
Go'rlardagi marmar ustunlar
Go'yo taqdir haqida sekin
Hazin-hazin taratib unlar
So'zlaganday tuyuldi... lekin,
Xonlar qani? Qayda u haram?
Butun atrof muqaddas va jim,
O'z garmishdir... ammoki, u dam
Bu bilan band emasdi dilim:
Oq gullarning mayin nafasi,
Fontanlarning' kuylagan sasi

Jazb ayladi, qildi faromush,
Ixtiyorsiz, menda aqli hush
Nomuayyan to'lqinga tushdi.
Shunda saroy ichida bir qiz
Soya kabi sirli va izziz
Ko'z oldimda lipillab uchdi!..
Do'stlar, kimning soyasin ko'rdim?
Aytimg menga, men sizdan so'rdim:
Kimning shakli meni o'sha chog'
Ta'qib etgan edi? Kim edi?
Hayhot! Butun atrof jim edi.
Mariyaning toza jonimi,
Yo, Zarema rashk bilan to'lib
Bo'sh haramda bir ko'lka bo'lib
Ko'z oldimda o'tgan onimi?
Esimdadir shunday bir chiroy,
Xuddi shunday sevimli nigoh...
Dil o'shanga ketar butunlay,
Surgunda ham g'ussasi, e voh,
Qalbimdadir, tillarimda — oh...
Ey aqlsiz! Bo'ldi! Endi bas,
G'ussa chekma, hech foyda bermas.
Bebaxt ishqning' notinch, noilloj
Oromiga bermishsan xiroj.
Hushingni yig', to'siqlarni buz,
Tokaygacha sen ojiz mahbus
Kishanlarni o'pib yotasan?
Tokaygacha yengil tor bilan,
Bu olamda oh-u zor bilan
Jununingni oshkor etasan?
Men muzaning muxlisi, yori,
Men tinchlikning' murid, xushtori
Tezda butun shuhrat o'ylari

DEMON

Birinchi bo'lim

I

Quvg'indi ruh, qayg'uli Demon
Gunohkor yer uzra uchardi.
Mas'ud kunlar xayoli shu on
Ko'z oldidan bir-bir o'tardi:
Malak edi toza va ma'sum,
Xandon edi arshi-a'loda.
Hatto yulduz moviy samoda
Aylar edi unga tabassum.
Tashna boqar edi har zamon
Olov sayyoralar diyori,
Quyuvq tumanlarning qo'ynidan
Asta kechgan karvonlar sari.
U zamonlar, dargohi ulug'
Xudovandni sevar, inonar
Edi. Na kin, na shubhasi bor
Bu baxtiyor va to'ng'ich maxluq!
Bekor, beburd kechgan asrlar
Vasvasaga solmagan, imon
Toza edi... Tag'in nimalar...
Eslagani yo'q edi imkon!

II

Jahon dashti ichra bevatan
Kezar sarson, quvilgan nabi.
Yillar o'tar, yana yillarday
Navbat ketar, minutlar kabi.

Ham sevgini tamom unutib,
Yana sizga tomon yo'l tutib
Ko'raman, ey Solg'ir bo'ylari!
Xotiralar asiri bo'lib,
Men boraman o'sha yoqlarga,
Dengiz bo'yi baland tog'larga.
Yana Tavrid suvlari to'lib
Xursand etar haris ko'zimni,
Hur sezarman yana o'zimni.
Sehri yurt, diyda yupanchli!
Yuragimning erka quvonchi!
U yerlarda harna jonlidir:
O'rmon, vodi, gulistonlik qir,
Uzumlarki, yoqut, qahrabo,
Teraklar-u suvlar salqini;
Erta bilan quyosh yolgini
Taralganda, esganda sabo,
Ayiq tog'ning aylanasida
Zangor havo yarqirar ekan,
Tiniq, ko'm-ko'k suvning pastida
Qizil nurlar barq urar ekan,
Toklar oshib, qirg'oq yo'llardan
Uchar ekan yo'lchining toyi,
Uning hissini o'ng-u so'llardan
Jazb etadi bu yer chiroyi!..

Shod emas u, ki yerda xoqon
Fanoni der, istar farog'at,
Shuning uchun har yerda, hamon
Zavq olmasdan, sochar sharorat.
San'atining cheki yo'q ko'kday,
Xohishiga qarshilik ko'rmay
Shuncha kezdi, shunchalik yurdi...
So'ng nihoyat, ko'ngliga urdi.

III

Go'zal Kavkaz osmoni — shisha,
Qanot qoqar jannat matrudi.
Pastda Kazbek. Unda hamisha
Qor yartiqar — olmos hududi.
Chuqur jarda ilon inidek
Girdob o'rab ko'rinar Daryol.
Yelkasida ko'pik — baroq yol
Xuddi sherday sakraydi Terek.
O'ynoqi suv qo'ng'iroq chalar...
Tog' tepada kezgan jonivor
Ko'kda uchgan parrandaki bor
Hammasi ham hayratda qolar.
Yelkan kabi osmonda yuzgan
Yengil qanot, oltin bulutlar
Uni birga olis janubdan
Shimol yoqqa kuzatib borar...
Zumrad daryo oqar to'xtamay;
Tepasida buyuk qoyalar
To'lqinlardan ko'ngil uzolmay
Bosh solishib mudrab qolarlar.
Salqin Kavkaz darvozasida
Dev qorovul kabi balanddan
Minoralar tog' yoqasida
Chiroy bilan ochilgan edi.
Ammo, mag'zur Iblis ko'ngilsiz

Xayollari sochilgan edi:
Nafrat yog'ar har nigohidan,
Tillarida achchiq haqorat,
Rozi bo'lmay o'z ollohidan
G'azablanar edi u, faqat.

IV

Ko'z o'ngida bordi bir diyor:
Jannat kabi go'zal Gurjiston.
Maysa-gilam yozgan vodiylar
Go'yo chaman-chaman guliston.
Kumush kabi buloqlar jo'shqin
Jimirlaydi tubida toshi...
Shalolalar sachratgan uchqun
Balki, gurji qizining yoshi.
Qora sochi bamisli sunbul
Suluv qizlar muhabbatini
Gul shoxida o'qiydi bulbul;
Marmar kabi musaffo tuni.
Quyuc soya tashlagan chinor,
Barglarini shabboda o'ynar...
Jin gul bosgan jarda gohilar
Qo'rqib-pisib yotar ohular...
Bunda sevgi, bunda shan hayot,
Yaproqlarning so'nmas shovqini.
Ammo, bular hammasi, hayhot!
Qo'zg'atolmas Iblis zavqini.
Bunda ming xil yam-yashil giyoh,
Nafas olar, g'uborsiz havo.
Bunda tinchlik o'zi bir navo,
Lekin, Iblis nafratli, e voh:
Oy nurida marvarid kabi
Gul bargida shabnam yaltirar.
Gurji qizning ko'zlari kabi
Ochiq ko'kda yulduzlar yonar.

Yana shunday go'zal tabiat
Buni asti xursand qilmadi.
Quvg'in shayton, badarg'a xilqat
Bu borliqni pisand qilmadi.
Toshday qattiq ko'ngli yumshamay,
Tuyolmadi na quvvat, na his.
Neki ko'rdi, sira xushlamay
Unga nafrat yog'dirdi Iblis!

V

Qari Gudal o'ziga atab
Keng, muhtasham hovli soldirdi.
Har toshida ming xasta — betob
Qullar qonli ko'z yosh qoldirdi.
Qo'shni toqqa sahardan tortib,
Ko'lka tashlar baland devori.
Qoyadagi zinadan o'tib
Yo'l boradi sho'x daryo sari:
Bu yo'llardan har kuni bir bor
yelkasiga qo'yib ko'zani,
yengil ko'chib go'yo suzgani,
Aragvaga chiqardi xumor,
Yosh Tamara — Gudal nadrasi
Hilpirardi shohi chodراسi...

VI

U zo'r qal'atog' qirrasidan
Sukut bilan boqardi har choq.
Bukun bo'lsa, surnay sasidan
To'lib-toshgan har taraf, har yoq.
Qadahlarda toza musallas
Aks etadi qandili' chiroq.
Jam bo'lishgan yaqin-u yiroq

Katta bazm: hamma mast-alast...
Bukun Gudal qizin to'y etar,
Go'zal Tamaraning nikohi.
To'rda kelin, yashnab nigohi
Qizlar ichra oyni eslatar...
Uzoqdagi haybatli tog'lar
Berkitdilar quyosh yarmini,
Chapak chalib, o'ynab o'rtoqlar
Ruhlantirar qizlar bazmini.
Avji o'yin qizib turganda,
Childirmani oldi kelinchak —
O'ynab ketdi... Har zarb urganda
G'uncha yozar edi bir chechak.
Pirpiratib hilhila yengin
Goh uchardi qushdan ham yengil.
Goh tinardi, suzuk boqardi,
Qoshlarini nozik qoqardi,
Goho asta bukib tizzasin
Gilam uzra yo'rg'alab ketar.
Ilon kabi o'ynab gavdasin
Har nigohni o'zga band etar.
So'ng, boladek kuladi o'zi, —
Mash'aladek yonadi ko'zi.
Bilmadimki, ba'zan kumush oy
O'ynagani hafif, yumshoq nur
Hayot kabi, yoshlik kabi boy
Bu kulgiga qanday tenglashur?..

VII

Ont ichaman, tundagi yulduz,
Kun botish-u, sharqning hurmati
Bunday go'zal, bu kabi kunduz
Fusunkorni olam ko'rmadi,
Na Eronning buyuk sultoni,
Na jahonning biron xoqoni

Bu xil qizni ko'rolmagan hech,
Bu xil ko'zni so'rolmagan hech!
Haramlarning muzdek chashmasi
Inju kabi suvlari bilan
Oy baravar bir karashmasi
Go'zallarni juda ko'p ko'rgan.
Ammo, biron marta bo'lsa ham
Saratonda dim va issiq kech
Bunday qomat, bundayin sanam
U suvlarda hopitmagan hech.
Dona-dona marjondek suvlar
Uni ko'rmay o'tganlarini,
Armon bilan ketganlarini
Ehtimolki, asti bilmaylar.
Jahon ichra kimsa bir marta
Sutday oydin xilvat tunlarda
Bunday sochni silay olmagan,
Bu xil labga iz sololmagan.
Ont ichaman, bu yorug' jahon
Ayrilgandan beri behishtdan
Bunday chiroy ko'rmay, hech qachon
Ozmagandi aqlan-hushdan.

VIII

So'nggi safar o'ynar erka qiz...
Tog'lar! Gudal mash'alasini,
Ozodlikning sho'x bolasini
Balki, ko'rolmassiz erta siz.
Tushirindi qilib ertaga
Olib ketar kuyov bir umr.
Hayhot! Kimga nozini qilur?
Qanday ko'nar begona uyga?
U biladi. Ravshan diydasin
Nomuayyan shubha bosadi.
Ko'tarolmay goho siynasin

Kalta-kalta nafas oladi.
Uning butun harakatlari
Ifodali, sodda-to'pori
Xo'p kelishgan edi o'ziga.
Agar shu choq Iblis ko'ziga
Tushib qolsa, mabodo, bu qiz
Tikilgancha qotib qolardi.
Eslab ketib o'tmishni, yolg'iz
Bir oh tortib, nafas olardi.

IX

Yohu! Iblis qizni payqadi,
O'sha zamon sezdi hayajon:
Shirin bir kuy go'yo biyobon —
Dashtday ko'ngli ichra tarqadi.
U, yangidan muhabbat-sevgi
Chiroy sanamiga yo'liqdi.
To'yamay boqdi. Xayoli ezgu
Kechgan baxti bilan to'liqdi.
Es kitobi varaq yozarkan,
Saodatli kunlari bir-bir
Yulduz kabi tizilib pir-pir
Zanjir kabi o'tdi nazardan.
Bir gezli kuch bog'lab chambarchas
Yangi g'amga oshna bo'ldi u.
Unda sezgi tilga kirdi, bas,
Qoplab oldi ufqni qayg'u.
Tuydi sevgi halovatini:
Qayta yashash alomatimi?
Vasvasaga solgani qizni
Topolmadi aqlida mador.
Unutmogmi? Yo'q, Parvardigor
Bunday kuchni, bundayin hisni
Unga asli berganmas edi.
Berganda ham bu olmas edi.

Nikoh uchun oshiqar kuyov;
 Kun botmasdan yetib bormoqchi.
 Sabri tugab ko'nglida zo'r dov,
 Otga bosar ustma-ust qamchi.
 Yetib keldi bexavf-u xatar
 Aragvaning sohillariga.
 Nortuyalar sohiblariga
 Zanjir kabi ergashib qator,
 Darmon ketgan kabi tizidan
 Bitta-bitta ko'char izidan.
 Yuki og'ir... Bu katta karvon
 Olib kelar qayliqqa ehson.
 Jangur-jungur o'ynar qo'ng'iroq,
 Hali manzil olis, ko'p yiroq...
 Senodalning hokimi o'zi
 Kelar karvonning bo'lib ko'zi.
 Belda kamar, qilich va xanjar,
 Jim-jim etar oftobning tig'i,
 Yelkasida osig'liq — ham zar,
 Ham tilladan guldor miltig'i.
 Qimmatbaho chakmon egnida.
 Shamol o'ynar barin qo'ynida.
 Shohilardan tuzalgan egar;
 Guldor yugan toy bo'ynin egar.
 Tuxum kabi sag'ri gupurgan,
 Go'yo, biroq unga suv purkkan;
 Tezob, abjir, tusi bebaho
 Asl saman, go'yoki tillo...
 Qorabog'ning sho'x yugurdagi
 Qulog'ini chimirar hamon,
 Vahimaga to'lib yuragi
 Ko'z tashlaydi to'lqinlar tomon:
 Tor va xavfli ingichka bu yo'l
 O'ng tomoni chuqur daryo, jar,

Qirra toshli buyuk qoya — so'l,
 Har minutda kutar bir xatar.
 O'zi ham kech. Qorli cho'qqida
 Shafaq o'chay-o'chay deb turar.
 Tuman bosdi. Tog'lar uyquda...
 Karvon picha tezlab yo'l yurar.

XI

Yo'l ustida kichik bir daxma,
 U daxmada ko'hna bir mazor,
 Dushman qo'li bilan ming laxma
 Bo'lgan qandaydir knyaz yotar.
 Uni endi avliyo deylar,
 Haqiga yuz ming duo deylar.
 U yo'llardan bironta yo'lchi
 Yo hayit, yo jang ketar bo'lsa,
 O'sha yerda dam olib pichi
 Unga ibodat etar bo'lsa,
 Saqlanardi musulmonlardan:
 Xanjaridan, to'kar qonlardan.
 Ammo, botir yurakli kuyov
 Istamadi bu ibodatni,
 Buzdi — go'yo o'chakishgan yov
 Bobolari qilgan odatni.
 Chunki, Iblis aldadi uni,
 Xayolini aynitdi qo'ymay:
 U, o'yida, go'yo tinch tuni
 Qaylig'ini o'pard i to'ymay.
 Yohuv! Kimning sharpasi bo'ldi,
 Ro'baro'dan, tog' oldi qirdan
 Ikki soya ko'rindi birdan,
 O'q chaqnadi. Vahima to'ldi.
 Jasur knyaz churq etmadi ham,
 Uzangida tip-tikka turdi.
 Papog'ini bostirdi, shu dam

Uchar otga bir qamchi urdi.
Qo'lida turk qilichi yondi,
Burgut kabi olg'a tashlandi.
Yovvoyi dod, bo'g'iq bir fig'on
Tutdi butun vodiyni shu choq.
Uzoq davom etmadi. Bu on
Gurji erlar qochdi tumtaroq.

XII

Yana tinchlik bosdi vodiyni.
Yolg'iz, qonli murdalar yotar.
Yo'lchilarning aylab yodini
Mo'ltir-mo'ltir tuyalar boqar.
Talon bo'lgan katta boy karvon
Moldan asar qolmagan sira,
Xristianlar o'ligi uzra
Qora qushlar uradi javlon.
Shahid o'lgan bechoralarni
Otalari yotgan mozori
Chorlamaydi. Bechoralarni
Kimga yetar fig'on-u zori?
Aza tutib, uzoqdan — ulib
Onalari kelmas boshiga.
Olam to'lib qonli yoshiga,
Singillari turmas oh urib.
Qabrlari teppasida hech
Sham yoqilmas sahar, kunduz, kech.
Ammo, biron muruvvatparvar
Yodgor etib o'tqizar bir but.
Osmonida yig'lar oq bulut,
Atrofida gul o'sar par-par.
So'ngra bundan yurar yo'lovchi
Befotiha o'tib ketolmas.
Uzoq yo'lda bo'lmay iloji
Bu yerlarda dam olur birpas.

XIII

Bug'u kabi tez uchar saman
Xuddi jangga oshiqqan kabi.
Ko'zi soqqa kabi o'ynagan,
Pishqiradi, titraydi labi.
Tog'lar bo'yi sakraydi goho,
Tuyog'idan yeldirim chaqnar.
Shamol nedir tinglaydi.
Go'yo guv-guvida vahm siri bor.
Yeli chalkash bo'lib pirpirar
Hushsiz, xuddi o'qday yugurar.
Ot ustida chalqancha tushib,
Go'yo, sovuq yeldan uvushib
Yo'ichi yotar: oqargan rangi.
Oyog'ida mahkam uzangi
Shilq etadi, otning yoliga
Bo'yni tushar, boqmas yoniga.
Yugan tushgan uning qo'lidan,
Jilov tortmas otning yo'lidan.
Silon yopg'ich shunday qizil qon,
O'ng qon, so'l qon, hatto ufq qon.
Ey chopong'ich, abjir, qush qanot,
Kamon yoyi kabi uchgan ot,
Bahodirdek shart yorib jangni
Omon saqlay deding xo'jangni,
Ammo qanday yozug' bo'ldi bu,
Osetin o'qiga uchdi u!

XIV

Gudal uyi botdi azaga
Yig'i dodi chiqdi fazoga,
Eshigida odam yig'ilgan.
Kuyib-pishib bunda yiqilgan
Kimning oti? Bu bechora kim?

Hatto, osmon javob bermas, jim!
Yuzlarida vahima-vahshat
Izlari bor, qo'rqinch va dahshat!
Usti-boshi, yarog'lari qon,
Boshi, ko'zi, oyoqlari qon...
Ot yolini siqimlab qo'li,
Behush qotib qolgan bir yo'li.
— Sho'r peshona, baxtsiz kelinchak
Ma'tal bo'lib kutganing keldi,
Ko'yida qon yutganing keldi.
Ammo senga qanday kulajak
Bir umrga yumilgan ko'zlar?
Axir, taqdir senga ne ko'zlar?

XV

Bekami-ko'st tinch oilani
Chaqmoq kabi bosdi bu kulfat.
Ko'nglini yeb qayg'u iloni
Musibatga bo'ldi qiz ulfat:
Qonli yoshga aylanib qalbi
Tomchi-tomchi oqdi ko'zidan.
Dami og'ir... ketdi o'zidan...
Go'yo, boshi ustida kabi
Sochi to'zib yotgan o'rnida
Eshitilganday bo'ldi bir nido:
"Qo'y, yig'lama! Bekor bu yaxlit
Koshki, ko'zni yoshi sob bo'lsa,
Koshki, hayot shabnami taxlit
Yoshing murda uzra to'kilsa.
Yo'q! U faqat ravshan ko'zingni
Tuman kabi qoplab olajak.
Anor kabi shu qiz yuzingni
Misday qilib o'tda yoqajak.
Yoring bo'lsa uzoqda, bilmas
Sening chekkan oh-u zoringni.

Endi samo nurlari tinmas
Va erkalar nomizoddingi.
U jannatda qo'shiqlar tinglar...
Bu — hayotning bachkana tushi,
Bir g'aribning fig'on, nolishi
Behisht mehmoniga ne denglar?
Yo'q, bu qazo asli qismatdir,
Inon menga, dunyo malagi.
Arzimaydi, ko'zingni art, tur,
Yig'lamoqning yo'qdir keragi.
"Samo xuddi bir dengiz,
Darg'asi yo'q, beelkan.
Uchar hisobsiz yulduz
Tumanlarning qo'ynidan.
Cheksiz ko'm-ko'k vodiya
Parcha-parcha bulutlar
Iz qoldirmay ortida
Erkin qanot qoqurlar.
Ularga hijron, visol
Na g'am, na sevinch bermas.
Kelajagi orzusiz,
O'tmish uchun achinmas.
Bebaxt bo'lgan chog'ingda
Ularni yodingga sol,
Benasib va qaydsiz
Yashashni o'rganib ol!"
"Baxmal kabi yumshoq qora tun
Kavkaz cho'qqisini olganda,
Shirin so'zli fusunkor ochun
Jimib uyqusiga tolganda,
Sho'x va yengil yel yurib tog'da
Maysalarni o'ynagan chog'da,
Parrandalar bezovta bo'lib,
Gur uchganda vahimga to'lib,
Tok tagida gullar to'yguncha
Shabnam shimib, ochganda g'uncha,

II

Uni xilvat bir monastirga
Eltib qo'ydi qavmi-qarindosh,
Qo'pol qildan bo'lgan usti-bosh
Yosh ko'krakni botirdi terga.
Baribir, naf bermadi biror
Rohibalik usti-boshi ham.
Yana o'sha: xayoli — mubham,
Avvalgidek ko'ngli beqaror.
Baribir, u hiylakor nido
Yo, sham yongan mehrob yonida,
Yo sajdaga qo'rganida bet,
Eshitilar hamon ketma-ket...
Ba'zan qora gumbaz ustida
Beiz, tovush chiqarmay sira,
Ko'rinar u qiz qasdida
yengil tutun qo'ynida xira.
Yulduz kabi nurlanar edi;
Aldab, qayga imlanar edi?

III

U monastir, ikki yog'i tog'
Salqin yerda o'rnashgan edi.
Terak, chinor — g'ujum ko'k yaproq
Atrofida o'ynashgan edi...
O'shalarning qo'ynida gohi,
Oraliqqa inganda kecha,
Ko'rinar to tong otguncha
Oynasidan tanho yotog'in —
Jimillagan xasta nigohi
Yosh gunohkor qizning chirog'in:
To'rt atrofda, salqin soylarda
Tilsizlikdan qurigan sho'ri,
Sag'analar qorovuli but,

O'lik kabi saqlab bir sukut
Qatorlashib yotgan joylarda
Boshlanardi qushlarning jo'ri.
Toshdan toshga sakrab to'ymagan,
Qo'ng'iroqlar chalib o'ynagan,
Oppoq to'lqin urgan buloqlar,
Pastga tushib, go'yo o'rtloqlar
Hammasi bir bo'lishib, gullar —
Orasidan oqib guvillar...

IV

Shimol yoqdan ko'rinar tog'lar,
Ertalabki shafaq nurida
Vodiylarning qo'yni to'rida
Ko'kish tuman erigan choqlar,
Yuzin qibla tomon o'girib
Chaqirganda muazzin azon,
Qo'ng'iroqning savti o'kirib,
Manostimi uyg'otgan zamon,
Yosh gurji qiz tikka tog'lardan
Ko'za olib suvga tushganda,
Gul g'unchalar ochgan bog'lardan
Parrandalar ko'kka uchganda,
Kumush qorli yuksak cho'qqilar
Aks etardi tiniq osmonda,
Kechga yaqin, quyosh botganda
Qizil nurga cho'mardi ular.
Hammasidan baland va mag'zur
Bulutlarni yorib, tepadan
Oq sallali, yo'l-yo'l to'n bilan
Kavkaz shohi — Kazbek ko'rinar.

V

Ammo, bunday toza masarrat
Kirmas edi qiynalib yotgan

Gunohkorlik o'yiga botgan
Tamaraning ko'ngliga albat,
Olam unga begona edi.
Undagi bor narsalar butun
Azob uchun bahona edi —
Ham oppoq tong, ham qorong'u tun.
yer yuzini bosganda tinchlik,
Mizg'imasdan kechalar bo'yi,
But oldida yiqilgan ko'yi,
Hushdan ketib yig'lardi sho'rlik.
Ho'ngir-ho'ngir yuksalgan yig'i
Go'yo daydi o'g'rining tig'i
Qo'rqitardi tungi yo'lchini.
Vahim qilib, bilmay tinchini
"Bu — g'orlarda bog'liq alvasti
Chekkan fig'on"! deb o'ylardi u.
Qulog'ini olmasdan asti
Horgan otin tezlar edi: chu!

VI

G'am-hasratga botgan Tamara
Derazaning tagida tanho,
Xayollarga cho'milib goho,
O'tiradi yig'lab bechora.
Uzoqlarga tashlaydi nigoh,
Tun bo'yi hech tinmay kutadi...
Kimdir unga deydi: keladi!
Chidolmasdan tortadi u oh.
Qayg'ularga to'lgan ko'z bilan,
Ajjib, shirin, yumshoq so'z bilan,
Bekorlarga ko'rinmagan u,
Bekor erka qilmagan uyqu.
Ko'pdan beri orziqardi qiz.
Avliyolar uchun cho'ksa tiz,
Ko'ngli hamon unga ketganin,

O'zi bilmay nega ekanin,
Charchab, tolib og'ir kurashdan
Orom olay desa biron pas,
Bolish botar — bo'lib otashdan
Kuydiradi, ololmay nafas.
Sachrab turib, qaltiraydi qiz
Go'yo ishq tundagi yulduz,
Ko'ksi, butun tani yonadi,
Nafas qisar, ko'zida tuman,
Tashna quchoq birdan qonadi,
Labda bo'sa eriydi shu on...
.....

VII

Choyshab yozdi shom qorong'usi
Gurjistonning tog'-u toshiga,
Keldi Iblis toshib tuyg'usi
Monastirga — qizning qoshiga.
Lekin unga xalal bergali
Botinolmay gangidi uzoq.
Tayyor edi u, go'yo, shu choq
Yovuz niyatidan kechgali.
Ne qilishni bilmay, tentirab
Kezdi devor ostida sokin.
Havo tip-tinch. Shamol yo'q. Lekin
Barglar undan qo'rqdi dildirab...
Ko'z tashladi tepaga asta;
Terazani lampa yoritir.
U angladi shunda birpasda:
Qiz kimgadir ko'pdan ko'z tutar!
Ana, chingar jaranglab ketdi,
Eshitildi kuyilgan ovoz.
O, u, qanday shirin, latif soz,
Zarbi ko'ngil tubiga yetdi...
Xuddi ko'z yoshidan birma-bir

To 'kildi u tovush, to 'kildi...
Muncha notinch yurak qurmag'ur:
Bardosh tugab, choki so 'kildi.
U ashula shunday soz edi,
Shunday yumshoq dilnavoz edi,
Ki yer uchun atalib, go 'yo
Ko 'kda to 'qilgan ovoz edi.
Unutilgan do 'st bilan yana
Ko 'rishmakni ixtiyor etgan,
Tunni xilvat topgan-u, pana —
Yo 'llar bilan bu yerga yetgan
Biron malak emasmikan bu?
Shunda Iblis eng birinchi bor
Muhabbatning dardini tuydi...
Nola chekib dili zor-u zor,
Ishq o 'tida loyillab kuydi.
Qo 'rqib, jilmoq bo 'ldi bu yerdan...
Qanotini ko 'tarolmadi!
Ajab! Quruq ko 'zidan birdan
Yoshi oqdi... Hech chidolmadi...
O 'sha joyda haliga qadar
Odam yoshi emas, o 'sha yosh,
O 'sha o 'tdek yosh kuydirgan tosh,
Yakka, qora, kuygan tosh yotar...

VIII

Qizni sevar bo 'lib kirar u
Marhamatli dil bilan shu choq;
Vaqtı yetdi, kutilgan orzu
Ushaldi deb o 'ylab, xush dimog',
Shu payt uning g'ururli qalbi,
Birinchi bor uchrashar kabi,
Intizorlik qaltirog'ini,
Lol va majhul sir qiynog'ini
Angladi... Bu qo 'rqinch hol edi,

Yomon tasodifga fol edi.

To 'g'ridan ham, kirsaki, unda
Nur kiyingan jannat elchisi,
Ul gunohkor qizning soqchisi
Malak yashnab turardi tunda.
Shu choq qizni aylab sarishta,
Qanotiga olib farishta,
Asradi u yovuz dushmandan.
Pok ilohiy nurlar shu ondan —
Pok nigohni ko 'r qildi butun;
Iblis ko 'zin qopladi tutun...
Shunda shirin salom o 'rniga
Og'ir itob eshitildi unga:

IX

“Ey niyati buzuq ruh, tunda
Kim chaqirdi seni, ayt menga!
Senga muxlis kishi yo 'q bunda,
Ko 'p erkinlik berma qaddingga.
Haligacha bu yerda birpas
Yovuzlik hech olmamish nafas.
Mening ishqim, pok sanamimga
Sola ko 'rma qora izingni.
Ket! Uchirgim men yulduzingni,
Saqlanib qol!”
Va Iblis unga
Tahqir bilan jilmayib boqdi;
Nigohini rashk o 'ti yoqdi;
Qaytalabdan o 'tli dilidan
Eski nafrat zahari oqdi.
“U meniki! — dedi riyokor, —
Qiz meniki! Uni qoldir, bas!
Kech qolding sen ey, himoyakor
Men va unga sen hokim emas!
Qizning g'urur to 'la ko 'ngliga

O'z muhrimini bosib qo'rganman:
Sen ket, bunda men o'zim ega,
Men hukmron, uni sevganman!"
Shunda malak g'amgin ko'z bilan
U bechora qizga bir boqdi;
Qanotini ohista qoqdi,
So'ngra g'oyib bo'ldi ko'zlardan...

X

Tamara

O! Sen kimsan, so'zlaring tubsiz,
Do'zax yubordimi, yo jannat
Ne istaysan?

Demon

Sen go'zalsan, qiz!

Tamara

Gapir, kimsan? Javob ber, anglat!

Demon

Men u menki, sen yarim tuni
Quloq solib tinglading uni.
Uning fikri oldi hushingni,
Uning dardin anglagan bo'lding.
Uning o'yi bilan liq to'lding.
U band etdi o'ng-u tushingni.
Men u menki, e go'zal pari,
Kimsa sevmas, achinmas uni.
Qullarimga men yerda ofat,
Ozodlik va idrok shohiman.
Men — malaklar, ko'klarga dushman,
Tabiatga yovuz kasofat.
Lekin, mana, boq: dog'ingda men,
Tuproq kabi oyog'ingda men!

Men keltirdim egib boshimni
Ishqing mayin ibodati-la,
Eng birinchi yer azobi-la,
Eng birinchi to'kkan yoshimni,
Qabul ayla, ol go'zal, buni,
Yorit umrim saodatini.
Quloq solgil oh-u zorimga:
Birgina so'z bilan meni sen
Yana ko'kka qaytarolasan,
Ey parizod, qizg'an holimga;
Ishqing ezgu libosin kiyib,
Yovuzlikdan dilimni tiyib,
U dargohda porloq nur kabi,
Yangi malak, yosh bir hur kabi
Qayta yashar edim men u chog',
Rahming kelsin, ahvolimga boq,
Yalinaman, tinglagil meni,
Asiringman, sevaman seni!
Seni avval bir yo'l ko'rdim-u,
Ajalsizlik, hokimligimga
O'tli nafrat, qarshi bir tuyg'u
Chaqmoq kabi tushdi dilimga.
Beixtiyor yerning yarmi g'am-
Shodligiga hasad qildim men:
Senday yashash istadim men ham,
Sensiz uni fano bildim men.
Qonsiz qalbim jimirlab ketdi,
Umidli nur jonlandi unda.
Bir dard eski yara tubida
Ilon kabi qimirlab ketdi.
Sensiz nima bu abadiyat?
Sensiz nima menga mulk, niyat?
Quruq so'zdir, tutmas asodir,
Xudosi yo'q keng kalisodir.

Tamara

Ey makkor ruh, chekil ey beor,
Inonmayman dushmanga, yo'qol!
Parvardigar... Hayhot! Bu ne hol!
Sig'ingani yo'q menda mador...
Halokatli og'u boshimni
O'rab olmish, to'kar yoshimni!
Ey hiylakor, ne kerak senga?
Tingla, meni xarob etasan!
So'zing otash, zahardir menga,
Gapir, nechun meni sevasan?

Demon

Ey go'zal qiz, nechunmi? — Hayhot,
Bilmam!.. Yangi hayotga to'lib,
Yangi ishqning asiri bo'lib,
Senda ko'rib baxtinga najot,
Jahannamning og'ir toshini
Jinoyatli boshimdan otdim,
Hechga butun o'tmishni sotdim.
Kel, dardimning qil ilojini.
Shu qop-qora ko'zlaring malak
Ham do'zaxim, ham jannatimdir.
Quvg'undini etma ko'p halak,
Olov tushgan qalbini tindir.
Tingla meni, ishon, rost bilan
Bu yerda yo'q ehtiros bilan
Seni shunday sevamanki men,
Asti bunday sevolmaysan sen:
Barcha o'yim, barcha niyatim,
Ochiq ko'nglim va hamiyatim,
Sha'n-u shavkat, hukmdorligim,
Butun umrim, butun borligim —
Hayotim-la sevaman, go'zal!
Yuraginga surating azal
O'rnatilmish edi ilgari.

Ajralmasdan mendan hech qachon
Ko'z oldimda yashnab u hamon
Birga yurgan edi, ey pari!
Bu shirin nom azal bor edi:
Ko'pdan menga hayajon solib,
Kecha-kunduz hushimni olib,
Qulog'imga jaranglar edi.
Mas'ud kunlarimda jannatda
Sen bilan men edim furqatda.
Oh, agar sen bilsaydingki, qiz,
Butun umr — asrlar beiz,
Huzur qilish va azob chekish,
Yovuzlikka maqto'v kutmaslik,
Yaxshilikka ehson ko'rmaslik,
O'zing uchun yashash, entikish,
Bu abadiy kurashda yana
Bekelishuv va betantana
Kun o'tkazish — qanday og'ir ish!
Ham achinish, ham achinmaslik,
Har narsani anglash va sezish,
Hech narsani ko'zga ilmaslik,
Hammasidan tahqir-la bezish!..
La'natini yog'dirib xudo,
Dargohidan aylagach judo,
Tabiatning quchog'i butun
Muzday sovub qoldi men uchun.
Ko'z oldimda yastanib shunda
Moviylandi koinot; unda
Ko'pdan menga tanish, ziyinatdor
Sayyoralar to'pini ko'rdim.
Oltin toj-la uchardi ular;
Oh, ne xo'rlik, baridan so'rdim,
Hech bittasi nazar solmadi
Eski do'stni taniy olmadi.
Shunda qahrim kelib ularni, —
O'zim kabi quvg'undilarni

Ro'baro' chaqirdim. Biroq,
U yovuz yuz, yovuz ko'zlarni,
E voh! Taniy olmadim u choq.
Bu ahvoldan qiynalдим yomon;
Vahimaga to'lib shu zamon,
Qanotimni silkib yo'l oldim.
Qayga? Nechun? O'zim bilmasdan,
Eski do'stlar ko'zga ilmasdan,
Unutdilar... Men yakka qoldim:
Shundan keyin jahon men uchun
Behisht kabi tor o'ldi butun,
Oqimning hur istagi bilan
Borar joyin manzilin bilmay,
Besukun-u hamda beyelkan
Oqib ketayotgan kemaday;
Gohi paytlar saharda yolg'iz
Ko'k gumbazda qorayib yurgan,
To'rt tarafga o'zini urgan,
Xudo bilsin, qaydan, qay sari
Tinim bilmay bemaqsad, beiz
Uchgan bulut parcha singari
Men ham uchar edim beqaror
Hamdam izlab o'zimga zor-zor!
Insonga ko'p hokim bo'lmadim,
O'rgatmadim gunohlarga ko'p.
Yaxshilikni tamom xo'rladim.
Odillikni yerga urdim xo'p,
Uzoq emas... Toza imonning
Alangasin o'chirdim oson...
Mehnatimga arzirmi hech on
Ahmoq, munofiqi insonning?
Men qiynalдим, jahondan bezdim,
Tog'lararo berkinib kezdim,
Xuddi ko'kdan otilgan yulduz —
Tun qo'ynida daydidim yolg'iz.
Tanho yo'lchi tunda yiroqdan

Makrim bilan bir o't ko'rardi,
Otini tez unga burardi.
Borib-borib baland qirg'oqdan
Jahannamga to'ntarilardi,
O! Bekorga faryod qilardi,
Jar toshlari botardi qonga...
Parcha-parcha bo'lgan insonga
E'tiborsiz kulib boqardim,
Shodlanardim, qanot qoqardim
Ammo tezdian g'azabning qora
Bu o'yini yoqmasdan qoldi,
Qon sayridan ko'zlarim toldi!
Men isyonkor tabiat aro
Dil zorini bosmoqchi bo'lib,
Buzuq o'ydan qochmoqchi bo'lib
Unutilmas narsalarni ham
Unutmoqqa ont ichib mahkam
Bor olamdan tamom jirkanib,
Kuchli bo'ron bilan urushda
Chaqmoq, tuman ichra burkanib,
Quyunlarni o'ynab burishda
Bulutlarning ustida uchdim,
Keng fazoning qo'yini quchdim,
Kelib ketgan hamda kelgusi
Odamlarning barcha qayg'usi,
Barcha mehnat, barcha kulfati,
Barcha chekkan g'am, uqubati,
Hammasini jam qil o'zingga;
So'ngra mening hali so'lmagan,
Olam unga iqror bo'lmagan,
Tanilmagan zo'r azobimdan
Bir lahzani keltir ko'zingga...
Ular nima bunga nisbatan?
Odam nedir? Nedir ish, umri?
Kelib ketgan va kelib ketar...
Umid borki, hukmdor tangri

Hukm etsa ham, afv eta olar!
Mening qayg'um bo'lsa muttasil,
Shu yerdadir, hech qachon o'lmas,
U men kabi abadiy, asl,
Mendek uning oxiri bo'lmas!
U ajralmas, men bilan yashar,
Goh ilondek o'ynar, to'lg'anar,
Goh olovdek kuydirib yonar,
Goh tosh kabi fikrimni bosar, —
O'lgan umid, o'lgan ehtiros
Qabridir u. Asti buzilmas!...

Tamara

Qayg'ularing ne kerak menga?
Bas qil dedim, bas dedim senga,
Gunohkorsan...

Iblis

Sengami, hur qiz?

Tamara

Eshitarlar...

Iblis

Tanhomasmi biz?

Tamara

Xudoyim-chi?

Iblis

Bizni ko'rmas u,
Ko'k bilan band, yerni so'rmas u.

Tamara

Jazolar-chi, do'zax o'ti-chi?

Iblis

Hech gap emas, tinglagin picha,
Sen sazomni urmasang yerga
Do'zaxda ham bo'larmiz birga.

Tamara

Ey, tuyqundan yo'liqqan do'stim,
Kim bo'lsang bo'l, baribir jo'shdim,
Rohatimni mangu yo'qotib,
Ajab majhul farrahga botib,
Ixtiyorsiz tinglayman seni.
Agar bordi aldasang meni,
So'zing yolg'on bo'lsa mabodo...
Bu na sharaf! Rahm et ey Xudo.
Mening ko'nglim senga ne kerak?
Sen ko'rmagan barcha qizlardan,
Chiroy shohi u yulduzlardan
Nahot, ko'kka men qimmatliroq?
Ular, hayot! Hammadan go'zal,
Ta'rifi yo'q gul chiroylarin
Yerdagidek qizlik joylarin
O'lim qo'li buzmagan azal.
Yo'q! Sen menga qasamyod ayla,
O'ylaringdan kech, barbod ayla,
Ko'rasanmi g'am chekaman men;
Xotin hissini ko'rmoqdasan sen!
Yuragimda shubha bor senga...
Ammoki sen barchasin tuyding,
Hammagini bilasan, suyding,
Rahming kelar albatta menga!
Ont ich... yovuz bisotingdan kech,
Va'da bergin, inontir, uqdir.
Nahot, bo'lak buzilmagan hech
Na bir qasam, na va'da yo'qdir?

Iblis

Ont ichaman xilqatning boshi,
Hamda uning so'ng nafasi-la,
Jinoyatning uyatli toshi,
Haqiqatning tantanasi-la!
Ont ichaman zafar orzusi,
Inqirozning qayg'usi bilan,
Vasling bilan hamda bo'lg'usi
Dardli hijron qo'rquvsi bilan;
Ont ichaman mute' ruhlari-u,
Do'stlarimning taqdirlari-la,
Menga dushman malaklarning u
Qonsiragan shamshirlari-la;
Ont ichaman ko'k-la, do'zax-la;
yer sanami san-la va haq-la,
Sening so'nggi bir nigohing-u,
Eng birinchi yoshing, ohing-u,
Lablaringning gul damlari-la,
Ipak soching buramlari-la,
Ont ichaman aysh-la, kulfat-la,
Ont ichaman bor muhabbat-la,
Eski o'chdan tamom voz kechdim,
Kechdim mag'rur o'ylar bahridan.
Bundan bu yoq makrim zahridan
Yo'ldan ozib qiynalmas hech kim!
Endi osmon bilan kelishmoq,
Sevmoq, sig'inmoqni istayman,
Endi ezgulikka erishmoq,
Unga inonmoqni istayman,
Endi butun bu olamdagi
Kasofati ruhimni quvay:
Ko'z yoshim-la peshonamdagi
Ko'k otashin izlarin yuvay;
Qo'y, bu dunyo tinch va voqifsiz
Chechaklansin, gullasin mensiz!
O! Ishongil; shu zamongacha

Visolingga yetishib, seni
Anglay olgan faqat mengina.
Oyog'ingga — hokimligimni,
Erk-u, ishq-u to imongacha
To'kib solgan faqat mengina.
Ishqingni qiz, hadyadek bu kun
Men kutaman; ayla hamiyat:
Bir marhamat, bir oning uchun
Qurbon senga bu abadiyat.
Yo'llaringda ey, toza sanam,
Ovoraman, qalbi kuyukman.
G'arazdagi kabi ishqda ham
Vafodorman, inon, buyukman.
Falaklarning ozod o'g'liman,
Seni ko'kka olib ketaman,
Bu jahonga xoqon etaman,
Eng birinchi yorim bo'lursen.
O'sha yerdan, ey go'zal pari,
Go'zalligi umrsiz bo'lgan,
Jinoyatga, o'limga to'lgan,
Na sevgida va na nafratda
Betahluka yasholmaydigan
O'z nafsidan osholmaydigan,
Mayda ehtiros-la g'aflatda
Qolganlarning makoni — yerga;
Razolat-u, g'am koni — yerga
Qizg'anmasdan nazar solarsan,
Nafrat bilan o'yga to'larsan.
Bilmaysanmi haliga dovur
Odamlarning ishq neligin?
Qon mavjidir, bilmasang — bilgin,
Lekin, kunlar o'tar, qon sovuq.
Ey go'zal yor, javob ber menga,
Ayriliqqa, ko'z yoshlaringga,
Yangi chiroy aldashlaringga,
Xayollarning xohish, erkiga,

Horg'inlikka, xafalikka, kim —
Jindek qarshi turalar? — Hech kim
Yo'q! Sen uchun, ey, sevimli yor,
Tor doira ichra lol-u zor
Kundosh dag'allikka qul bo'lib,
Qayg'u bilan hasratga to'lib,
Yuraksiz va sovuq insonlar,
Mug'ombir do'st, yovuz dushmanlar,
Samarasiz tilak, qo'rquvlar
Bo'sh va og'ir mehnat, qayg'ular
Orasida gulday so'lishni,
Bekorlarga xarob bo'lishni
Taqdir azal yozmagan aslo,
Bunday lahad qazmagan aslo.
Baland devor ostida g'amgin,
Odamlardan, xudodan nari
Ibodat-la axtarib taskin
Beehtiros so'nmaysan pari.
Yo'q! Yo'q! Seni, ajoyib xilqat,
Boshqa olam, boshqa bir qismat,
Boshqa azob, boshqa hayajon —
Kutmakdadir, sen menga inon,
Tashla eski orzularni sen:
Unut uning har narsasini,
Evaziga ochib beray men
Mag'rur idrok darvozasini,
Menga tob'i ruhlarni butun
Oyog'ingga cho'ktirayin tiz,
Sehr to'la malaklardan qiz,
Joriyalar beray sen uchun,
Senga atab Sharq Yulduzidan
Oltin jig'a uzib berayin,
Shabnam terib gullar yuzidan
U jig'aga tizib berayin.
Kun botishning la'li nuridan
Bo'yaringga bog'ichlar o'ray,

Atrofigda havolarni man
Xushbo'y nafas bilan to'ldiray.
Qulog'ingni ajib kuy bilan
Sira tinmay erkalatay men,
Firuzadan, qahrabolardan
Koshonalar tayyorlatay men.
Dengizlarning tublarin quchay,
Bulutlardan balandga uchay,
Yer ne'matin senga tutay qiz,
Farmoningga yig'lab cho'kay tiz,
Sevgin meni!..

XI

Va u ohista
O'tday yongan lablari bilan
Qizning xuddi xandoni pista
Lablariga yopishdi birdan.
Qiz yalindi. Yolg'on so'z bilan
Aldadi u, ishontirdi u;
Yonib turgan kuchli ko'z bilan
Tikka boqdi va yondirdi u.
Xanjar kabi qop-qora tunda
Hech davosiz chaqnadi shunda.
Hayhot! Hayhot! Yovuz ruh yana
Yana bir yo'l qurdi tantana!
Qiz ko'ksiga uning bo'sasi
Hayhot! O'lim zaharin quydi.
Qizning dod deb chinqirgan sasi
Tun tinchligin tashvishga qo'ydi.
U tovushda muhabbat, azob,
Yolvorish-u, gina, iztirob,
Yosh umr-la, alvidolashish,
Olam bilan so'ng judolashish —
O'lim degan xabar bor edi,
Bu eng so'nggi oh-u zor edi.

XII

Shu vaqtda tun qorovuli
Taqillatib taqildog'ini,
Har yon tutib ding qulog'ini
Odat qilgan har kungi yo'li —
Tikka devor aylanasida
Yolg'iz kezib yurar edi tek.
Birdan cho'chib, sharpa sezgandek
Qiz oynasin shunda pastida
Hayron bo'lib to'xtadi-qoldi,
Atrofiga tinch quloq soldi.
Boqar ekan u jimjit tunga
Ikki labning cho'lp-cho'lp bo'sasi,
Zaifona qiyqiriq sasi
Eshitilganday tuyuldi unga.
Chol cho'chidi, dili uvishdi,
Yuragiga kir shubha tushdi.
Lekin, tindi hammasi shu choq
Faqat mayin shabada yiroq
Yaproqlarning zorin bu yoqqa
Keltirardi uzoq yerlardan.
Tog' daryosi qora qirg'oqqa
So'ylar edi o'tmish sirlardan.
Vahim bosdi, u chol qo'rqardi
Ichdan allanelar o'qirdi.
Yovuz ruhni, qora arvohni
Xayollardan quvib tashlay deb,
O'ylaridan yomon gunohni
Duolar-la yuvib tashlay deb,
Dir-dir titrab o'ng qo'li bilan
Cho'qinib u iltijo etdi,
Indamasdan, o'z yo'li bilan
Shoshilgancha tez yurib ketdi.

XIII

Uxloq pari kabi beozor,
Tobutida yotar edi qiz,
Oppoq yuzi, u gulday uzor,
Kafandan ham oq edi... Essiz
Yumilmishdi kiprigi mangu...
Lekin kiprik ostidagi u
Mudrab yotgan ko'zlar uyg'oq deb
Yo o'pish, yo kunga ilhaq deb
Kim o'ylamas edi boqqanda
Jigari yosh bo'lib oqqanda?
Ammoki, u ko'zlariga quyosh
Oltin nurin quyardi bekor,
Yig'lab o'pib qavmu-qarindosh,
Ular uchun kuyardi bekor.
Yo'q! Qattiqdir o'limning dasti,
Uni hech kim buzolmas asti!

XIV

Tamarani xurram kunlari
Bayramda ham hech qachon bu xil
Yasan bilan ko'rmaganda el.
O'sgan yerin sarin gullari
Eski urf-odat bo'yicha
Qiz ustunda hid sochishardi,
O'lik qo'lda qolgan ko'yicha
Go'yo yer-la xayrlashardi.
Ehtirosga to'la yuzida
O'limdan hech asar yo'q edi.
Unga boqqan kishi o'zida
U tirik deb ko'ngli to'q edi.
Unda marmar kabi ham sezgi,
Ham aqldan, hisdan begona,
O'lim kabi sirli va ezgu

Bir chiroydan bordi nishona.
Lablarida ajab bir kulgi
Qotib qolmish edi beozor,
Diqqat bilan boqqan ko'zga u
Talay g'amdan berardi axbor:
U kulgida hayotdan judo
Bo'layotgan dilning nafrati,
Eng so'nggi o'y, so'nggi niyati
Hamda yerga sassiz alvido,
Degan kabi bir hol bor edi;
Qayg'usiga olam tor edi.
U burungi hayot kulgisi
Behudaga qoldirmishdi iz,
Endi uni ne qilardi qiz,
Hokim ekan o'lim uyqusi?
Bir kulgining bir o'xshari bor.
Kech tushganda, quyosh botganda,
Dengizda zar erib o'tganda,
Kazbek uzra kumush kabi qor
Birpas asrab shafaq nurini
Y'iltillaydi uzoqdan qiyo.
Ammo yarim jonli bu ziyo
Yoritmaydi kimsa yo'lini!..

XV

Qo'ni-qo'shni, qavm-qarindosh
G'amli safar uchun yig'ilgan.
Ko'ksi qisib dami tiqilgan
Qari Gudal ko'zlarida yosh,
Faryod qilib yig'lab zor-u zor,
Sochlarini yulib, so'nggi bor
Oq otiga mindi, qo'zg'aldi —
Barcha mozor sari yo'l oldi.
Yo'l olisdir, tinmay birma-bir
Uch kecha-uch kunduz cho'zilar:

Bobolarin yonida ular
Tamaraga qazmishlar qabr.
Qishloqlarni o't qo'yib bosgan,
G'ariblarni talagan, osgan
Gudalning bir o'tmish avlodi
Ko'kka chiqib fig'oni-dodi
Kasal bo'lib yotib qolganda,
Gunohlarga botib qolganda
Ayblarini yuvmoq qasdida
Faqat bo'ron o'ynagan, uchgan,
Qarchig'aylar zirvasin quchgan
Qoya uzra, bulut pastida
Urug'iga aylab nishona
Solmoq bo'lgan edi butxona,
Tezda Kazbek qorlari aro
Bir kaliso yasaldi tanho
Suyaklari unda bo'ldi jo.
O'sha baland qoya sal o'tmay
Go'ristonga aylandi bazo'r,
Ko'kka qancha yaqin bo'lsa go'r,
Go'yo bir oz issiq bo'lganday?
Odamlardan narida har dam
Go'yo so'nggi uyqu buzilmas...
Bekor! O'tgan sevinch, o'tgan g'am
O'lganlarning tushiga kirmas...

XVI

Bir farishta moviy samodan
Oltin qanot qoqib o'tardi;
Ul gunohkor jonni dunyodan
Quchog'ida olib ketardi.
U yupatib gunoh qizini
Shubhalarin quvardi undan,
Gunoh bilan azob izini
Ko'z yoshi-la yuvardi undan:

Jannat sasi olisroq yerdan
Eshitilarkan ularga, birdan
Ularning hur yo'llarin kesib,
Xuddi kuchli shamoldek esib
Do'zaxi ruh guvillab uchdi,
Quyun kabi samoni quchdi.
U dovuldek kuchli edi-yu,
Chaqmoq kabi yaltirar edi,
G'ururlanib tentaklarcha u
"Qiz meniki! Yo'qol sen!" dedi.
Tamaraning gunohkor joni,
Vahm bilan to'lib har yoni
Farishtaga o'zini urdi,
Duo o'qib qaltirab turdi.
Kelajakning taqdiri shu choq
Hal bo'lardi: chunki u tag'in
G'azab bilan solib qovog'in
Qiz oldida yoymishdi quchoq.
Ammo uni, ey parvardigor,
Shu choqda kim taniy olurdi?
Qanday g'azab bilan u g'addor
Achchig'lanib nazar solurdi,
To'lmish edi butkul so'nggi yo'q —
Dushmanlikning o'lim zahri-la
Yuzlaridan go'rga xos sovuuq
Yog'ar edi yovuzlik, hiyla.
"Ket shubhalar qora ruhi, ket!"
Dedi osmon elchisi unga:
"Ket ey beor, chekil ey bezbet,
Endi sening hadding yo'q bunga!
Yetar shuncha tantana qurding,
Yetar shuncha sen yo'ldan urding;
Endi hukm soati yetdi,
Parvardigor qat'iy amr etdi!
O'tdi unga sinov kunlari,
O'tdi unga azob tunlari,

Yerning foni y kiyimi bilan
Zulm zanjiri yechildi undan.
Bilgil! Uni ko'pdan kutardik,
Ko'pdan unga biz ko'z tutardik.
U shundayin ruhlardandi-ki,
Ular uchun hayot — bir damdir,
Betasalli, bir onli g'amdir.
U shundayin ruhlardandi-ki,
Rab ularning jonli torini
Yaratmishdir sarflab borini.
Ular asli dunyo uchunmas,
Va dunyo ham ular uchunmas!
Qattiq baho bilan sermehtnat
Shubhalarin yuvdi u butun.
U qiynaldi, sevdi. U uchun
Endi ishqqa ochildi jannat!"
Yovuz ruhga xo'mrayib boqib,
Ul farishta keng nafas oldi,
Sevinch bilan qanotin qoqib,
Ko'k dengizi ichra yo'qoldi.
Mag'lub bo'lgan Iblis shu zamon
Tentakona tilaklarini,
Orzular-u istaklarini
Hammasini qarq'ab beomon
Yana mag'rur, bir o'zi yakka
Burungidek beishq, bepakka
Mulzam bo'lib, qayg'uga toldi.
Bu jahonda tentirab qoldi!
Haligacha tog' yon bag'rida
Qoyishaur vodiysi uzra
Quyuuq bulut, tuman bag'rida
Uzoqlardan ko'rinib xira
G'amgin nazar tashlab to'rt tomon
U xaroba turadir hamon.
O'sha haqda bolalar uchun
Hikoyalar saqlamish kuchin...

Ro'yo kabi u tilsiz haykal,
U sehrli kunlar guvohi,
Qop-qorayib ko'rinar sal-pal
Daraxtlarning ichidan gohi.
Pastda ovul chechak otadir:
Yer yam-yashil gullab yotadir;
Guvillagan tovushlar pastda
Tog'dan toqqa urilar asta,
Pastda mayin shabada yelar,
Uzoqlardan karvonlar kelar,
Ko'piklanib yarqirab irmoq
Quyri tushmay, sakraydi har yoq.
Beg'am bola kabi tabiat
Hamisha yosh; sho'x hayot bilan
Quyosh, bahor nabotot bilan
Ko'ngil ochib o'ynar har soat.
Bir zamonlar navbati bilan
O'z davrini kechirgan saroy,
Xuddi do'st-u oilasidan
Judo bo'lgan, ayrilgan gadoy
Rangi o'chgan, g'amgin boqadi,
Ko'ngillarni o'tda yoqadi.
Uning yangi yashovchilari
Oy chiqishin kutib turalar;
Bu ularning hur bayramlari,
Chirqillashib o'ynab yuralar.
Yangi rohib — qari o'rgumchak
Uya to'qir sayrashib chik-chik.
Zangori, ko'k-kaltakesaklar
Mayda toshlar hamda kesaklar
Orasidan chiqishib shomda,
Giz-gizlashib o'ynashar tomda.
Astagina inidan ilon
Zinapoya ustiga chiqar;
Goh kulajak bo'lib bir zamon
Kallasimi pinjiga tiqar;

Goh uzayib, o'tgan zamonda
Katta urush payti maydonda
Esdan chiqib qolgan qilichdek
Qimirlamay yotib olar tek...
Bari vahshat; o'tgan yillardan
Hech bir yerda iz yo'qdir benom:
Asrlarning qo'li bulardan
Sekin-sekin o'chirmish tamom.
Tili yo'qdir, so'zlay olmaydi,
Hech narsani eslatolmaydi
Na shuhratli Gudal otidan,
Na sevimli qizi zotidan.
Ammo ular ko'milgan mozor
Zirvadagi butxona omon,
Olloh panohida beozor,
Bulut ichra ko'rinar hamon.
Eshigida qorovul bo'lib,
Boshdan-oyoq qorga ko'milib,
Temir sovut o'rmiga mangu
Muz kiyinib qotib turgan u
Saqlaguchi granit toshlar
Atrofiga sovuq ko'z tashlar...
Ko'chay degan ko'chkilar mudrab
Sovuq urib, muzlashib, titrab
To'rt atrofda shalolalardek
Osilishib turadilar tek!
Bo'ron soqchi bo'lib yuradi,
Devorlarning changin suradi.
Qo'shiq aytib baqirar goho,
Soqchilarni chaqirar goho.
Bir ajoyib kaliso bor deb,
Kavkaz tog'larida turar deb,
Oq bulutlar sharqdan yelishar:
Sajda qilmoq uchun kelishar.
Ammo, ko'pdan bu go'rlar uzra
Hech kim kelib yig'lamas sira.

Tund Kazbekning baland qoyasi
U o'ljani saqlar, ko'z uzmas.
Odamlarning mangu nolasi
Ularning tinch uyqusin buzmas.

I. V. GYOTE

EGMONT*

(tragediyadan parcha)

Klerhen qo'shig'i

(Musiqqa)

Yangrar barabanlar
Ham fleyta kuylar.
Mening yorim otryad
Oldida borar.

Ey, zavqing kelar,
Ko'ngling qo'zg'olar.
Ey, bo'lsa agarda
Dubulg'a, qalqon,
Kurashga chiqardim
Men ham begumon.
Borardim ortidan
Qolmay izma-iz.
Chekindi yov, olg'a
Borar polkimiz.
Qanday yaxshi bo'tir,
Zo'r jangchi bo'lmoq.
Zo'r jangchi bo'lmoq.

Egmont (*yolg'iz*). Qadrdon do'stim! Vafoli uyqu! Boshqa do'stlaring kabi nahotki sen ham meni tark etding! Sen axir erkin o'ylaringa orom berar, go'zal va so'nmas bir sevgi chambari kabi ardoqlar eding. Janglar suroni va dunyo tashvishlari ostida men begunoh bir go'dak singari og'ushingda tinch va yengil nafas olar edim. Bo'ron daraxt butoqlari va yaproqlari orasidan esib o'tib, uning tanasini silkitsa ham o'zagi omon qoladi-ku. Nechun men

qaliramoqdaman? Dalil va sodiq qalbimni g'alayonga solayotgan nima? Bilaman: bu — qotil boltasi. U mening hayot ildizlarimni kemirmoqchi bo'ladi. Qomatim raso tursa ham ichdan qaltiroq sezayotirman.

Nima uchun sen, eng qo'rqinchli xavf-xatarlarni sovun ko'piklaridek uchirib yuborgan kishi senga qarshi kelayotgan dahshatlarni mahv etib tashlayolmaysan? Axir sen o'limning har qanday dahshatlari ichida, hayotning oddiy tashvishlari ichida yashagandek bahuzur yasharding-ku!.. Yo'q, meni dahshatga solgan o'lim emas. Bu mard yurak nogahon o'lim bilan olishishga har qachon tayyor. Go'rga o'xshash bu zindon qo'rqoqlar nazarida ham, botirlar nazarida ham jirkanch ko'rinadi. Davlat kengashida knyazlar hal qilinishi juda oson bo'lgan masalalar ustida uzundan-uzoq muzokara yuritganlarida, yumshoq kresloda o'tirib ularni tinglash naqadar og'ir edi menga! Uzilmas zalning devorlari ostida men o'zimni xuddi bo'g'ilgandek his qilardim.

O'shanda men imkon boricha u yerdan tezroq qochishga shoshilar va otga minar, sof havodan to'yib-to'yib nafas olish uchun olistlarga, erkinlik qo'yniga, qirlarga chopardim. U bepoyon dalalarda tabiat o'zining yer tagidan chiqqan butun noz-ne'matlarini in'om etar va osmon o'z yulduzlari bilan olamni yoritardi. U yerlarda biz ona yerning farzandlari kabi uning og'ushida xuddi pahlavonlarga o'xshab yuksaklarga baland parvoz qilish uchun yana kuchliroq intilardik. Biz u yerda butun insoniy his-tuyg'ularni sezardik, qonlarimizda butun insoniy intilishlar alangasi yonar, u yerda yosh ovcining ko'nglida olg'a intilish, zafar tashnaligi, o'z kuch-qudratini ko'rsatish orzusi jo'sh urardi.

Oh, bu faqat xayolot, xolos. Ko'p zamonlar molik bo'lganim saodatning soxta xayoloti, xolos! Bu makkor taqdir seni qayoqqa undar? Yoki seni hech qachon qo'rqitilmagan o'limni quyosh chehrasiga keltirish o'rniga go'r azobidan darak bermoqchimi? Bu tosh devorlar naqadar badbo'y hid sochadilar menga! Hayotim so'nayotir. Tobutga o'xshash bu uyqu to'shagiga bosh qo'yish naqadar dahshatli...

Oh, hasrat, qayg'u! Meni bevaqt o'limga mahkum etmoqchi bo'lgan hasrat, to'xta, qo'y meni!.. Qachondan beri Egmont olam-

da butunlay tanho qoldi? Seni ezayotgan narsa baxt emas, shubhalar, shubhalar ezayotir... Nahotki, sen butun umr ishonganing qirohning adolati yoki malikaning muhabbatsimon do'stligi seni qorong'i so'qmoqda yolg'iz qoldirib, tun qo'ynida g'oyib bo'lib ketdi? Nahotki, shahzoda Oranskiy do'stlarga bosh bo'lib, meni ozod etishga jur'at etolmasa? Nahotki, xalq ko'tarilmasa? Nahotki, qudratli kuch bo'lib o'z qadrdon do'stiga najot bermasa?

Ey, meni o'z iskanjasiga olgan devorlar! O'z qalblarini qalqon qilib men uchun yordamga kelayotganlarning yo'lini to'smangiz! Avvallari mening ko'zlarimdan emib olganlari u jasorat olovlari endi ularning qalblaridan yana mening qalbimga quyulsin. Ha, ha! Ular ming-ming bo'lib qo'zg'olayotirlar! Ular kelayotirlar! Ular menga madad beradilar! Ularning o'tinch nidolari ko'kka uchmoqda, ular mo'jiza istaydilar, ular nayza va qilich olajaklar. Ularning zarbalari ostida darvozalar qulab tushadi. Kishanlar parchalanadi, devorlar yiqiladi va Egmont yorishayotgan tong shu'lalari ostida ozodlik qarshisiga peshvoz chiqadi. O, qancha-qancha tanish yuzlar shodiyonalik bilan kutib olurlar meni!..

Klerxen qo'shig'i

(Musiq)

Shodlik va qayg'u
Fikring band etar.

Yorim charchab, nafas
Kuchlanar, qiynar.

Azob tugab, uni
Quchadi shafqat
Va baxtiyorlik,
Faqat muhabbat.

Baxt-u bahor bilan
Sevgi-muhabbat.

Egmont. Hammasi tugadi. Hammasi hal. Najot yo'q. Turmadan chiqishga ham yo'l yo'q. Jallodlar bostirib kiradilar. Men esa boshimni bolta ostiga qo'yaman va shu turmada mangu uyquga ketaman. Men qo'lda qilich ushlab emas, shuhratli jangda emas, Gravelin jangida o'zini jangga tashlagan va orqasidan butun qahramonlar polkini yetaklab boruvchi qahramon sifatida emas, turmada hayot bilan vidolashmaktaman. Endi shu qorong'i turma devorlari ostida, shu bolta ostida tanho jon beraman.

Hammasi tugadi. Hammasi hal. Nima bo'ldi menga? Nima uchun ko'nglimda osoyishtalik? Bu qanday toza ruh? Menga hech narsa qo'rqinchli emas. Men tanho emasman. Ey, mening do'stlarim, jonajon xalqim, o'rtoqlarim! Men siz uchun yashadim va mening ruhim abadiy siz bilan birga. Qalbim to'la nur ham orom. Men uxlamoq istayman va ishonamanki... Ey jallod, meni uyqudan uyg'otmasdan...

Kel, ey, mening tinch oromim! Men uxlamoq istayman va ishonamanki, uxlayman. Um-m... jallod meni uyqudan uyg'otmasdan uyq urimga xotima bera qolsaydi. (Musiqqa) Kel, ey mening tinch oromim! Kel, hayot va o'lim haqida butun tasavvurlarni bir-biriga qorishtirib yubor. Shodlik va o'limni ham bir-biriga qo'sh. Sen ham kel, ey mening sevgilim! Kel, ey mening yagona Klaram, lablarimga lab qo'yib, so'nggi vidolashuv bo'sasini ber. Kel, tinch oromim, hayotimning so'nggi oromi, kel. (Musiqqa.)

Men ajoyib lavhani ko'rdim! Quyosh nuriga burkangan ozodlik timsolini ko'rdim va uning orazi, bu — erk orazi, sevgilim Klaraning orazidek tabassum qildi menga. Sizlar — mening qalbimdan joy olgan erk va sevgilim, ayting, qaysi biringizning sevgingiz kuchli ekan?... Biroq men so'ngida ko'rdimki, Klaraning tabassumi ozodlik qayg'usi bilan almashdi va qon oftob qiyofasida ravshan ko'rindi. Bu qon erk oyog'i ostida tuproqni qip-qizil qilib bo'yadi. "Bu sening qoning, sening, Egmont! Bu ko'plarning qoni — erk sevuvcilarining qoni!" degan sado yangradi. Bu qon behuda to'kilmadi. Bu qon ozodlik uchun to'kilgan qutlug' qondir.

Sening qoning tabarruk bo'ladi, Egmont! Qo'zg'ol, xalqim, qo'zg'ol, seni zafar kutadi. Sen dengizdek ulug'vor xalqsan, den-

gizdek qudratli va qo'rqinchli. Sen dengiz to'foni kabi butun to'siqlarni parchalab tashlaysan.

O, jonajon shahrim, dushman sening devorlaringga yaqinlashmoqda. Xalqim, grajdalar, do'stlarim, nega hozir siz bilan birga emasman? Ammo ruhim siz bilan birga. Yana mardona bo'ling, o'limdan qo'rqmang! Ozodlik uchun, o'limas muhabbatga ega bo'lgan hamma odamlar uchun o'lim yo'q! Demak, ozodlik uchun kurashingiz! Bu turmada tinch va shodlik bilan jon berayotgan men kabi siz ham jangda shodlik bilan jon bering!

Jallod, qani kir, o'z ishingni tugat! Ey, siz — yollangan soldatlar, siz jang maydonida kerak emassiz. Mening oldimga bostirib kirsangiz ham, o'z saffaringizni oshirsangiz ham, baribir, mening oldimda ojiz qolasiz. Men endi ikki umr bilan yashayman. Birini siz olasiz, ammo ikkinchisini sizga bermayman. Ikkinchisi — mening umrim. Bu umr xalq bilan ozodlikda yashaydi. (*Tantamali musiqqa.*)

I z o h

Men bundan bir-ikki yil avval buyuk nemis shoiri Iogan Gyote qalamiga mansub "Egmont" tragediyasining bir parchasi Usmon Nosir tomonidan tarjima qilinganini aniqlagan edim. Ammo bu topilma haqidagi maqolam matbuotda juda kechikib chiqdi. Undan ham achinarlisi shuki, adabiy jamoatda juda kechikib chiqadi. Unga bo'lgandek, unga zarracha e'tibor bermadi. Holbuki, nazarimda, Cho'ipon, Fitrat, Usmon Nosir singari adiblar qalamiga mansub har bir yangi asar yoki tarjimaning topilishi adabiy hayotda muhim bir voqea sifatida ish qoldirishi lozim.

Gyotening boy adabiy merosida "Egmont" tragediyasi alohida mavqeyni egallaydi. Garchand Gyote bu asarga 1786-yili Italiyada so'nggi nuqtani qo'ygan bo'lsa-da, uni shu voqeadan ropapa-rosa o'n yil ilgari, 1776-yili yoza boshlagan. Shuning uchun ham unda navqiron Gyote ijodiga xos romantik pafos, qahramonona ruh ustuvorlik qiladi.

Graf Egmont — tarixiy shaxs. Uning hayoti va faoliyati Niderlandiyaning ispan hukmronligiga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq. Egmont tarixiy shaxs sifa-

Egmont. Hammasi tugadi. Hammasi hal. Najot yo'q. Turmadan chiqishga ham yo'l yo'q. Jallodlar bostirib kiradilar. Men esa boshimni bolta ostiga qo'yaman va shu turmada mangu uyquga ketaman. Men qo'lida qilich ushlab emas, shuhratli jangda emas, Gravelin jangida o'zini jangga tashlagan va orqasidan butun qahramonlar polkini yetaklab boruvchi qahramon sifatida emas, turmada hayot bilan vidolashmaktaman. Endi shu qorong'i turma devorlari ostida, shu bolta ostida tanho jon beraman.

Hammasi tugadi. Hammasi hal. Nima bo'ldi menga? Nima uchun ko'nglimda osoyishtalik? Bu qanday toza ruh? Menga hech narsa qo'rqinchli emas. Men tanho emasman. Ey, mening do'stlarim, jonajon xalqim, o'rtoqlarim! Men siz uchun yashadim va mening ruhim abadiy siz bilan birga. Qalbim to'la nur ham orom. Men uxlamoq istayman va ishonamanki... Ey jallod, meni uyqudan uyg'otmasdanoq...

Kel, ey, mening tinch oromim! Men uxlamoq istayman va ishonamanki, uxlayman. Um-m... jallod meni uyqudan uyg'otmasdanoq umrimga xotima bera qolsaydi. (Musiq) Kel, ey mening tinch oromim! Kel, hayot va o'lim haqida butun tasavvurlarni bir-biriga qorishtirib yubor. Shodlik va o'limni ham bir-biriga qo'sh. Sen ham kel, ey mening sevgilim! Kel, ey mening yagona Klarlam, lablarimga lab qo'yib, so'nggi vidolashuv bo'sasini ber. Kel, tinch oromim, hayotimning so'nggi oromi, kel. (Musiq.)

Men ajoyib lavhani ko'rdim! Quyosh nuriga burkangan ozodlik timsolini ko'rdim va uning orazi, bu — erk orazi, sevgilim Klaraning orazidek tabassum qildi menga. Sizlar — mening qalbimdan joy olgan erk va sevgilim, aytimg, qaysi biringizning sevgingiz kuchli ekan?... Biroq men so'ngida ko'rdimki, Klaraning tabassumi ozodlik qayg'usi bilan almashdi va qon oftob qiyofasida ravshan ko'rindi. Bu qon erk oyog'i ostida tuproqni qip-qizil qilib bo'yadi. "Bu sening qoning, sening, Egmont! Bu ko'plarning qonini — erk sevuvchilarning qoni!" degan sado yangradi. Bu qon behuda to'kilmadi. Bu qon ozodlik uchun to'kilgan qutlug' qondir.

Sening qoning tabarruk bo'ladi, Egmont! Qo'zg'ol, xalqim, qo'zg'ol, seni zafar kutadi. Sen dengizdek ulug'vor xalqsan, den-

gizdek qudratli va qo'rqinchli. Sen dengiz to'foni kabi butun to'siqlarni parchalab tashlaysan.

O, jonajon shahrim, dushman sening devorlaringga yaqinlashmoqda. Xalqim, grajdanlar, do'stlarim, nega hozir siz bilan birga emasman? Ammo ruhim siz bilan birga. Yana mardona bo'ling, o'limdan qo'rqmang! Ozodlik uchun, o'lmas muhabbatga ega bo'lgan hamma odamlar uchun o'lim yo'q! Demak, ozodlik uchun kurashingiz! Bu turmada tinch va shodlik bilan jon berayotgan men kabi siz ham jangda shodlik bilan jon bering!

Jallod, qani kir, o'z ishingni tugat! Ey, siz — yollangan soldatlar, siz jang maydonida kerak emassiz. Mening oldimga bostirib kirsangiz ham, o'z saflaringizni oshirsangiz ham, baribir, mening oldimda o'jiz qolasiz. Men endi ikki umr bilan yashayman. Birini siz olasiz, ammo ikkinchisini sizga bermayman. Ikkinchisi — mening umrim. Bu umr xalq bilan ozodlikda yashaydi. (*Tantanal musiqa.*)

I z o h

Men bundan bir-ikki yil avval buyuk nemis shoiri Iogan Gyote qalamiga mansub "Egmont" tragediyasining bir parchasi Usmon Nosir tomonidan tarjima qilinganini aniqlagan edim. Ammo bu topilma haqidagi maqolam matbuotda juda kechikib chiqdi. Undan ham achinarlisi shuki, adabiy jamoatchilik, go'yo hech narsa bo'lmagandek, unga zarracha e'tibor bermadi. Holbuki, nazarimda, Cho'ipon, Fitrat, Usmon Nosir singari adiblar qalamiga mansub har bir yangi asar yoki tarjimaning topilishi adabiy hayotda muhim bir voqea sifatida ish qoldirishi lozim.

Gyotening boy adabiy merosida "Egmont" tragediyasi alohida mavqeyi egallaydi. Garchand Gyote bu asarga 1786-yili Italiyada so'nggi nuqtani qo'ygan bo'lsa-da, uni shu voqeadan rop-pa-rosa o'n yil ilgari, 1776-yili yoza boshlagan. Shuning uchun ham unda navqiron Gyote ijodiga xos romantik pafos, qahramonona ruh ustuvorlik qiladi.

Graf Egmont — tarixiy shaxs. Uning hayoti va faoliyati Niderlandiyaning ispan hukmronligiga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq. Egmont tarixiy shaxs sifa-

tida hech qachon bu harakatning yo'lboshchisi bo'lmagan. Ammo mustabid ispan tuzumi Egmont siymosida qo'zg'olon ko'targan ommaning yo'lboshchisini ko'rgan va uni mahv etib, qo'zg'olon "ildiz"ini tag-tomiri bilan qirqib tashlamoqchi bo'lgan.

Gyote o'z asarini yozish jarayonida Egmont obrazini qayta idrok etdi: qiroлга sodiq bu insonni el-yurtning ardoqli farzandi, niderland milliy xarakterining jonli tajassumi sifatida talqin qildi. Hurlik va ozodlik uchun kurash g'oyasi balqib turgan "Egmont" tragediyasi buyuk nemis kompozitori Lyudvig Van Betxovenga bir olam ilhom bag'ishladi va u o'zining o'lmas musiqasi bilan bu asarga ikkinchi umrni ato etdi. Mana, qariyb ikki asrdan beri "Egmont", Betxovenning bu asar asosida yaratilgan "Fidelio" operasi-yu "Leonora" uvertyrasi bilan birga jahon teatrlari va konsert zallari sahnasini bezab kelmoqda.

XX asrning 30-yillaridan Betxoven musiqasi bilan muzayyan etilgan "Egmont" tragediyasi mashhur rus artistlari ijrosida namoyish etila boshladi. O'sha yillari O'zbekiston radio qo'mitasida ham ushbu asarni efir orqali o'zbek tilida xalqqa yetkazish istagi tug'iladi. Qo'mita rahbari Qurbon Bereginning maslahati bilan asar tarjimai Usmon Nosirga topshiriladi. Shu kezlari "Demon"ni o'zbek tiliga qoyilmaqom qilib tarjima qilgani va ijodida isyonkorlik ruhi kuchli bo'lgani uchun, Q. Beregin nazari-da, bu asarni faqat Usmon Nosirgina tarjima qilishi mumkin edi. Ammo tarjima tayyor bo'lib, radiospektaklni yaratishga kirishil-gan vaqtda Usmon Nosir daf'atan qamoqqa olinadi.

1937-yil 28-avgust kuni bo'lib o'tgan tergov vaqtda radio qo'mita adabiy eshittirish tahririyati xodimlaridan biri bunday ma'lumot bergan: "Taxminan iyul oyining oxirlari yoxud avgust oyining boshlarida men "Egmont" adabiy-musiqiy eshittirishi tarjimoni Usmon Nosirovning hibsga olinganini eshitdim. Men bu haqda Pekkerga aytib, undan endi nima qilamiz, deb so'radim. Pekker menga aniq bir javob bermadi. Shundan keyin ko'p o'tmay, O'zbekiston radio qo'mitasiga respublikada xizmat ko'rsatgan artist Abror Hidoyatov kirib keladi. Pekker unga asarning aksilinqilobchi millatchi Usmon Nosirov tomonidan tarjima qilingani haqida churq ham etmay, unga Egmont monologini yodlash uchun

berdi. Bu ham kamlik qilgandek, Abror Hidoyatov asarni kim tarjima qilganligi bilan qiziqqanida Pekker uning allaqanday Usmonov degan odam tomonidan tarjima qilinganini aytadi...

Ushbu ko'rsatmaga qaraganda, "Egmont" rolini Abror Hidoyatov ijro etishi, sharnofonga yozib olingan bu adabiy-musiqiy eshittirish Parijda o'tajak ko'rgazmaga yuborilishi va xalqaro festivolda o'zbek madaniyatining sovet davrida erishgan yutuqlarini ko'z-ko'z qilishi lozim edi. Lekin, afsuski, "hushyor" kimsalarning sa'y-harakatlari tufayli "Egmont" radiospektakli o'z vaqtida efirga chiqmay qoldi. Asarning Abror Hidoyatov qo'lidagi nusxasi NKVD tomonidan olib ketildi. Buyuk o'zbek artisti esa "aksilinqilobchi va millatchi shoir" qalamiga mansub tarjimani ijro etmoqchi bo'lgani uchun jabr tortdi.

50-yillarda O'zbekiston radio qo'mitasiga ishga kelgan atqoli so'z ustasi Ubay Qurbon, keksa radiojurnalist Qurbon Ziyoyevning xotirlashiga qaraganda, mazkur tarjimaning boshqa bir nusxasini topib, shu nusxa asosida "Egmont" radiospektaklni tayyorlagan va bu asar uzoq yillar davomida efir orqali eshittirib borilgan.

Biz bugun bu asarni o'qir ekanmiz, uning dahshatli 1937-yili Usmon Nosir tomonidan bejiz tarjima etilmagani va unda qatl oldida turgan o'zbek shoirlarining qalb nidolari ifodalanganiga guvoh bo'lamiz.

Quyida birinchi marta e'lon qilinayotgan "Egmont" monolog otashnafas shoir va tarjimon Usmon Nosirning so'nggi qo'shig'idir.

Naim Karimov

YOSHLARNING OMMABOP QO'SHIQLARI

1935-yilda O'zbekiston yoshlar komiteti (O'zLKSM) ning Markaziy byurosi va O'zbekiston Xalq Komissarlar Soveti huzuridagi Radiolashirish va radioeshittirish komitetining qaroriga binoan yoshlar tashkilotining VII qurultoyiga bag'ishlab vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ommabop qo'shiqlarni yaratish uchun tanlov e'lon qilingan. Tanlovda ishtirok etishni xohlagan shoir va kompozitorlar qanday ommabop qo'shiqlarni yaratish lozimligi to'g'risida tasavvur hosil qilishlari uchun shu yillarda rus yoshlari uchun yaratilgan qo'shiqlardan bir necha namunalar yoshlar gazetasida chop etilgan. Rus shoirlari va kompozitorlari hamkorligida yaratilgan bu namunalarni tarjima qilishda Mirtemir bilan Usmon Nosir faol ishtirok etishgan.

Quyida Usmon Nosir tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan she'rlar Siz, azizlar, e'tiboringizga havola qilinadi.

B. Kornilov so'zi

D. Shostakovich musiqasi

Uyg'on, oppog'im

1

Tong sahar sabo salqinida

Kutar shamol bilan daryo.

Erkam, nega xursand emassan,

Gudok ursa zavod har yon.

Uyg'on, qo'zim, turgil, go'zal,

Sexlarda yangrar bong.

Vatan turar shuhrat bilan,

Otar go'zal tong.

2

Brigadir bizga intizordir,
Tabassum bilan boqasan!
Ular-la birga mehnatingni(ng)
Shodligini sen bilasan.

Mehnat senga ham, oppog'im,
Beradir senga ong.

Vatan turar shuhrat bilan,
Otar go'zal tong.

3

O'shal bilan sen muzaffar,
Sen, bizning yoshlik, ilgari.
Hali sening o'rningga yangi
Chiqmaguncha toza nashi.

Ham hayotga shovqin bilan
Urur shonli dong.

Vatan turar shuhrat bilan,
Otar go'zal oq tong.

1935-yil, noyabr

PARTIZANLAR MARSHI

Tog'lar oshdi, yo'llar yurdi,
Ey diviziya olg'a!
Dushmanlarning tayanch yurti -
Zo'r dengizni olmoqqa.

Porlatardi bayroqlarni
Yaralardan oqqan qon.
Yurdi Amu partizani —
Kuchli, abjir eskadron.

U yillarning dong'i ketgan,
Dong'i so'nmas hech qachon.
Ko'p shaharni ishg'ol etgan
Otryad-otryad partizan.

Har esdan chiqmas bir zum -
Nurli mash'al singari.
Spasskdagi bo'lgan hujum
Volochaev kunlari.

Atamanlar yakson bo'ldi,
Hammasiga bosdik o't.
Shundan so'ngra tamom bo'ldi
Zo'r dengizda bu poxod.

SHO'X YIGITLAR MARSHI

Yoshligimiz, olg'a yur, komsomol, bos,
Ko'ngil, yayra, to'lqin ur, sen quvon.
Bizning ko'nglimizga qayg'u kirolmas,
Bizning dilda bo'lmas nola-yu fig'on.

N a q o r a t:

Bizning shodlik, gul kabi har zamon o's,
O's, sen bilan yashasin bu Vatan.
Biz hammamiz birgamiz, hammamiz do'st,
Biz hammamiz bu Vatanda bitta tan.

Biz — otalar umrining zo'r davomi,
Karvonimiz bilmas nadur u — qazo.
Biz olamning yosh va havfli egasi,
Asir tushdi bizga vaqt ham fazo!

N a q o r a t:

Biz bolalarday kuylamak va kulmakka,
Axir shunday keldik biz yashamakka.
Har zamon ham har vaqt haqlimiz —
Ki, har yerda har qachon yengamiz!

N a q o r a t:

Dushman agar o't ochib bizga qarshi,
Shodligimiz tarkini xohlasa,
Biz boramiz yangratib yenguv marshin,
Ko'krakni yurt uchun kerib rosa.

N a q o r a t:

AVIATSIYA MARSHI

Xayollarni haqiqatga buramiz
Masofalar, olislarni olib.
Po'latlardan qanot taqib boramiz,
Havolarga motor yo'li solib.

N a q o r a t:

Yuksalsin, yuksalsin, yuksalsin
Po'lat qanotli qushimiz!
Va har bir propeller yorsin
Havoni, oshib kuchimiz!

Ko'z ko'rmagan yuksakliklarga chiqamiz —
Mamlakatning saodatini ko'zlab.
Havolarda sellar kabi oqamiz
Mamlakatga yangi yo'llar izlab!

N a q o r a t:

Atomlarni ko'radi ko'zimiz
Asbobimiz po'lat kabi mahkam.
Mamlakatga shudir keskin so'zimiz:
Yov yuzlansa hozirdirmiz biz ham!

MAHMUD SULTON HAQIDA

O'lkalar fathdori, ey Mahmud Sulton,
Tangridan tortingin, to'ka berma qon!
Sendan ilgari ham shohlar bor bo'lgan,
Barchasi dovyurak, tojdor bo'lgan,
G'oyatda keng edi ularning yeri,
Emasdi davlatda kam birdan-biri.
Ularga yor edi adolat, poklik,
O'rnatganlar yurtda ammu omonlik.
O'llo yo'li bilan ketishgan ular,
Ulusga rahm-shafqat etishgan ular,
Ular tirishganlar qozonishga nom,
Yurtdoshlari bo'lgan doim saranjom,
Qaysi shoh sajdakor oltin oldida,
Obro'sin to'kadi elik oldida.
Buyuklar-la ular bahslasha olmas,
Hech qanday yovga ham qasdlasha olmas!
Ishonib taxtingga, tojingga al'on,
Sitam aylayursan menga ham obdon!
Ko'rmovdingmi mening g'azabli yuzim,
Tinglab tinchlanmaganmiding qilichdek so'zim!
Meni sen g'ayratsiz, dinsiz sondingmi,
Arslon yigitga sen zanjir soldinmi?!
So'zlar ko'p Ali-yu Nabiga doir,
Yozayin, desinlar: "Bu nechuk shoir?"
Kimning Ali bilan dushmanligi bor,
Ul bo'lur har ikki dunyoda xor-zor.
Ulardan qo'l siltab ketmasin nari,
To'g' rasa-da tanim shohning xanjari!
Tuproq qo'rqmagandek selda ivishdan,
Qaytmayman bu ikki shohni sevishdan!

Mayli, boshqa shohlar kessin boshimni,
Ko'rgin sadoqatda zo'r bardoshimni!
Haromiylargina ularga dushman,
Ularni ham yoqar olovda, yazdan!
Men kimman! Nabining kichik bir quli,
Yo'limdir har qachon Alining yo'li.
Poy ostida ezib fil kabi mani,
Oqizmoqchimisani Nil kabi mani?!
Qo'rqmasman, qalimda qonimki jo'shar,
Unda Ali bilan Nabilar yashar.
Ular kelishtirib ollostan vahiy,
Deganlarki: "Aslo bo'lmanglar osiy!"
"Men elning shohi-yu Ali eshagi",
Bu so'zni takrorlar ular har gali.
Bu so'zlar qulog'im ostida yangrar,
Yashashga bag'ishlab shuurlar, onglar.
Bo'lsa edi sening aqling, tadbiring,
Alining yonida bo'lardi yering.
Tuproq'i erurman men Haydar poyin,
Quli emasdurman o'zgalar royin!
Dargohingda aytar so'zlarim boshqa,
Sinnagay bu so'zlar urilsa toshga.
Bu yerda yashasa gar Mahmud Sulston,
Bir arpa donasi qutulmas undan,
Boshqa bir saroyda Ali, payg'ambar
Tangri amri bilan sochar oltin-zar.
Ular uchun yozaman doston, hikoyat,
Yuz Mahmuddan sha'nin etib himoyat.
Dunyoda sulstonlar yasharkan al'on,
Shohlar payg'omini azizlar har on.
Bilurlar Firdavsiy haqqoniy shoir,
Yozmagan nomani Mahmudga doir.
Alining, Nabining yozdim otidan,
Dur yog'ar she'rinning har qanotidan.
O'zga bir Firdavsiy yo'qdir jahonda,
Na yoziq, tolei qolsa nihonda!

Sen mening nomamga boqmading bir on,
Fano tillar chiqarmish yo'ldan.
Ey mening she'rimga xor qaragan inson,
Qo'lingdan tutmasin bu charxi davron!
Men o'tgan shohlarni soldim dostonga,
Kiritdim ularni she'riy bo'stonga.
Sakson yoshga kirib yetdim kamolga,
Ammo kmidimsi, uchdi shamolga!
Xazina shavqida yuksak saroyda
O'ttiz yil urinib topmadim foyda.
To'qdim oltmish ming sharqiroq baytlar,
Barchasidan tarix tovshi jaranglar.
Qilichdan, xanjaridan, o'qdan, kamondan,
Qoplondan, ziroqdan, jang-u tumondan,
Omud-u, kafton-u, qalqondan yozdim —
Dengizdan, saho-yu qa'radan yozdim.
Yozdim jonivordan: sherdan, nahangdan,
Devdan, ajdahodan, fildan, falangdan.
Sehrdan, hiyladan, jodudan, g'uldan,
Ularning tovshidan titraydi jahon.
Yozdim maydondagi pahlavonlarni,
Urushdan so'zlagan zo'r zabonlarni!
Yozdim Tur-u, Zol-u, Afrosiyobdan,
Insonlar rafiqi, mehri oftobdan!
Yozdim Faridumni, Qayqubodni ham,
Zahokning qilgani istibdodni ham,
Som-u, Guguras-u, Narimanni ham,
Yozdim turli-turli urushlaridan,
Yurtni payhon etgan yurishlaridan.
Manuchebr, Xushonni ta'riflab senga,
Tahmuras devbandni bitdim dostonga.
Bahs etdim Jamshidning shijoatidan,
Bexosiyat shuhrat-u har jihatidan.
Qovusdan, Hisravdan, toj berganlardan,
Zol o'g'li Rustamdan, Tuns bedonlardan
Sakson pahlavondan, Gudarzdan yozdim,

Har otlig'-u, qo'li darozdan yozdim.
Yozdim shijoatlig' Lurahrasb shohri,
Askar-u, lashkarlik Kushtasib shohni.
Munajjim xomasin ishini yozdim,
Oydan porloq bo'lgan kishini yozdim.
Doroni, Dorobni, Bahmalinni oldim,
Buyuk Iskandarni kitobga soldim.
She'riy misralarda o'stirib bo'ston,
Qur'dum Ardasher-u, Shopurga doston.
Yozdim Bahrom ila Nushiravondan,
Tarixga ko'z tashlab ko'ni ravondan.
Firuz-u, Hurmuz-u, Qubbadni yozdim,
Ul buyuk Hisrav-u parvizni yozdim.
Bu nomdor yigitlar — ulug' insonlar
Haqida men senga berdim nishonlar.
O'lib ketgandilar dunyo yuzidan,
Qayta tirildilar shoir so'zidan.
Iso payg'ambarday so'zlatirgizdim,
Yangidan barchasin nomga kirgizdim.
Mening so'zim tingla ey, inson, Shahriyor,
Qoladur dunyoda sendan ham yodgor.
Lekin yodgorlik binolar qular,
Ularni tarixda tuproqlar ko'mar!
Quyosh qovjiratar, yomg'irlar yuvar.
Ammo men she'r bilan yasadim bino,
Na to'fon, na dovul kor qilmas anga!
O'tajak umrlar, o'tajak yillar,
Meni yo'qlaydilar, o'lkalar, ellar!
Umidim g'unchasi ochmadi bir on,
Buni kutmaganman shohlar shohidan!
Pastkashlar bo'lmasin aslo baxtiyor,
Go'zal so'zlarimni fano bildilar.
Mani shoh oldida yomonlagan kim,
Yop-yorug' yulduzni tumanlagan kim?
Bo'lsa edi bir Musnif, kelib qoshga,
Desa "Tildan kelur har balo boshga!"

Sochdim so'z urug'in tamom jahonga,
Aylandi so'z bilan jahon rizvonga.
Dunyoga ko'p kelmish "shoir" deganlar,
Yulduzlarcha sonsiz she'rlar yozganlar.
Birortasi mendek she'r yozmaganlar,
O'ttiz yil tinmayin umr sarf etdim,
So'z bilan Ajamni olib tiritdim.
Bo'lmaganda edi shoh gar qattiqqo'l,
Maskani bo'lmadi bo'm-bo'sh qaqroq cho'l.
Shohda bo'lsa edi qatra ma'rifat,
Albat bilmas edi meni buncha past.
Shoh ajdod aslan emasdi tojdor,
Shuning-chun tojdorni etayotir xor.
Uning otasi shoh bo'lganda agar,
Quygan bo'lar edi boshim uzra zar.
Sultonning onasi bo'lsaydi xotin,
Tizzamga chiqardi kumush-la oltin.
Nasabi buyukli ko'rmaganidan,
Yuksaklik, buyuklik ko'rinmas undan.
"Shohnoma" ustida o'ttiz yil tamom,
Tirishdim, olmoqqa xazina in'om.
Menga ham sultonim aylar deb niyoz,
Etar deb yigitlar ichra sarfaroz,
Armug'on olmadim, bo'ldim darbadar,
Armug'onim bo'ldi bir chaqa qadar.
Sarf aylab umrimdan men yarim yo'lni,
Oldim xazinadan bir fuqa pulni.
O'zga ne kutilar bu Shahriyordan,
Bu bedin, bu bebok xiyonatkordan?!
Bir g'ulom o'g'lida nima ham bo'lar,
Otasi ham uning yulg'ich — yurt talar!
Kim ulardan umid etsa yaxshilik,
Umidida bo'lur albat chalkashlik!
Kalava uchini yo'qotgan ular,
Qo'ynida ilonni yayratgan ular.
Jannatga achchiq bir daraxtni eksang,

Undagi mevaga ko'zingni tiksang.
 Anga jannat suvin etsang farovon,
 Achchiq mevam berur senga har qachon.
 Yondashsang atirchi yoniga agar,
 Boshingdan — poygacha sochilur anbar.
 Har kim ko'mirchining yonidan o'tar,
 Albatta, shubhasiz qoraga botar.
 Fanoda yaxshilik bo'lurmidi hech,
 Tunning qorong'usi yorurmidi hech?!
 Faqiming paymoni, ko'zi sog' bo'lmas,
 Zangini yuvgan-la yuzi oqarmas.
 Badaql odamga ko'z tikma nohaq,
 Bu bilan socharsan ko'zingga tuproq.
 Uni Haq yaratgan azaldan shundoq,
 U yovuz, yaxshilik qilmaydi hech choq!
 Buyuklik, yuksaklik o'lchanmas so'z-la,
 Ikki yuz so'm emas, bir oz ish izla.
 Shohning najobati bo'lsaydi taniz,
 Saqlardi ma'rifat so'zini aziz.
 Tushdiki boshimga bunday mojaro,
 Umrimning damlari bo'ldi qop-qaro.
 Na uchun yozdim bu ko'nglim so'zlarin?
 Yaxshi ochmoq bo'lib shohning ko'zlarin.
 Etdim so'zlar bilan sultonga tuhmat,
 Bu so'zlar uning-chun pand-u nasihat.
 E'tiborin yig'ib bu she'rlarga xos,
 O'zin hurmatini tushunsin biroz.
 Shoir yoqmaganni hajviyga qo'shar,
 Dunyo yashaguncha hajviysi yashar.
 She'rlaringa derman: "Bor, uni yondir,
 Bu qulning ruhini kel, yorug'lantir!"

MUNDARIJA

"Chaqmoq" qa aylangan shoir qismati (<i>Naim Karimov</i>)	3
SHE'RLAR	
Haqiqat qalami	14
"Boraman men sizga, qarindoshlar..."	15
Zamon pochatasi	16
Oq yuvib, oq tarab	19
Yuksal, oppog'im!	21
Quyosh bilan suhbat	22
Slyotga kuylayman	28
"Aytayin chin avji birlan..."	29
Nabi	29
Senikim shu bo'y?	31
O'tmishni eslab... ..	33
Birinchi xat	35
Men ham boraman	39
"... Lirika!"	40
Saman otga minib... ..	46
Salom, kunduz	47
Qunduz, sochlaringni tarat!	48
So'zla, tarix — chol	51
She'rim	53
Yurak	53
Qora satrlar	54
Yoshlik	57
Yoshlar kechasida	57
Dilimdadir mangu	58
Imtihon ishqida	59
"Shafaq — uzun, qizil lenta..."	60

Bolaligimga	61
Ikki she'r	61
Monolog	63
"Gulzor — chaman. Yur, bog'larga..."	65
Tiflis oqshomi	66
Xayr, Sevan!	67
Karvon boradi	67
Traktor boradi	68
Band	71
Shahrinisa	76
Oyimjon	77
Xolida Sulaymonovaga	81
Senga, singlim	81
Begona	82
Charens	83
"Qushcha kabi derazamga urar qanotin..."	83
"Moviyluk dengizi borliqni ko'mgan..."	83
"Boraman, oqarib yotar yo'llar..."	84
"Shafaq o'chay deb qoldi"	84
"Hayot hali mening oldimda"	84
"Oлча bog'laridan esgan shamol"	85
"Yodimdadir uzoq Shimol"	85
Bobomning falsafasi	86
"Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi"	88
Nil va Rim	88
Isroil	91
Korab	95
"Yur, tog'larga chiqaylik"	96
Baliqchi	96
"Yurganmisiz birga oy bilan"	97
"Dengiz oyna kabi yaltirar"	97
Dengizga	98
Yo'ichi	99
Do'stlarim, xabar qiling	99
Yana she'rimga	99
"Shirin bo'ldi hayot iqlimi"	100
Bog'im	101
Nasimaga deganim	102
Qizlar	102

Ta'zim	110
Yurak tug'yoni	111
"O'lmaslik da'vosin qilmoq nomardlik"	112
"Umidim bor"	112
Tutqun bulbulcha	112
Tojixon	113

**USMON NOSIRGA
NISBAT BERILGAN SHE'R**

Hayot	116
-------------	-----

DOSTON

Naxshon	118
---------------	-----

DRAMA

Atlas	168
-------------	-----

TARJIMALAR

A.S. Pushkin. Bog'chasaroy fontani	196
M.Y. Lermontov. Demon	217
I.V. Gyote. Egmont	259

YOSHLARNING

OMMABOP QO'SHIQLARI

B. Kornilov. Uyg'on, oppog'im	266
S. Alimov. Partizanlar marshi	268
V. Lebedev-Kumach. Sho'x yigitlar marshi	269
P. Yerman. Aviatsiya marshi	270
Mahmud Sulton haqida. Abulqosim Firdavsiy	271

U 73

Usmon Nosir [Matn]: nazm / to'plovchilar: Naim Karimov, Marhabo Qo'chqorova. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 280 b.

ISBN 978-9943-8723-6-3

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(50)-5



USMON NOSIR

19-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Oydiniso Yo'ldosheva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhah *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnomia raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/16.
Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" gamiturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 17,5. Nashriyot-hisob tabog'i 13,08.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 87-1/72. Buyurtma raqami № 22-301

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.